ISSN 2181-385X

SCIENTIFIC TECHNICAL JOURNAL

CAFET

CENTRAL ASIAN FOOD ENGINEERING AND TECHNOLOGY



VOLUME 1, ISSUE 1

Google Scholar

OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI

DIGITAL OBJECT IDENTIFIER

zenodo

2023/1

MARCH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

"CENTRAL ASIAN FOOD ENGINEERING AND TECHNOLOGY" ELEKTRON ILMIY JURNALI

OAK rayosatining 2023 yil 28-fevraldagi 333/5-son qarori bilan dissertatsiya ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallar ro’yxatiga kiritilgan.

Texnika, qishloq xo‘jaligi, kimyo, biologiya, veterinariya yo‘nalishlari bo‘yicha yozilgan ilmiy maqolalar nashr etiladi.

2023/1
VOLUME 1 ISSUE 1

Toshkent 2023

ISSN 2181-385X
https://doi.org/10.5281/zenodo.8064353

"Central Asian Food Engineering and Technology" elektron ilmiy jurnali 1-soni. – 2023-yil Mart.

Bosh muharrir:
Botir Shukurillayevich Usmonov, t.f.d, professor.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Pulatov Xayrulla Lutpullayevich, k.f.d, professor.
Mas’ul kotib:
Sanayev Ermat Shermatovich, PhD, dotsent.
Texnik muharrir:
Raximov D.P., PhD

Tahrir hay’ati:

Safarov T.T., professor. *Yunusov M.Y., professor.* *Torices M. F., professor. (Ispaniya)* *Baltabayev U.N., dotsent.* *Gomez O. C., DSc. (Meksika)* *Djuletta Rau, professor. (Italiya)* *Xo’jamshukurov N.A., professor.* *Kwoun K.H., DSc. (Janubiy Koreya)* *Erkmen O., DSc, professor. (Turkiya)* *Nusair R.E., PhD, assistant of professor. (Malaysia)*	*Lee G.S., PhD. (Janubiy Koreya)* *Davronov Q.D., b.f.d.* *Serkayev Q.P., dotsent.* *Xakimov B.B., professor. (Daniya)* *Lee J.Sh., professor. (Janubiy Koreya)* *Kirkor M.A., professor. (Belorussiya)* *Isobayev M.D. (Tojikiston)* *Syad.N.A., professor. (Hindiston)* *Madrahimov Sh.T., PhD. (Qatar)* *Raxmanberdiyev G.R., professor.* *Ikromov A., professor.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022 yi 8-avgustda №1692 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Toshkent kimyo-texnologiya instituti.
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32.



Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.

Jonkuyar olimlarimiz buyuk ajdodlarimizning ilmiy an’analarini munosib davom ettirgan holda, ilm-fanni taraqqiyotimizning drayveriga aylantirib, mamlakat rivojiga xizmat qiladigan muhim kashfiyotlar yaratishlariga ishonaman.

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



USMONOV BOTIR SHUKURILLAYEVICH

Pedagogika fanlari doktori, texnika fanlari doktori, professor

Texnika fanlari doktori, pedagogika fanlari doktori, professor, Turon Fanlar akademiyasi akademigi Botir Shukurillayevich Usmonov, ixtisosligi bo‘yicha injener-mexanik, 2019 yildan boshlab, Toshkent kimyo texnologiya instituti rektori lavozimida ishlamoqda.

B.Usmonov 1985 yili Qozon texnika universitetiga o‘qishga kirib, uni 1993 yilda a’lo darajali diplomga yakunlagach, Toshkent davlat texnika universitetiga ishga kirdi va tadqiqotchi sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi.

U aspiranturani 1999 yilda muvaffaqiyatli yakunlab “Zarbaviy to‘lqinlar turkumini statsionar jismga tushishini matematik modellashtirish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

B.Usmonov o‘z mehnat faoliyatini Toshkent davlat universitetining “Aerodinamika” kafedrasida 1995 yilda assistentlik lavozimidan boshladi. So‘ngra kafedrada o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent va 1997-1999 yillar kafedra mudiri o‘rinbosari, 2003-2005 yillari malaka oshirish va Fuqaro aviatsiyasi fakultetlari dekani lavozimlarida ishladi.

1989 yilda O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining o‘zaro kelishuviga asosan B.Usmonov axborot texnologiyalarni fan sohalarida qo‘llash uchun Hindistonda ochilgan Birlashgan Millatlarning ilmiy markaziga ilmiy-o‘quv amaliyotiga yuborildi. B.Usmonov ushbu amaliyot davri bilan birgalikda Andra universitetining axborot texnologiyalar magistri degan akademik unvoniga sazovor bo‘ldi va Toshkent davlat aviatsiya institutida ish faoliyatini davom ettirdi. 1999 yilda Germaniya Federativ Respublikasiga ilmiy stajirovkaga yuborildi. U Gamburg-Xarburg texnika Universiteti qoshida tashkil etilgan Shimoliy Texnologiyalar institutida 2 yil davomida mexatronika ixtisosligi bo‘yicha “Mexanika

va informatika fanlari" magistraturada o'qib magistrlik dissertatsiyasi bilan birga Global Injenering menejment akademik darajasi sohibi bo'ldi, hamda kompyuterda loyihalash va dasturlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordi.

1994-1999 yillar davrida O'zbekiston Prezidenti "Ustoz" va "Iste'dod" fondining ikki karra grant sovrindori sifatida Yaponiya va Germaniyaga qisqa muddatli malaka oshirish safarlariga yuborildi.

B.Usmonov akademik litsey va o'rta maxsus ta'lim kollejlari uchun o'quv qo'llanmalar yaratishda ham qatnashdi (2007y.), va oliy o'quv yurtlari uchun "Aviatsiyada huquqiy va tashkiliy asoslar" (o'quv qo'llanma, 2007y.), "e-Learning practices", ya'ni "Elektron ta'lim amaliy asoslari" (2-tomlik nashr, 2010y.) darslik va o'quv qo'llanmalarning muallifi. Bugun uning 85 dan ortiq ilmiy va ilmiy-metodik adabiyot, risolalari va maqolalari Respublika va Xalqaro jurnallarda va ilmiy-amaliy konferensiyalarida chop etilgan. B.Usmonov chet ellarning yirik anjumanlarida ham o'z ilmiy dokladlari bilan ishtirok etgan. Jumladan, Janubiy Koreyada Konkuk universitetining aviatsiya axborot texnologiyalari fakulteti bilan hamkorlikda 2007 yili o'tkazilgan Xalqaro vertoletsozlar ittifoqining konferensiyasida, 2002-2006 yillari Germaniyaning nufuzli universitetlarida, 2005 yili Italiyaning Genua universitetida, 2005 yili Yaponiyaning Aeronavtika o'quv yurtida seminar va anjumanlarida, Tursiya, Xindiston va Italiya davlatlarinig turli muxandislik, oliy ta'lim muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalar bilan ishtirok qildi. 2009-2010 yillar uchun Shveytsariya milliy ilmiy tadqiqotlar fondi sovrindori, ya'ni axborot texnologiyalariga oid ilmiy loyihaga rahbarlik qilmoqda.

U 2008 yildan boshlab, Moskva davlat universiteti Toshkent shahri filiali Ilmiy Kengashining Ilmiy kotibi sifatida ish boshladi va ta'lim va jamoat ishlarida faol ishtirok etdi. Jumladan, uning rahbarligida filial talabalari ikki yil mobaynida Xalqaro talabalar dasturlash chempionatida faxrli o'rinlarni egallashdi. 2009 yil bo'yicha filial talabalari O'zbekiston chempioni va Jahon chempionatining hududiy bosqichi bo'yicha ikkinchi o'rinni egallashdi. Talabalarning "Ilmiy jamiyat"ini tuzishda va "Amaliy matematika va informatika" yo'nalishi bo'yicha bitiruv ishlarini va himoya qilishni tashkil etishda faol qatnashdi.

2013-2016 yillarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirini fan bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishladi. Shu davrda talabalarni ilmiy faoliyati, oliy ta'lim ilmiy faoliyat va Fanlar Akademiyasining hamkorligi bo'yicha tashabbuslar bilan chiqdi.

2017-2018 yillarda Toshkent axborot texnologiyalar universiteti ilmiy ishlar prorektor lavozimida universitetni xalqaro miqyosida tanitish, xalqaro reytingga tayyorlash va professorlarga xalqaro jurnallarda chop etish bo'yicha tashkiliy ishlarga bosh bo'ldi. 2019 va 2020 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vaziri o'rinbosari sifatida respublikamizni sanoatga oid ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarda ishtirok etdi. Bugun faoliyat yuritayotgan bir necha loyihalarda uning ham hissasi bor.

B.Usmonov keng omma orasida tabiiy-ilmiy bilimlarni targ'ib qilish va bu bilan yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish borasida ham faol qatnashmoqda. Uning texnika va informatikaga oid intervyu va chiqishlari respublikamiz va chet elning nufuzli matbuotlari sahifalarida ("Die Welt", "Pravda Vostoka", "Ma'rifat", "Xalq so'zi" va boshqalar) chop etilgan va yoshlarga oid tele va radio chiqishlari efirga uzatilgan.

B.Usmonov Yevropa va Xalqaro Physicon, Triple Helix ilmiy jamiyati a'zosi. U ingliz, rus va nemis tillarini biladi.

Botir Usmonov xalqaro reytinglarda va ishlab chiqarish sanoatida taniqli va yuqori ilmiy pedagogik salohiyatga ega olimdir.

OZIQ-OVQAT SANOATINING IKKILAMCHI MAHSULOTLARIDAN FOYDALANIB FUNKSIONAL QO‘SHIMCHALAR QO‘SHILGAN MAYONEZ RETSEPTINI SHAKLLANTIRISH

[1]Ruziboyev Akbarali Tursunboyevich, [2]Abduraximov Axror Anvarovich, [3]Gaipova Shaxnoza Saidazim qizi, [4]Yuldosheva Shaxnoza Umidbek kizi, [5]Xudoyberdiyev Shaxzodjon Nuraliyevich, [6]Baltabayev Kuanishbay Jengisovich

[1,2]Toshkent kimyo texnologiya instituti, professor
[3]Toshkent kimyo texnologiya instituti, assistent
[4,5,6]Toshkent kimyo texnologiya instituti, magistratura talabasi

Annotatsiya. *Mayonez suv va moyning to‘g‘ri emulsiyasi bo‘lib, uning tarkibi moy, suv va qo‘shimcha komponentlardan iborat. Parxezli mayonez retseptida suv miqdori ko‘p bo‘lib, moy miqdori kam bo‘lganligi sababli uning qovushqoqligi va konsistensiyasi talab darajada bo‘lmaydi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun turli xil oqsilli qo‘shimchalar, kraxmal va quyultiruvchi komponentlardan foydalaniladi. Mazkur tadqiqot ishida, oziq-ovqat sanoatining ikkilamchi mahsulotlari – uzum urug‘i kunjarasi va zardob oqsili asosida olingan quyultiruvchi qo‘shimchalar bilan boyitilgan mayonez retseptlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Quyultiruvchi qo‘shimchalarning optimal miqdori va ularni mayonezning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mayonez, zardob oqsili, uzum urug‘i kunjarasi, emulsiya, barqarorlik, qovushqoqlik, oksidlanishga barqarorlik, saqlash muddati, parhez, retsept, emulgator.*

Abstract. *Mayonnaise is a oil in water emulsion, its composition consists of oil, water and additional components. Due to the high amount of water and low amount of oil in the diet mayonnaise recipe, its viscosity and consistency will not be as required. To overcome this deficiency, various protein additives, starch and thickening components are used. In this research work, information is presented about recipes of mayonnaise enriched with thickening additives obtained on the basis of by-products of the food industry - grape seed cake and whey protein. The results of the study of the optimal amount of thickening additives and their effect on the quality parameters of mayonnaise are described..*

Keywords: *Mayonnaise, whey protein, grape seed cake, emulsion, stability, viscosity, oxidation stability, shelf life, diet, recipe, emulsifier.*

Аннотация. *Майонез представляет собой прямую эмульсию воды и масла, в его состав входят масло, вода и дополнительные компоненты. Из-за большого количества воды и малого количества масла в рецептуре диетического майонеза его вязкость и консистенция будут не такими, как требуется. Для преодоления этого недостатка используются различные белковые добавки, крахмал и загущающие компоненты. В данной исследовательской работе представлены сведения о рецептурах майонезов, обогащенных загустителями, полученными на основе вторичных продуктов пищевой промышленности – жмых косточек винограда и сывороточного белка. Описаны результаты исследования оптимального количества добавок-загустителей и их влияния на показатели качества майонеза.*

Ключевые слова: *Майонез, сывороточный белок, жмых виноградные косточки, эмульсия, стабильность, вязкость, устойчивость к окислению, срок годности, диета, рецептура, эмульгатор.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-sonli «Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2020 yil 9 sentabrdagi PQ-4821-sonli «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2019 yil 23 oktabrdagi PQ-5853-sonli «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4118-sonli «Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida»gi farmon va qarorlari hamda, mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi [1,2].

Mayonez - suyuq o‘simlik moylari va ta’m beruvchi qo‘shimchalarga asoslangan ko‘p komponentli mahsulotdir. O‘simlik moyi va suvdan tashqari, u tuxum kukuni, shakar, xantal, sirka kislota yoki limon sharbati, sut kukuni, tuz, ziravorlarni o‘z ichiga oladi. Unda inson organizmi uchun zarur bo‘lgan ko‘p narsalar - yog‘lar, oqsillar, uglevodlar, minerallar mavjud [3].

Mayonez ovqatlarning ta’mi va hazm bo‘lishini yaxshilash uchun ziravor sifatida, shuningdek, har xil taomlarni tayyorlashda qo‘shimcha sifatida ishlatiladi [4,5].

Mayonez retseptining tarkibiy qismlari nafaqat mahsulotning ta’mi va xushbo‘yligini shakllantiradi, balki maxsus maqsadlarga ham ega bo‘ladi. Jumladan, sut, tuxum va xantal kukunlari emulgatorlik xususiyatlariga ega, bu esa yuqori sifatli emulsiyalarni olish imkonini beradi. So‘nggi paytlarda emulgator sifatida o‘simlik oqsillari, ko‘pincha soya oqsillari ishlatilmoqda [3].

Mayonez ishlab chiqarishda emulsiyani barqarorlashtirish muhim muammolardan biri hisoblanadi. Mayonez ishlab chiqarishda gidrokolloidlardan foydalaniladi, uning barqarorlashtiruvchi ta’siri uzluksiz fazaning qovushqoqligi oshishi bilan uch o‘lchovli tarmoq tuzilishi hosil bo‘lishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, gidrokolloidlar emulgatorlar bilan o‘zaro ta’sirlashishi va ular bilan fazalar ajralish chegarasida barqaror plyonka hosil qilib ular bilan birlashishi mumkin. Kimyoviy tabiatiga ko‘ra gidrokolloidlar polisaxaridlar hisoblanadi [6].

Mayonez ishlab chiqarishda eng ko‘p ishlatiladigan tabiiy stabilizatorlar kraxmal va modifikatsiyalangan kraxmal hisoblanadi. Mamlakatimizda B navli makkajo‘xori fosfatid kraxmalidan foydalaniladi. Kraxmalni fosfatlar bilan eterifikatsiyalash orqali oziqaviy quyuqlashtiruvchi olinadi. U xona haroratida suvda va sutda erib 10 minut ichida gel hosil qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Gelning konsistensiyasi siropsimondan qattiq va jelatinsimongacha o‘zgarishi mumkin [7].

MDH mamlakatlarida past kaloriyali mayonez olish uchun maltin ishlatiladi, u kartoshka kraxmalidan qisman fermentativ gidroliz qilish, so‘ngra gidrolizatning issiqlik bilan ishlov berish yo‘li bilan ishlab chiqariladi. Maltin - oson hazm bo‘ladigan uglevod, uning suspenziyasi 75-80 °C gacha qizdirilganda eriydi. Sovutgandan so‘ng, konsentratga qarab, har xil konsistensiyadagi gel hosil qiladi[8].

Mayonez emulsiyasi uchun eng istiqbolli quyuqlashtiruvchi va stabilizator algin kislotasidan olingan natriy alginatdir. Algin kislotalari jigarrang suvo‘tlarida uchraydi va ba’zi

bakteriyalar tomonidan sintezlanadi. Algin kislotasi tuzlari sovuq suvda eriydi va qovushqoq eritmalar hosil qiladi. Alginatlar, pektin moddalari singari, terapevtik va profilaktik ovqatlanish uchun qiziqish uyg‘otadi, chunki ular og‘ir metal ionlari va radioaktiv izotoplarni tanadan olib tashlashga yordam beradi[9].

Mayonezlarning saqlash muddati bevosita retseptga kiritilgan moylarning oksidlanishga chidamliligiga bog‘liq bo‘lib, uni uzaytirish uchun turli xil antioksidantlar qo‘llaniladi. Antioksidantlar mayonez tarkibidagi moylarning to‘yinmagan yog‘ kislotalarini havodagi kislorod bilan ta’sirlanishini cheklaydi va oksidlangan mahsulotlar miqdorini ortib ketishini oldini oladi.

Mayonez ishlab chiqarishda sintetik va tabiiy antioksidantlar qo‘llanilishi mumkin. Kodeks standartiga ko‘ra, mayonez retseptida ma’lum konsentratsiyada BHT, BHA, TBHQ va EDTA kabi ba’zi kimyoviy antioksidantlardan foydalanishga ruxsat beriladi. Ushbu sintetik antioksidantlar tabiiy antioksidantlarga qaraganda iqtisodiy jihatdan tejamkorroq bo‘lsa-da, ular sintetik mahsulot ekanligi haqida salbiy taassurot qoldiradi.

Sintetik antioksidantlarning kimyoviy barqarorligi, arzonligi va mavjudligi tufayli ular universal qo‘llaniladi. Biroq, ba’zi tadqiqotlar potensial xavf tufayli ularning xavfsizligini shubha ostiga qo‘ydi. Hozirgi vaqtda iste’molchilar konservantlar va qo‘shimchalarning xavfsizligi haqida ko‘proq tashvishlanmoqdalar. Shu sababli, iste’molchilarning tabiiy mahsulotlarga bo‘lgan afzalliklari ortib bormoqda. Bularning barchasi oziq-ovqat sanoatini antioksidantlarning tabiiy manbalarini izlab topishga undamoqda.

Biz taklif etayotgan mayonezda ham sintetik antioksidant (EDTA) qo‘llanilgan. Biroq retseptda yuqori to‘yinmagan yog‘ kislotali moylar miqdori ko‘payganligi uchun retseptga kiritilgan EDTA ning miqdori yetarli bo‘lmay qoldi. Shu sababli mayonezga qo‘shimcha sifatida tabiiy antioksidant kiritishqa qaror qilindi. Buning uchun tarkibida polifenollor ko‘p bo‘lgan kunjut kunjarasi kukunidan foydalanishni maqsad qildik.

Kunjut urug‘i, moyi va kunjarasi tarkibidagi lignanlar va lignan glikozidlari kunjutning muhim xususiyatlari uchun javobgardir. Adabiyotlardan olingan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, kunjut yoki undan olingan mahsulotlar, ayniqsa kunjarasi, kabi antioksidant manbalar tabiiy antioksidantlar o‘rnini bosuvchi manbalar sifatida tizimli ravishda o‘rganilmagan [10].

Ushbu tadqiqotda moyli kunjut urug‘idan olingan mahsulot, ya’ni o‘ziga xos antioksidant birikmalarni o‘z ichiga olgan kunjut kunjarasi, biologik faol qo‘shimchalar sifatida o‘rganildi, uni mayonezda kraxmal va sintetik antioksidantlar o‘rnida ishlatish imkoniyatlari tadqiq etildi.

TADQIQOT OBYEKTI VA USULLARI

Kunjut kunjarasi Toshkent kimyo-texnologiya institutining laboratoriyasida "PITEBA" qo‘l press bilan kunjut urug‘ini presslash orqali olingan. Toshkent 122 va Seraxs 470 navli kunjut urug‘lari mahalliy bozorlardan sotib olingan. Sezamol standarti Sigma Chemical Company (AQSH) dan olingan. Sezamin va sezamolin kunjutdan Soliman usulida ajratilgan [11]. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) uchun reaktivlar FORTEK Ltd. dan sotib olindi. Boshqa reaktivlarning hammasi “Agro-kimyo standart” MCHJ laboratoriyasidan olib foydalanilgan. Rafinatsiyalangan, oqlangan, dezodoratsiyalangan kungaboqar moyi, antioksidantlar qo‘shilmagan holatda "Ecoborn INC" MCHJ korxonasidan, makkajo‘xori, soya, o‘rik va qovoq moylari savdo do‘konlaridan olingan.

Perekis soni (PS), anizidin soni (AS), erkin yog‘ kislotalari, yod soni, pH va qovushqoqlik standart usullari [12] ga muvofiq aniqlanadi.

Kunjut urug‘i va uning kunjarasining kimyoviy tarkibi AOAC standart usullari bo‘yicha aniqlandi: oqsil miqdori n. 46-13 (AOAC, 1995), yog‘ miqdori usuli n. 945.38 (AOAC, 2005), oziqa tolasi tarkibining usuli n. 985.29 (AOAC, 2005), kul miqdori usul n. 923.03 (AOAC, 2005), namlik miqdori quritish shkafida 105 °C da doimiy og‘irlik va uglevodlar farqiga qarab aniqlanadi.

NATIJA VA ULARNING MUHOKAMASI

Dastlab kunjut urug‘i, kunjarasi va moyining kimyoviy tarkiblari tahlil qilindi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kunjut urug‘i, kunjarasi va moyining kimyoviy tarkiblari

Tarkibiy qism (%)	Kunjut urug‘i	Kunjut kunjarasi	Kunjut moyi
Namlik	6,1	7,2	0,02
Yog‘	48,53	18,64	99,93
Minerallar	9,11	13,06	0,05
Oqsil	20,36	31,68	-
Oziqa tolasi	5,61	10,35	-
Uglevodlar	10,29	19,07	-

1-jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, kunjut urug‘i tarkibidagi minerallar, oqsillar, oziqa tolasi va uglevodlar kunjut kunjarasida qoladi. Bu kunjaraning ozuqaviy qiymati urug‘ bilan deyarli bir xil bo‘lishini ta’minlaydi.

Sezamin, sezamol, sezamolin va boshqa mayda lignanlar kunjut lignanlari deb nomlanadi. Bu fitokimyoviy moddalar qondagi xolesterin darajasini pasaytirish, oksidlovchi stressni kamaytirish, saratonga qarshi, yallig‘lanishga qarshi va gipotenziv ta’sirga ega bo‘lish kabi muhim farmakologik ta’sirlarga ega [13].

Keyingi tajribalarda kunjut urug‘i, kunjarasi va moyi tarkibidagi lignanlar, tokoferollar va mineral moddalar miqdori aniqlandi.

2-jadval

Kunjut urug‘i, kunjarasi va moyi tarkibidagi biologik faol (funksional) moddalarning miqdori

Biologik faol modda	kunjut urug‘i	kunjut kunjarasi	kunjut moyi
Lignanlar, mg/g	15,9	10,22	5,68
Tokoferollar, µg/g	800	230	570
Minerallar, mg/g	15,32	15,27	0,05

2-jadvalda kunjut urug‘i va uning mahsulotlarida lignan, tokoferol va minerallar kabi biologik faol moddalarning borligi ko‘rsatilgan. Kunjut urug‘idagi lignanlarning bir qismi ekstraksiya jarayonida moyga o‘tadi. Lekin ularning ko‘pchiligi kunjarada qoladi. Minerallar esa, asosan, kunjarada qoladi va moyda deyarli erimaydi. Tokoferollarning asosiy qismi moy tarkibida chiqib ketadi va bir qismi kunjarada qoladi. Bu shuni anglatadiki, kunjut kunjarasi tarkibida antioksidantlar (lignanlar va tokoferollar) nisbatan yuqori bo‘ladi va antioksidant xususiyatlarga ega.

Ligninlar moy mahsulotlari tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalarini oksidlanishdan himoya qilishi aniqlangan. Xuddi shunday mayonez tarkibidagi o‘simlik moylarini oksidlanishga barqarorligini kunjut ligninlari bilan oshirish mumkin. Buning uchun ligninni kunjut urug‘i yoki kunjut kunjarasidan ajratib olib, uni mayonezga qo‘shish mumkin. Bu qo‘shimcha jarayonlar va xarajatlarni talab qiladi. Tadqiqot ishida mayonezni tabiiy antioksidantlar bilan boyitish uchun kraxmal o‘rniga kunjut kunjarasi kukunini qo‘shish taklif qilindi. Buning uchun, dastlab, kunjut

kunjarasidagi antioksidant moddalarning mayonez tarkibidagi moylarga qanchalik antioksidantlik xususiyatini namoyon etishi tekshirildi.

Shu sababli taklif etilayotgan retseptdagi[16] 5% makkajo‘xori kraxmali o‘rniga qisman yoki to‘liq kunjut kunjarasi kukunini kiritish va bu orqali mayonezning oksidlanishga barqarorligini oshirish bo‘yicha tajribalar olib borildi. Tajribalarda mavjud mayonez retsepti[16] asos qilib olindi va faqat uning tarkibidagi quyultiruvchi komponent (makkajo‘xori kraxmali) tabiatini o‘zgartirish orqali yangi retseptlar shakllantirildi (3-jadval).

3-jadval

Makkajo‘xori kraxmali va kunjut kunjarasi kukuni qo‘shilgan mayonezlar retseptlari

Komponent nomi	Mayonez retseptlari va ulardagi komponentning massa ulushi, %						
	Nazorat	M-1	M-2	M-3	M-4	M-5	M-6
Moylar aralashmasi	50	50	50	50	50	50	49
Makkajo‘xori kraxmali	5	4	3	2	1	0	3
Kunjut kunjarasi kukuni	0	1	2	3	4	5	3
Boshqa komponentlar	45	45	45	45	45	45	45

Yangi shakllantirilgan retseptlarda moy va boshqa komponentlarning (sirka kislota, tuxum kukuni, shakar, tuz, xantal kukuni, EDTA, natriy benzoat, limon kislota, suv) massa ulushlari o‘zgarmagan. Faqat quyultiruvchi komponentlarning (makkajo‘xori kraxmali va kunjut kunjarasi kukuni) massa ulushlari o‘zgargan.

Retseptlar (3-jadval) asosida laboratoriya sharoitida mayonezlar tayyorlandi va ularning perekis soni, anizidin soni hamda organoleptik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (1, 2 va 3-rasmlar).

Mayonezga kunjut kunjarasining qo‘shilishi uning perekis sonini o‘zgarishiga ijobiy ta’sir etishi ma’lum bo‘ldi (1-rasm). Nazorat mayonezda 180 kunlik saqlashdan keyin uning perekis soni standart talabiga (10 mmol O/kg) mos kelmadi. Retseptdagi 5% miqdoridagi makkajo‘xori kraxmalining 1% kunjut kunjarasi bilan almashtirilganda perekis soni biroz pasaygan. Kunjut kunjarasining miqdori 3% dan ko‘p bo‘lgan mayonezlarda(M-3,M-4,M-5) perekis soni standart talabiga (10 mmol O/kg) mos keldi. Bu mayonez tarkibidagi kunjut kunjarasidagi polifenollarning antioksidantlik xususiyati tufayli yuqori to‘yinmagan yog‘ kislotalarni oksidlanishining pasayishi va birlamchi oksidlanish mahsulotlarining miqdorini kamroq hosil bo‘lishi bilan izohlanadi. Huddi shunday qonuniyatni ikkilamchi oksidlanish mahsulotlarining hosil bo‘lishida ham kuzatildi (2-rasm).



1-rasm. Kunjut kunjarasi kukuni qo‘shilgan mayonezlarning 180 kunlik saqlash davrida perekis sonining o‘zgarishi



2-rasm. Kunjut kunjarasi kukuni qo‘shilgan mayonezlarning 180 kunlik saqlash davrida anizidin sonining o‘zgarishi

2-rasmdan ko‘rinadiki, nazorat, M-1 va M-2 mayonez namunalaridan boshqa barcha mayonezlarning 180 kunlik saqlashdan keyingi anizidin sonlari standart talabiga mos keladi. Bundan mayonez retseptiga kiritiladigan kunjut kunjarasining massa ulushi 3% dan yuqori bo‘lishi lozim degan xulosa kelib chiqadi.

Mayonez mahsulotlarining xaridorgirligi va istemolbopligi ularning organoleptik ko‘rsatkichlariga bog‘liqdir. Tarkibi eng yaxshi biologik faol moddalar bilan boyitilgan yoki saqlash muddati va oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha eng zo‘r ko‘rsatkichlarga ega mayonez retsepti ishlab chiqilsa, biroq uning ta’mi, rangi, konsistensiyasi, tashqi ko‘rinishi va boshqa

organoleptik ko‘rsatkichlari talab darajasida bo‘lmasa bunday mayonez iqtisodiy jihatdan yaroqsiz hisoblanadi. Bunday mayonez retseptining ilmiy ahamiyati mavjud bo‘lsada, uning amaliy ahamiyati bo‘lmaydi. Taklif etilayotgan essensial yog‘ kislotalari bilan boyitilgan mayonez retsepti kiritilayotgan kunjut kunjarasini uning oksidlanishga barqarorligini oshirish bilan birga organoleptik ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir etishi tekshirildi. Organoleptik ko‘rsatkichlar degustatsiya usulida 10 ballik tizimda baholandi (3-rasm).



3-rasm. Kunjut kunjarasi va makkajo‘xori kraxmali qo‘shib tayyorlangan mayonezlarning organoleptik ko‘rsatkichlari

Mayonez tarkibiga kiritilgan kunjut kunjarasi uning rangi, ta’mi, og‘izga sezilishi, umumiy maqbulligi va strukturasi kabi organoleptik ko‘rsatkichlariga ta’sir etadi(3-rasm). Makkajo‘xori kraxmali o‘rniga kunjut kunjarasi kiritilgan mayonezlarda (nazoratdan tashqari barcha namunalar) ta’m va og‘izga sezilish xususiyatlari yaxshilangan. Ushbu xususiyatlar kunjut kunjarasi massa ulushi ortgan sari oshib borgan. Rangi va strukturasi esa aksincha kunjut kunjarasi miqdori ortgan sari kamayib borgan. Umumiy maqbullik ko‘rsatkichi esa dastlab kunjut kunjarasi miqdori 3% bo‘lganda kamaygan va keyin ortgan.

Umuman olganda retseptdagi kunjut kunjarasining massa ulushi 3% dan ortganda olinadigan mayonezning perekis soni, anizidin soni, ta’mi, og‘izga sezilishi va umumiy maqbulligi kabi ko‘rsatkichlari yaxshilangan. Aksincha rangi va strukturasi yomonlashgan. Shu sababli mayonezning barcha ko‘rsatkichlari ijobiy ta’sir etadigan kunjut kunjarasining optimal massa ulushini aniqlash lozim bo‘ladi. Buning uchun retseptdagi kunjut kunjarasining massa ulushi 3% dan oshirmagan holda makkajo‘xori kraxmali miqdorini oshirishga qaror qilindi. Chunki makkajo‘xori kraxmali mayonezning rangi va strukturasiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada retseptdagi moyning massa ulishini kamaytirish orqali undagi quyultiruvchilarning (makkajo‘xori kraxmali va kunjut kunjarasi) massa ulishi oshirilgan (3-jadval). Perekis va anizidin sonlarining eng optimal qiymatlari M-6 namunadagi mayonezda kuzatildi. Bunda makkajo‘xori kraxmali va kunjut kunjarasining o‘zaro nisbatlari optimallashgan (3:3). Bu esa bevosita olinadigan mayonezning organoleptik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir etgan (3-rasm M-6 namuna).

Stabilizatorlar emulsiyada yog‘ sirtidagi o‘zaro ta’sirni kamaytirishga xizmat qiladi. Oqsilli stabilizatorlar emulsiyalarni yaxshilash uchun ko‘p ishlatiladi. Ushbu moddalar yaxshi emulgator sifatida qo‘llaniladi, shuning uchun ular yog‘ va suvning interfaol kuchlanishini kamaytirishi mumkin. Emulgatorlar yog‘ va suvni bog‘lashda yordam berish uchun ishlatiladi, chunki ular gidrofob va gidrofildir. Herald va boshqalar. [14] emulgatorlar modifikatsiyalangan makkajo‘xori uni, bug‘doy oqsili, zardob oqsili va saqich kabi ingrediyentlardan foydalanishi mumkinligini ta’kidladi. Zardob oqsilini mahsulotlarning tarkibiy qismi sifatida ishlatish oziq-ovqat sanoatida juda foydalidir. Sun va boshqalarga ko‘ra. [15] zardob oqsili konsentrati va pektindan foydalanish yog‘ mimetikasi bo‘lishi mumkinligini aniqladi, kam yog‘li mayonezda 20% yog‘li mimetikadan foydalanish yaxshi gel shakllanishini ko‘rsatadi.

Pishloq ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulotlar, masalan, zardobni qayta ishlatish kerak. Atrof-muhitning ifloslanishi, shuningdek, nazoratsiz parchalanish jarayoni tufayli zardobni utilizatsiya qilish joylarida ham paydo bo‘lishi mumkin. Zardobning yaxshi ozuqaviy tarkibi tufayli unda bakteriyalarni osongina ko‘paytirishi mumkin. Shuning uchun tijorat maqsadlarida va pishloq mahsulotlari qayta ishlanadigan joylrda atrof-muhitni muhofaza qilish uchun zardobdan foydalanishni ko‘paytirish kerak. Mayonezda zardob oqsilidan foydalanish kam yog‘li mayonez sifatini yaxshilashga qaratilgan harakat sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistonda sut sanoati jadal sur’atlar bilan rivojlanayotganligini inobatga olsak, unda hosil bo‘ladigan sut zardobining manbasi shunchalik ko‘p ekanligini tasavvur qilish mumkin. Ushbu ikkilamchi mahsulot tarkibida oqsil, mineral moddalar, vitaminlar va boshqa foydali moddalar mavjud bo‘lib, uni qayta ishlash orqali mayonez retseptigna kiritish mumkin. Tajribalar uchun olingan sut zardobi tarkibida 6% dan ko‘p miqdorda quruq moddalar mavjud bo‘lib, shundan 4,5% laktoza, 0,6% oqsil, 0,05% yog‘, 0,5% mineral va boshqa komponentlar borligi aniqlandi. E’tibor bersak zardob tarkibida oqsil miqdori juda kam. Uni qayta ishlab oqsilini ajratib olish va so‘ng uni mayonez tarkibiga kiritish iqtisodiy jihatdan samarali emas. Shuning uchun biz zardobni quruq moddalar miqdorini 50-80% gacha konsentratsiyalab, olingan mahsulotni moydorligi 50% bo‘lgan mayonez retseptiga kiritdik. Mayonez retseptlari asosida mahsulot tayyorlanib, uning pH qiymati, namligi, qovushqoqligi va oqsil miqdori tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Pishloq tayyorlash natijasida ajratib olingan sut zardobi asosida shakllantirilgan mayonez retseptloari va ularning sifat ko‘rsatkichlari

Mayonez na’munasi	Zardobdagi quruq moddalar konsentratsiyasi,%	pH qiymati	Namlik va uchuvchan moddalarning massa ulushi,%	Qovushqoq	Oqsil miqdori, %
Nazorat	0	4,25	31,4	1060	5,76
ZM-1	6	4,67	26,1	1360	6,32
ZM-2	50	4,76	16,3	1630	10,81
ZM-3	80	4,81	7,2	1810	13,74

4-jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, mayonez retseptiga sut zardobini kiritish uning oziqaviy qiymatini ortishiga olib keladi. Ayniqsa zardobni konsentratsiyasining ortishi bilan mayonezning qovushqoligi va oqsil miqdori ortib, namligi kamayadi. Zardob konsentratsiyasi ortib borgan sari olinadigan mayonezning konsitensiyasi ham shunchalik ortib bordi, ‘ni mayonezning qattiqligi ortdi. Bu uning plastikligi va organoleptik xususiyatlariga salbiy ta’sir etdi. Shu sababli mayonez retseptiga kiritiladigan sut zardobining optimal konsentratsiyasini aniqlash va uning organoleptik xususiyatlarini baxolash bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borish lozim bo‘ladi. Sut zardobi asosida olingan konsentrat yordamida mayonezning yog‘dorligini yanada kamaytirish mumkin. Bu bo‘yicha olib boilgan tajriba natijalari jurnalning keyingi sonlarida chop etishga taqdim qilinadi.

XULOSA

Moydorligi kamaytirilgan parxezli mayonezlarnign sifatini yaxshilash va oziqaviy qiymatini oshirish uchun an’anaviy retsept bo‘yicha qo‘llanilayotgan kraxmal o‘rniga kunjut kunjarasi kukunidan foydalanish ijobiy natija berishi aniqlandi. Shuningdek mayonezni biologik faol moddalar bilan boyitish maqsadida sut zardobidan foydalanish ijobiy natija berishi ma’lum bo‘ldi. Bunda sut zardobining optimal konsentratsiyasini aniqlash va uning mayonezning organoleptik xususiyatlariga ta’sirini tadqiq etish bo‘yicha izlanishlar olib borish lozimligi oydinlashdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son «Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. Xalq so‘zi gazetasi. 2020 yil 11 noyabr, №238 (7740)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4118-son «Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida»gi qarori. Xalq so‘zi gazetasi. 2019 yil 17 yanvar №10(6971)
3. Нечаев А.П. и др. Майонезы. — СПб: ГИОРД, 2000. — 80 с.
4. Арутюнян Н.С. Технология переработки жиров. 1998 стр 235
5. Kadirov Yu., Ruzibayev A. Yog’larni qayta ishlash texnologiyasi. -T.: “Fan vaTexnologiya”. 2014. -320 b.
6. Liu, R., Wang, L., Liu, Y., Wu, T., & Zhang, M. (2018). Fabricating soy protein hydrolysate/xanthan gum as fat replacer in ice cream by combined enzymatic and heat-shearing treatment. Food Hydrocolloids, 81,39–47.
7. Werlang, Stéfani & Bonfante, Cheilane & Oro, Tatiana & Biduski, Barbara & Bertolin, Telma & Gutkoski, Luiz. (2021). Native and annealed oat starch as a fat replacer in mayonnaise. Journal of Food Processing and Preservation. 45. e15211. 10.1111/jfpp.15211.
8. Song, Eun-Seung & Kim, Eun-Kyung & Woo, Na-Ri-Yah. (2007). Development of Low Fat Mayonnaise Made with Modified Starch. Journal of the Korean Society of Food Culture. 22. Issue 2, pages 254-260.
9. Gladukh, Ievgenii & Podorozhna, Maiia. (2021). Study of structural and mechanical properties of sodium alginate gels. EUREKA: Health Sciences. 82-89. 10.21303/2504-5679.2021.001732.
10. Moazzami, A. A., & Kamal-Eldin, A. 2006. Sesame seed isa rich source of dietary lignans.

Journal of the AmericanOil Chemists' Society, 83 (8): 719-723
11. Soliman MA, Alla AA, Sawy EI, Fadel HM and Osman F, Effects of antioxidants on the volatiles of roasted sesame seeds. J Agric Food Chem 33:523–528 (1985).
12. AOAC: Official methods of analysis of AOAC international 18th Ed., AOAC Press, Arlington, USA, 2006
13. Dar AA, Arumugam N (2013) Lignans of sesame: purification methods, biological activities and biosynthesis—a review. Bioorg Chem 50:1–10
14. T. J. Herald, M. Abugoush, F. Aramouni, J. Texture Stud. 40, 692-709 (2009)
15. C. Sun, R. Liu, B. Liang, T. Wu, W. Sui, M. Zhang, Food Res Int. 108, 151-160 (2018)
16. Sh Gaipova, A Ruzibayev, Z Khakimova, Sh Salijanova, and A Fayzullayev Formulation of mayonnaise recipe enriched with biological active compounds of sesame cake. // IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 939(2021) 012085 doi:10.1088/1755-1315/939/1/012085.

STUDY OF THE FATTY ACID COMPOSITION OF ALMOND OIL

[1]Madina Khamidova, [2]Sabina Ruzmetova, [3]Mumtoz Abrorova
[1]Tashkent Institute of Chemical Technology, Associate Professor PhD
e-mail: Ruzmetovasabina97@gmail.com
[3,2] Tashkent Institute of Chemical Technology, Bachelor

Abstract. *The priority direction in the field of creating new food products is the development of technologies for products for specialized purposes. The article presents the results of studies of almond oil. The nutritional value of the oil was calculated, the methods and biochemical composition were considered.*

Keywords: *nutritional value, protein, almond oil.*

Аннотация. *Приоритетным направлением в области создания новых пищевых продуктов является разработка технологий изделий специализированного назначения. В статье приведены результаты исследований миндального масла. Произведен расчет пищевой ценности масла, рассмотрены методы и биохимический состав.*

Ключевые слова: *пищевая ценность, белок, миндальное масла.*

Annotatsiya. *Yangi oziq-ovqat mahsulotlarini yaratish sohasidagi ustuvor yo'nalish ixtisoslashtirilgan mahsulotlar uchun texnologiyalarni ishlab chiqishdir. Maqolada bodom yog'i bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Yog'ning ozuqaviy qiymati hisoblab chiqildi, usullari va biokimyoviy tarkibi ko'rib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *ozuqaviy qiymat, oqsil, bodom yog'i.*

ВВЕДЕНИЕ.

В настоящее время климат Узбекистана резко континентальный. Природа засушливая, атмосферных осадков выпадает мало, низка относительная влажность воздуха. По этой причине большее количества населения Узбекистана страдает проблемой сухости кожи. Так как научное исследование показало, что миндальное масло устраняет сухость, питает, увлажняет, смягчает кожу, убирает «гусиные лапки». Применяется в комплексном лечении проблемной кожи - нормализует работу сальных желез, сужает поры, выравнивает рельеф кожи лица. Главное преимущество средства - его универсальность. Миндальное масло отлично подходит любому типу кожи. Его применяют даже для младенцев. Поэтому применение миндального масла в нашем регионе весьма актуальна.

Миндальное масло также применяют в косметической промышленности в рецептурах косметического молочка, питательных кремов, масок, средств для укрепления волос.

Так же применение миндального масла сглаживает первые признаки старения. При регулярном применении оно тонизирует кожу, предотвращая ее обвисание.

Миндальное масло не содержит холестерина, что делает его полезным составляющим для диетических рецептов. При правильном подходе к питанию, этот продукт в рационе может значительно укрепить организм, избавить от риска серьезных заболеваний.

Миндальное масло также используется для пропитки некоторых деревянных духовых инструментов, таких как гобой и кларнет.

Теплолюбивый, засухостойкий миндаль произрастает в основном в предгорных районах, на склонах в Ташкентской, Джизакской, Самаркандской, Кашкадарьинской, Сурхандарьинской областях, где годовое количество осадков составляет порядка 500-700 мм.

В Узбекистане прошли испытания десятки высококачественных сортов миндаля, завезенных из зарубежных стран: США, Западной Европы, Крыма, Туркменистана и из других стран.

Отобраны перспективные сорта миндаля, адаптированные под местные почвенно-климатические условия, наиболее устойчивые к засухе и ранневесенним заморозкам, имеющие умеренную урожайность, хорошие вкусовые качества и в целом, отвечающие требованиям рынка. Изходя из этого к посадке рекомендуются адаптированные сорта такие как: «Гузаль», «Тян-шань», «Самарканд-56», «Бостанлык», «Узбек галвираги», «Заветный-жойдори», «Консой-жойдори», «Малика», «Зарина».

Миндальное масло- растительное масло, получаемое из семян сладкого миндаля (Amygdalus communis L.) растения семейства розоцветных.



Миндальное масло получают из семян различных сортов сладкого миндаля. Из семян извлекают ядра, высушивают и размалывают их, а затем ведут отжим способом двукратного холодного прессования. Жмых, оставшийся после отжима, применяют для приготовления косметических средств. Возможно получение миндального масла также из семян горького миндаля. Для этого семена предварительно нагревают, при этом содержащийся в них амигдалин разрушается. Такое масло непригодно для использования в качестве пищевого продукта и идет исключительно для приготовления косметики и технических целей. Полученный жмых используется в фармацевтической промышленности для получения горькоминдальной воды — бесцветной жидкости приятного запаха и горького вкуса (содержит 0,1 % синильной кислоты).

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Миндальное масло представляет собой светло-желтую жидкость с легким ароматом и приятным ореховым вкусом. Масло имеет относительную плотность 1,04—1,05 и показатель преломления 1,527—1,537. Оно почти не растворимо в спирте, но хорошо растворимо в хлороформе или эфире.

В качестве объекта исследования использовали миндальное масло сорта «Узбек галвираги».

Пищевая ценность и химический состав "Миндальное масло"

Нутриент	% от нормы в 100 г
Калорийность	1684 кКал
Жиры	178.6%
Белки	7.64%
Олеиновая кислота	20.7%
Пальмитиновая	6.0%
Стеариновая	1.2%
Пальмитолеиновая	0.8%
Линолевая	13.3%

Следующие методы дают возможность определения качественного и количественного состава:

1) Содержание белка определяют по ГОСТ 26889–86 по методу Кьельдаля

Метод Кьельдаля состоит в том, что связанный азот при нагревании органического вещества с концентрированной серной кислотой в присутствии небольшого количества катализатора CuSO4 или других переходит в сульфат аммония. Условия процесса зависят от вида органической молекулы: амины и амиды разлагаются легко, другие соединения требуют длительного нагревания в запаянных тугоплавких ампулах. После разложения образца к нему добавляют щёлочь и отгоняют аммиак, поглощая его стандартным раствором соляной кислоты HCl или борной кислоты H_3BO_3. По количеству поглощаемого аммиака определяют содержание азота. Метод Кьельдаля применяется главным образом в анализе аминокислот и белков; особенно широко используется для анализа пищевых продуктов и кормов.

2) Определение влажности с помощью анализатора влажности (MB-35 OHAUS)

Анализатор влажности один из самых удобных методов определения влажности. Берем 0,5г на пробу и можем получить ответ за определенное время при 102℃-105℃

3) Определяем содержание жира с помощью анализатора жира (Сокслет)

Сущность метода заключается в извлечении сырого жира из продукта растворителем, последующем удалении растворителя, высушивании и взвешивании извлеченного жира.

Экстракцию веду в течение 2 ч при температуре 75°С. При завершении экстракции патрон удаляю из экстрактора и отгоняю растворитель из колбы в экстрактор. По окончании отгонки растворителя отсоединяю экстрактор, колбу выдерживаю на бане до испарения растворителя, затем ее помещаю в сушильный шкаф для высушивания при температуре (105+5)°С на 60 мин, охлаждаю в эксикаторе и взвешиваю до тысячных долей грамма. Последующее взвешивание провожу после повторной сушки в течение 30 мин.

4) Органолептические показатели. Метод определения качества продукции на основе анализа восприятий органов чувств: зрения, обоняния, слуха, осязания, вкуса.

5) Определения массовой доли трансизомеров жирных кислот- ГОСТ 31754-2012

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЯ

В таблице 2 приведены данные состава миндального масла полученных при проведении исследования.

Таблица 2

Состав миндального масла на основе проведенных анализов

Нутриент	% от нормы в 100 г

Калорийность	1684 Ккал
Жиры	169.6%
Белки	3.54%
Олеиновая кислота	24.1%
Пальмитиновая	6.9%
Стеариновая	1.0%
Пальмитолеиновая	0.10%
Линолевая	18.3%

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Как показали исследовательские анализы миндального масла, оно содержит очень много полезных для нашего организма питательных веществ такие как: витамины А, В2, F, Е; полиненасыщенные жиры омега-6; полиненасыщенные жиры омега-9; различные антиоксиданты; олеиновая кислота; линолевая кислота; пальмитиновая кислота; минеральные соли; каротины; магний; цинк; фосфор., который очень важен и нужен для организма человека в настоящее время.

Применение миндального масла в косметологии, медицине и в пищевой продукции очень важна и полезна, особенного для населения нашего региона. Поэтому изготовление и применение такого масла необходима.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ / REFERENCES

1. Касьянов, Г.И. Современные технологии переработки вторичных ресурсов // Известия вузов. Пищевая технология. – 1998. – № 2–3. – С. 13–15.
2. Исригова, В.С. Использование вторичных ресурсов для производства продуктов питания повышенной пищевой и биологической ценности / В.С. Исригова [и др.] // Сборник материалов научных трудов Всероссийской научно-практической конференции «Инновационный подход в стратегии развития АПК России». – Махачкала, 2018.
3. Султанходжаев, А.А. Эффективность использования вторичных ресурсов сырья (на материалах отраслей пищевой промышленности республики Узбекистан); авторефератдиссертации. 1993 год
4. Тютюнников, Б. Н. Химия жиров / Б. Н. Тютюнников, З. И. Бухштаб, Ф. Ф. Гладкий и др. 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Колос, 1992. - 448 с.
5. Беззубов, Л. П. Химия жиров / Л. П. Беззубов. 3-е изд. М.: Пищевая промышленность, 1975. 280 с.
6. Щербаков, В. Г. Химия и биохимия переработки масличных семян / В. Г. Щербаков. — М.: Пищевая промышленность, 1977 год 180 с.
7. Демиденко Г.Б. Сравнительная оценка зернобобовых культур на серых лесных почвах Орловской области // Науч. Тр. ВНИИ зернобобых и крупяных культур. - Т.3. - Орел, 1971.
8. Дикорастущие полезные растения Крыма / под общей ред. Н.И. Рубцова // Тр. Никитского ботан. сада. - № 49. – Ялта, 1971. – С. 49 – 278.
9. Денисов В.П. Дикорастущие миндали секции Spartioides. Spach // Труды по прикладной ботанике, генетике и селекции. - Т. 57. Вып. 1. - М., 1976. – С. 100 – 109.
10. Касаткин Н.Г. Обыкновенный миндаль // Труды по прикладной ботанике, генетике и селекции. Издание Всесоюзного Института растениеводства.– XXV, вып. 5. - Л.: , 1931.

11. Кичунов Н.И. Орехи и их культура. – М. – Л: 1931. - 194 с.
12. Михельсон Л.А. и Павленко О.Н. Жирное масло из горьких и сладких минадлей. – Советские субтропики, № 4. – 1937 год.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ЯЧМЕННОЙ МУКИ НА ГЛИКЕМИЧЕСКИЙ ИНДЕКС ХЛЕБА

[1]Джахангирова Гулноза Зинатуллаевна, [2]Абдукаримова Робия Шохрух кизи
[1]PhD,dos. кафедры Технологии пищевых продуктов,
Ташкентского химико-технологического института,
Республика Узбекистан, г. Ташкент
E-mail: djaxangirova77@mail.ru
[2]Магистрант кафедры Технологии пищевых продуктов,
Ташкентского химико-технологического института,
Республика Узбекистан, г. Ташкент

Аннотация. *Развитие современной теории питания открывает перспективные возможности при разработке новых pesentyp и технологий различных сортов хлебобулочных изделий (в частности, для больных сахарным диабетом) за счет внесения таких добавок, которые оказывают существенное влияние на гликемический индекс готового продукта. В статье представлены результаты исследований по влиянию ячменной муки на гликемический индекс готовой продуксии. Проведенные исследования показали, что pesentypa и технология приготовления хлеба являются первостепенными факторами, определяющими гликемический индекс готового продукта. Полученные результаты исследований позволили авторам рекомендоват использования безопарного способа тестоприготовления, а в качестве основного сырья применят пшеничную муку первого сорта с добавлением 30% ячменной муки и 2% konsentrata топинамбура к массе муки, что позволит разработат технологию хлеба для больных сахарным диабетом и расширит ассортимент хлебобулочных изделий диетического назначения.*

Ключевые слова: *сырьё, рецептура, сорта, хлебобулочные изделия, сахарный диабет, добавки, гликемический индекс, готовая продуксия, ячменная мука, безопарный способ.*

Abstract. *The development of modern nutrition theory opens up promising opportunities in the development of new recipes and technologies for various types of bakery products (in particular, for diabetics) by introducing additives that have a significant impact on the glycemic index of the finished product. The article presents the results of studies on the effect of barley flour on the glycemic index of finished products. Studies have shown that the recipe and technology of bread making are the primary factors that determine the glycemic index of the finished product. The obtained results of the research allowed the authors to recommend the use of a non-dough method of dough preparation, and as the main raw material to use wheat flour of the first grade with the addition of 30% barley flour and 2% Jerusalem artichoke concentrate to the mass of flour, which will allow developing bread technology for diabetic patients and expanding the range of bakery products dietary purpose.*

Keywords*: raw materials, recipes, varieties, bakery products, diabetes mellitus, additives, glycemic index, finished products, barley flour, safe method.*

ВВЕДЕНИЕ

Тенденции в производстве изделий спеsиального назначения Согласно определениям из ТР ТС 021/2011 «О безопасности пищевой продукции» под спеsиализированными продуктами питания подразумевается пищевые продукты, для которой установлены требования к содержанию и соотношению отдельных веществ или всех веществ и компонентов и изменено содержание и соотношение отдельных веществ относительно естественного их содержания в такой пищевой продуksии и в состав включены не присутствующие изначально вещества или компоненты (кроме пищевых добавок и ароматизаторов) и (или) изготовител заявляет об их лечебных и (или) профилактических свойствах, и которая предназначена для селей безопасного употребления этой пищевой продуksии отдельными категориями людей. [1]

Разработка реseптур и технологий продуктов спеsиализированного назначения как продуктов с заданным химическим составом, энергетической senностью и физиологическими свойствами осуществляется более разнонаправленно: путём элиминаsии, обогащения или замены отдельных нутриентов и биологически активных веществ. При этом в проseссе разработки реseптур и технологий таких продуктов основное внимание должно быт уделено повышению адаптаsионных возможностей организма потребителя, нормализаsии функsий его органов и тканей.

Исследования по разработке спеsиализированных хлебобулочных изделий для диабетического профилактического питания на основе природных источников проводилос недостаточно. Одним из важных элементов лечения больных сахарным диабетом 2 типа является диетотерапия, которая предусматривает включение в раsионы питания продуктов с измененным углеводным профилем, увеличенным содержанием белковых веществ, пищевых волокон, полиненасыщенных жирных кислот, витаминов, минеральных веществ, антиоксидантов и снижение употребления легкоусвояемых углеводов.

Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: yer va haydaladigan yerlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tur va pul ko'rinishida yetishtirish; chorvachilik mahsulotlarini hayvon turlari bo'yicha miqdori bo'yicha va pul ko'rinishida ishlab chiqarish; sanoat va jarayonlar bo'yicha elektr motorlari, elektr jihozlari, apparatlarning soni va quvvati, elektrlashtirish obyektlarining narxi (podstansiyalar, elektr uzatish tarmoqlari, mexanizmlar), iqtisodiyotning barcha sohalarida yillik energiya sarfi, 1 kvt quvvat narxi, texnik xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni, oldingi vaoldingi mehnat xarajatlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini elektrlashtirgandan so'ng, xo'jaliklarni elektr energiyasi bilan ta'minlash - bularning barchasi ishlab chiqarish jarayonlarini elektrlashtirish imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlardan mantiqiy xulosa shuki, elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste'mol qilish o'rtasidagi yenergiya balansi muntazam ta'minlanishi lozim. Sanoatning bunday noyob holati 500 iste'molchini doimiy ravishda yuqori sifatli elektr energiyasi bilan ta'minlash va energiya tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlash nuqtai nazaridan juda muhimdir. Bir so'z bilan aytganda, muvozanatlash tizimning ishonchli ishlashining kalitidir.

REFERENCES

1. I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «0'zbekiston», 1992.
2. I.A. Karimov. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga hos yo'li. T.,

«0‘zbekiston», 1993.
3. I.A. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqrozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T., «0‘zbekiston»,
2009.
4. K. Allayev. Elektroenergetika Uzbekistana i mira. T., 2009
5. YA Tuxliyev. Bozor iktisodiyotiga o‘tishning mashaqqatli yo‘li. T., 1999.
6. N. Tuxliyev, A. Taksanov. Natsionalnaya ekonomicheskaya model Uzbekistana. T., 2000.
7. K. Shodimetov. Muqobil energiya turlari - hayotga! T., «SHARQ» NMAK, 2011.
8. Uzbekistonda kbayta tiklanuvchi energetikaning rivojlanish istikboli. T., PROON, 2007.
9. B. Агеев. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. М., 2011.
10. Д.Твайделл,А..Уэйр. озобновляемые источники энергии. М., 1990.
11. Методическое пособие по эксплуатации ветроэнергетической установки. Т., 2012.
11. И. Ортицов. АСМда инновацион жараённинг ташкилий-иқтисодий механизми. Т., 2008.
12. Безруких П. П. Состояние и перспективы развития возобновляемых источников энергии в России / П. П. Безруких, Д. С. Стребков // Малая энергетика. М. ОАО «НИИЭС», 2008. № 4– 5-14. Global Wind 2010 Report. WWEA-Global Wind Energy Counil. Brussels, 2011
13. Куперштоκ В. Л. Сумма внутренних связей как критерий качества классификации / В. Л. Куперштоκ, Б. Г. Миркин // Автоматика и телемеханика. 1976. № 3. С. 91–100.
14. Смирнов Е. С. Таксономический анализ / Е. С. Смирнов. М.: МГУ, 1969. 97 с.
15. Безруких П. П. Возобновляемая энергетика: стратегия, ресурсы, технология / П. П. Безруких,Д. С. Стребков. М.: В

SUT MAHSULOTLARI TARKIBIDAGI OG‘IR METALLAR

[1]Atxamova Saida Kudusovna, [2]Zunnunova Dinara Ergashevna, [3]To‘xtayev Shuhrat Qudratovich

[1]Toshkent kimyo-texnologiya instituti,dotsenti

[2,3]Toshkent kimyo-texnologiya instituti,katta o‘qituvchi

Annotatsiya. *Oziq – ovqat mahsulotlari tarkibida og‘ir metallar miqdori belgilangan meyorlardan oshib ketsa, odam organizmida zaxarlanish oqibatlari kelib chiqadi va buning natijasida turli xil kasalliklar yuzaga keladi.SanQ va M hujjatlari bo‘yicha odatda 8 ta element: simob, qo‘rg‘oshin, kadmiy, mishyak, rux, mis, temir va qalay og‘ir metallar hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi tomonidan –yogurt sut mahsulotlaridagi og‘ir metallar aniqlash usullari o‘rganildi va ular ruxsat etilgan konsentratsiyadan oshmasligi ko‘rsatildi.*

Kalit so‘zlar: *Yogurt,rux,kadmiy,qo‘rg‘oshin,SanQ va M hujjat,oshqozon shilliq qavati*

Аннотация.*При превышении содержания тяжелых металлов в пищевых продуктах указанных норм вредный для организма человека и в результате возникают различные заболевания.Согласно документам СанПиН обычно 8 элементов: ртуть, свинец, кадмий, мышьяк, цинк, медь, железо и олово относятся к тяжелым металлам. Изучены методы определения тяжелых металлов в кисломолочных продуктах-йогурта и показано, что они не превышают допустимую дозами.*

Ключевые слова: *Йогурт, цинк, кадмий, свинец, санитарно-гигиенические документы, слизистая желудка.*

Abstract. *When the content of heavy metals in food products of the specified norms is exceeded, it is harmful to the human body and as a result various diseases occur. According to SanPiN documents, usually 8 elements: mercury, lead, cadmium, arsenic, zinc, copper, iron and tin are heavy metals.*

Methods for the determination of heavy metals in fermented milk products - yogurt have been studied and it has been shown that they do not exceed the permissible doses.

Keywords: *Yoghurt, zinc, cadmium, lead, sanitary documents, gastric mucosa*

KIRISH.

Salomatlik uchun zararsiz bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chikarishni ta’minlash uchun, ozuqaviy xom ashyolar va tayyor mahsulotlarni doimiy nazorat qilib turish - oziq-ovqat sanoati mutaxassislarining asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida xom ashyoni yetishtirish (hayvonlarni oziqlantirish)da, xom ashyoni saqlashda, tayyor mahsulotlarni saqlashda yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlariga tushadigan ifloslantiruvchi moddalar – toksik moddalar tushadi. SanQ va M bo‘yicha odatda 8 ta element: simob, qo‘rg‘oshin, kadmiy, mishyak, rux, mis, temir va qalay toksik elementlar bo‘lib hisoblanadi.

Xatto qisqa muddat saqlashga mo‘ljallangan yig‘ma tunka bankalarga joylashgan konservalarni shisha bankalarga joylash tavsiya etiladi, chunki havo kislorodi ta’sirida tunkabankalarning yemirilishi tezda ortib ketadi va bir necha kun ichida mahsulot tarkibidagi og‘ir metall tuzlarining mikdori bir necha marta ortadi.Shu bilan birga, sirkalangan, tuzlangan va nordon mahsulotlarni ruxlangan idishlarda saklash mumkin emas (mahsulotlarni rux va kadmiy

bilan zararlanishning oldini olish maksadida), chunki ruxlangan katlam tarkibida bir qancha mikdorda kadmiy mavjud bo‘ladi. Bezak uchun mo‘ljallangan chinni va sopol idishlarda taomni tayyorlamaslik va saqlamaslik kerak (ya’ni taom uchun emas, balki, bezak uchun mo‘ljallangan idishlarda), chunki idishning sariq va qizil rangdagi ustki qismi tarkibida qo‘rg‘oshin va kadmiy tuzlari mavjud bo‘lib, bunday idishlar taom uchun ishlatilganda osongina ovqatga o‘tadi. Mahsulotlarni tayyorlash uchun faqatgina ozuqaviy maqsadlarga mo‘ljallangan maxsus idishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sanitarik nazorat tashkilotlari tomondan oziq-ovqat xom ashyosi va tayer mahsulotlar tarkibidagi toksik elementlar miqdorlariga qat’iy meyorlar o‘rnatilgan. Ko‘pchilik mahsulotlar uchun toksik elementlarkonsentratsiyalarining ruxsat etilgan mikdorlari belgilab qo‘yilgan.Oziq – ovqat mahsulotlari tarkibida toksik elementlarning miqdori belgilangan meyorlardan oshib ketsa, odam organizmida zaxarlanish oqibatlari kelib chiqadi va buning natijasida turli xil kasalliklar yuzaga keladi. Kadmiy odam organizmiga juda kam miqdorda tushib qolgan taqdirda ham markaziy asab sistemasiga tezda salbiy ta’sirini ko‘rsatadi va fosfor-kalsiy moddalar almashinuv jarayonini buzadi. Shuning bilan bir qatorda kam qonlikka ham olib keladi.

Qo‘rg‘oshindan surunkali zaxarlanishning yuzaga kelishi uchun ovkat tarkibida qo‘rg‘oshinning oz mikdori ham yetadi. Agar har kuni ovkat bilan 2-4 mg dan qo‘rg‘oshin iste’mol kilinsa, bir necha oydan keyin surunkali zaxarlanish alomatlari paydo bo‘ladi. Oz mikdorda ovqat bilan organizmga tushgan qo‘rg‘oshin suyaklarda to‘planadi. Qo‘rg‘oshin birikmalarining qonga ta’siri natijasida kamqonlik holati yuzaga keladi . Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, sut mahsulotlarining tarkibidagi og‘ir metallarning miqdorini aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT OBYEKTI VA METODOLOGIYASI.

Laboratoriya sharoitida sut mahsuloti tarkibidagi og‘ir metall tuzlari aniqlandi.Sut mahsulotidan 2 gr miqdorida namuna olindi. Uni 500^0 S haroratgacha chidamli maxsus chinni chashkaga solib, elektr plitkasida rangi qorayguncha qizdirildi va mufel pechiga qo‘yib 3 soat davomida kuydirildi. Keyin namuna sovutilib ustiga 1:1 konsentrlgan NNO3quyilib va 10 –15 daqiqa elektr plitkasiga bug‘languncha qizdirdirildi. Keyin 1:1 xlorid kislotasi (HCl) dan 2 ml quyib, yana elektr plitkasida bug‘languncha qizdirdirildi va keyin ustiga 25 ml. asosiy (fonli) eritma quyilib, aralashtirildi. Aralashmani filtrlab AVS – 1.1 voltampermetrli analizatorda tekshirildi. Olingan natijalarni SanQvaM 0283-10 (Oziq – ovqat mahsulotlari xavfsizligiga qo‘yilgan gigiyenik talablar) bo‘yicha ruxsat etilgan chegaraviy normalar bilan solishtirib, muvofiqligi tekshirildi. Natijalar jadvalda keltirilgan. Yogurt tarkibidagi og‘ir metallarning konsentratsiyalari, mg/kg va jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yogurt sut mahsuloti tarkibidagi og‘ir metallar

Sinov namunalari	Tarkibidagi og‘ir metallar miqdori, mg/kg					
	Rux	PDK	Kadmiy	PDK	Qo‘rg‘oshin	PDK
Namuna № 1	0,0100	5	0,0034	0,1	0,0283	0,3
Namuna № 2	0,0120	5	0,0019	0,1	0,0120	0,3
Namuna № 3	0,0004	5	0,0022	0,1	0,0220	0,3

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, namuna tarkibida rux 0,0004-0,010 mg/kg oralig‘ida, kadmiy elementi esa ruxsat etilgan konsentratsiyaning 6-11 % ini tashkil qiladi. Qo‘rg‘oshinning o‘rtacha qiymati 0,020 mg/kgni tashkil qiladi. Mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan quyultirilgan sut tarkibida og‘ir metallarni tahlil qilish natijalari 3-jadvalda keltirilgan. Barcha o‘rganilgan namunalarda og‘ir metallar ruxsat etilgan konsentratsiyalardan oshmasligi ko‘rsatildi. Toksik elementlar normadan ko‘p bo‘lishi albatta inson salomatligiga katta xavf tug‘diradi. Rux tuzlari bilan o‘tkir zaxarlanish mahsulotni qabul qilgandan 2-3 soat o‘tgach boshlanadi.

XULOSA.

1. Rux tuzlari asosan o‘tkir zaxarlanishlarni keltirib chiqaradi. Meyoridan oshib ketgan metall tuzlari oshqozonning shilliq qavatiga kuydiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun organizmga umumiy ta’sir ko‘rsatmaydi.
2. Sut mahsulotlarida ba’zi toksik moddalarni tahlil qilish og‘ir metallarning o‘rtacha konsentratsiyali darajasi sut mahsulotlaridagi toksik moddalarning ruxsat etilgan maksimal qiymatlaridan oshmasligini ko‘rsatdi.

REFERENCES

1. Сульдина Т.И. Содержание туажеліх металлов в продуктах питаниуа и их влиуание на организм.Рasиональное питание, пиshевіе добавки и биостимулуаторі. – 2016.
2. Восильев Л.Г., Абрамова Н.И., Павлов В.А. Гигиеническое и противоепидемическое обеспечение производство молока и молочніх продуктов.-М.: Агропромиздат,2000.-177с.
3. Н.Е.Панфилова"Сут ва саломатлик". Toshкент "Мехнат" 1991 й.
4. П.В.Кугенев. "Молоко и молочніе продукті". Москва"Россельхозиздат" 1985 г.
5. Xoshимов Ф.Н., Расулов Р.Й., Йо‘лдоshев Н.Н.Квант механикаси асослари.Т. O‘қитувчи,1995й.

OBTAINING ESSENTIAL OILS BY HOT EXTRACTION

[1]Khasanov Abbos Khasanovich, [2]Jonimqulov Mirtemir Ganievich, [3]Amirova Muslima Xusniddinovna

[1]Tashkent Institute of Chemical Technology, dotsent
[2]Tashkent Institute of Chemical Technology, assistant
[3]Tashkent Institute of Chemical Technology

Abstract. *Analysis of the physical properties of geranium oils manufactured at the factory revealed small deviations from the norm, which could be either the result of mixing oils of several types of geranium (i.e., in this way the manufacturer reduced the cost of oils), or the result of falsification. This analysis showed that the iodine numbers of geranium oils are slightly above the normal limits, therefore, the oils are less stable and more volatile, respectively, their quality decreases. This indicator may change as a result of the addition of various additives that affect the intensity of the aroma or as a result of mixing several types of oils.*

Keywords: *extractant, geranium, ether, unsaturation, iodine number, extraction*

Аннотация. *Анализ физических свойств гераниевих масел, изготовленних на заводе, виявил неболшие отклонения от норми, которие могли бит либо результатом смешивания масел нескольких видов герани (т.е. таким образом производител удешевил масла), или результат фальсификасии. Этот анализ показал, что ёдние числа гераниевих масел несколько превишаютнормальние предели, следовательно, масла менее стабильни и более летучи, соответственно снижается их качество. Этот показател может измениться в результате добавления различних добавок, влияюших на интенсивност аромата или в результате смешивания нескольких видов масел.*

Ключевие слова: *экстрагент, герань, эфир, ненасишенность, ёдное число, экстраксиЙ.*

Annotatsiya. *Zavodda ishlab chiqarilgan geranium moylarining fizik xususiyatlarini tahlil qilish me'yordan kichik og'ishlarni aniqladi, bu bir necha turdagi geranium moylarini aralashtirish natijasi bo'lishi mumkin (ya'ni, ishlab chiqaruvchi shu tarzda moylarning narxini pasaytirgan), yoki qalbakilashtirish natijasi. Ushbu tahlil shuni ko'rsatdiki, geranium moylarining yod miqdori me'yordan biroz yuqoriroq, shuning uchun moylar kamroq barqaror va uchuvchan bo'lib, ularning sifati pasayadi. Bu ko'rsatkich aromaning intensivligiga ta'sir qiluvchi turli xil qo'shimchalar qo'shilishi yoki bir necha turdagi yog'larni aralashtirish natijasida o'zgarishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *ekstragent, geranium, efir, to'yinmaganlik, yod soni, ekstraktsiya*

INTRODUCTION.

Even before the development of physico-chemical methods of analysis and before the development of chemistry in total, people noticed that plants have different properties, after exposure, for example, with lavender, they feel peace, after a walk in orange orchards – on the contrary, cheerfulness. Also, the fact that such plants often have a spicy smell was not ignored, people began to try to extract this fragrance from such plants. When they succeeded, the oily liquid with a spicy smell was called essential oils [7]. With the development of analysis methods, it became known that essential oils are only a collective name, since each of these "oils" in its composition had many components, both organic and non–organic.

THEORETICAL FRAMEWORK.

The method is based on the ability of the extractant to absorb mixtures of organic substances that make up essential oils (terpenes and its derivatives) (Appendix 2). As a raw material for extraction, we took plant flowers, which are the raw materials for some essential oils popular in aromatherapy. All of them were dried: sisyphus, osmanthus, jasmine, rose, orange blossoms, lavender, mint, chrysanthemum, cornflower. As a solvent (extractant), first-pressed olive oil was used, which does not have an intrusive strong smell. Before the extraction, the iodine number was determined by reverse titration, for subsequent analysis of the effectiveness of this method based on changes in the indicator before and after extraction. The iodine number is an indicator of the unsaturation of the oil, for each type of oil, during extraction, the oil is saturated with various components, including unsaturated ones. Consequently, the indicator of the iodine number will change as it is extracted. If we compare the difference between the indicator before the extraction and after it with the literature data, we can calculate what percentage of unsaturated substances from the possible was extracted and thus reveal the efficiency of extraction [16, 21].

The dried raw materials were crushed in a mortar to increase the contact area with the solvent. Then, the raw materials were laid out in a thin layer in a container with a flat wide bottom, previously covered with gauze. They were filled with oil until the formation of a "mirror".

In a warm place (the temperature is constant about 37–40°C), the oil was infused for a month with tightly closed lids. Periodically replacing raw materials: oil was taken once a week, the raw materials were extracted, squeezed, then a new portion was laid. After the expiration of the period, the raw materials were extracted, the finished product was filtered by decantation [4]. For testing, two varieties of purchased geranium oils obtained from different varieties of this species were also taken.

Table 1

Physical indicators of essential oils

Plant oil	Refractive indices and density experience	Refractive indices and densities literature data
Common geranium	Density =0.900 Refractive index = 1.483	Density = 0.886-0.898Refractive index in 20C 1.464-1.472
Rose	Density =0,848 Refractive index = 1.450	Density in 20 C 0.8560.870 Refractive index in 20C 1.453-1.464 Geranium
Geranium rosacea	Density =0,909 Refractive index = 1.475	Density 0.894-0.905 1.467-1.473
Ziziphora	Density =0,835 Refractive index = 1.467	

Lavender	Density =0.875 Refractive index = 1.460	Density in 20C 0.8760.892 Refractive index in 20C1.475-1.464
Osmanthus	Density =0.902 Refractive index = 1.500	Density in 20C 0.910- 0.923 Refractive index in 20C 1.509
Mint	Density =0,897 Refractive index = 1.459	Density = 0.901-0.912 Refractive index in 20C 1.460-1.463
Chrysanthemum	Density =0,901 Refractive index = 1.469	
Jasmine	Density = 0,925 Refractive index = 1.470	Density in 20C 0.935- 0.948 Refractive index in 20C Density =1.485- 1.491
Cornflower	Density = 0,980 Refractive index = 1.549	Density in 0,985-0,990 Refractive index in 1,5521,560

As physical characteristics, we took the following: density, refractive index, organolepticindicators: color, smell, taste.

1. Oil obtained from geranium rosacea flowers: light brown, translucent, with a brightcharacteristic smell, bitter taste.
2. Oil obtained from ordinary geranium flowers: brown, translucent, with a bright smell, bitter taste.
3. Oil obtained from the flowers of ziziphora: golden brown, translucent, with a slightly pronounced, sweet smell, bitter taste.
4. Oil obtained from osmanthus flowers: light brown, translucent, with a weakly pronouncedheavy odor, bitter taste.
5. Oil obtained from orange tree flowers: yellowish-brown, translucent, with a pronounced citrussmell, bitter.
6. Oil obtained from lavender flowers: golden, transparent, with a pronounced specific smell, bitter.
7. Oil obtained from jasmine flowers: golden, transparent, with a delicate, sweet smell, bitter.
8. Oil obtained from cornflower flowers: brown, translucent, with a faint odor, bitter.
9. Oil obtained from rose flowers: light brown, translucent, with a bright, heavy smell, bitter.
10. Oil obtained from mint leaves: golden brown, translucent, with a pronounced

specific smell.

Determination of chemical parameters of essential oils. As chemical characteristics of essential oils, we took the following: iodine number, saponification number, acid number, essential number.

The acid number is measured by the number of milligrams of potassium hydroxide, which is necessary to neutralize the free fatty acids contained in 1 g of fat. The acid number is a characteristic ofthe quality of the oil. For each of the oils there is a certain indicator, the norms of the content of free acids. If the content of these components is lower, therefore the oil is of poor quality, and if the indicatoris exceeded, therefore we can talk about the non-natural origin of the oil.

Saponification number is the number of milligrams of KOH required to neutralize both free and bound (in the form of glycerides) fatty acids contained in 1 g of oil. The content of free fatty acids in theoil is characterized by an acid number, and the content of acid esters bound in the oil is characterized by an essential number, i.e. the number of milligrams of hydroxide dripping necessary to neutralize the fatty acids released during saponification of essential bonds in 1 g of oil. The experimental ether number is determined by the difference between the saponification number and the acid number. We determined the saponification number according to the methodology in the appendix. Next, the essential number for these oils was calculated by the difference between the saponification number and the acid number.

The iodine number is expressed by the number of grams of iodine needed to saturate the unsaturatedfatty acids contained in 100 g of fat. The iodine number is one of the most important indicators for oils (fats). One thing allows us to judge the degree of saturation of oil (fat), their volatility, tendency to rancidity and other changes that occur during the storage and processing of essential oils. The more unsaturated fatty acids are contained in fat, the higher the iodine number. The decrease in the iodine number during the storage of oil is an indicator of its deterioration. The iodine number was determined according to the method in the appendix. The principle of the method is based on the property of unsaturated fatty acids to attach halogens at the place of double bonds. Unreacted iodine is titrated with

0.1 N sodium thiosulfate solution.

We have obtained the results presented in Table 2 and Table 3

Table 2

Chemical parameters of geranium essential oils

Oil	Acid Number Practice	Acid Number Theor.	The Ethereal Number. Practice	The Ethereal Number. Theor.	Iodine number Practice.	Iodine number Theor.	Saponification number Practice	Saponification number Theor.
Common Geranium	7,5	5-9	88	32-70	139	130	310	220
Geraniu	6	2-5	91	39-72	138	128	331	245

m rosacea								

Table3

The ration of iodine numbers before and after extraction

Oil	Iodine number after extraction – 90*	Iodine number according to literature data	% extractions
Roses	44	133	33
Ziziphoras	9.6	120	8
Lavender	46	135	34
Osmanthuses	43.5	128	34
Mints	40	133	30
Chrysanthemums	34.3	127	27
Jasmine	16	123	13
Cornflower	22	125	18

The indicators of purchased geranium rosacea and geranium vulgaris do not correspond to the indicators provided by the literary source, namely: the saponification number and the essential number are greatly overestimated, respectively, most likely these oils were falsified "for geranium" for a more intense aroma, by adding synthetic citranellol, geraniol, terpeneol and D.R. The iodine number indicatoris slightly above the limits norms [22].

CONCLUSION.

We have implemented a physico-chemical analysis of essential oils to establish their quality. We conducted an organoleptic analysis, as a result, no deviations were detected. Analysis of the physical properties of geranium oils manufactured at the factory revealed small deviations from the norm, which could be either the result of mixing oils of several types of geranium (i.e., in this way the manufacturerreduced the cost of oils), or the result of falsification.

When determining the indicators of the iodine number of oils, we found out that the highest recovery rate was for rose, lavender and osmanthus oils. The indicators of chrysanthemum and ziziphora were thelowest. At the same time, the results of no plant species were close to 100%.

This analysis showed that the iodine numbers of geranium oils are slightly above the normal limits, therefore, the oils are less stable and more volatile, respectively, their quality decreases. This indicator may change as a result of the addition of various additives that affect the intensity of the aroma or as a result of mixing several types of oils.

The saponification number and the essential number for these oils were 2 times higher than normal, which indicates the unnatural origin of these oils, contrary to the manufacturer's statement. This indicator characterizes the phytoncidal properties of oils, the brightness of the aroma, therefore, are the most important in essential oils.

On the one hand, it can be argued that with such indicators, the quality of essential oils should increase, however, due to the complexity of extracting oils from plants, natural oils have a higher cost than synthetic ones, so the manufacturer saves on production and adds various synthetic substances thatcan cause allergies or poisoning, since it does not indicate the presence of additives on the packaging.

REFERENCES

1. Tam,C.U. Optimization and comparison of three methods for extraction of volatile compounds from Cyperus rotundus evaluated by gas chromatography-mass spectrometry [Текст] / F.Q. Yang., Q.W.Zhang, J.Zhang, S.P. Guan, S.P. Li // Journal of Pharma-ceutical and Biomedical Analysis, 2007. – V. 44. – P. 444–449.
2. Браун, В.Д. Ароматерапиуа: иллуистрированное руководство. [Текст] /В. Д. Браун. – Пер.с англ. – М.: Фаир-Пресс, 2006. – 128 с.
3. Уанкпо, Сегбехин Бие Берже, Современніе подході к oseнке качества лекарственніх препаратов, содержashих ефирніе масла и терпеноиді ефирніх масел, на примере ромashки аптечной: автореф. дис. – канд. фарм. наук Сегбехин Бие Берже Уанкпо, СПХФА – М., 2008 – 200 с.
4. SHепелев, А.Ф. Товароведение и експертиза парфуимерно-космети-ческих товаров: учебное пособие [Текст] / А.Ф. SHепелев., И.А. Печенежскауа, Т.Е. Ивахненко. – Ростов н/Д: Издательский sентр «МарТ», 2001. – 144 с.
5. SHулов, Л.М., Dyshистіе beshества и полупродукті парфуимерно-косметических производств [Текст] / Л.М. SHулов, Л.А. Хейфиs– М.: Агропромиздат, 1990. – 208 с.

DONLI HOMASHYOLARDAN OLINADIGAN YORMA MAXSULOTLARI VAULARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI TAHLILI

[1]Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, [2]Sanayev Ermat Shermatovich, [3]Mirxodjayeva Dilobar Davronbekovna, [4]Mahmudov Kamoliddin Ahmadjonovich, [5]Raxmatov Furkat Eshpulat o'g'li

[1]Toshkent Davlat texnika universiteti, professor
[2]Toshkent kimyo texnologiya instituti, v.b.dosent
[3]Toshkent Davlat texnika universiteti, PhD
[4]Toshkent Davlat texnika universiteti, assistent
[5]Toshkent kimyo texnologiya instituti, magistrant

Annotasiya. *Donli xomashyolarning oziqaviy,energetik, pazandachilik, nonvoylik va boshqa xususiyatlari inson organizmi uchun foydali hisoblanadi. Bu xususiyatlar donning tuzilishi, undagi alohida kimyoviy moddalar nisbati va donning fizik xususiyatlari bilan belgilanadi. Donning foydali xususiyatlariga don ekinlarining turi, navi,yetishtirish sharoitlari, donni tashish va saqlash usullari ta'sir qiladi.*

Kalit so'zlar: *donli xomashyolar, arpa, suli, makkajo'xori,grechka, guruch, manni yormasi.*

Аннотация. *Питателние, энергетические, кулинарние, хлебопекарние и другие свойства злакового сиря полезни для организма человека. Эти свойства определяются структурой зерна, соотношением в нем отделних химических веществ и физическими свойствами зерна. На полезние свойства зерна влияют вид зерновой культури, сорт, условия вирашивания, способи транспортировки и хранения зерна.*

Ключевие слова: *зерновое сире, ячмен, овес, кукуруза, гречка, рис, манка.*

Abstract. *Nutritional, energy, culinary, baking and other properties of cereal raw materials are usefulfor the human body. These properties are determined by the structure of the grain, the ratio of individualchemicals in it and the physical properties of the grain. The useful properties of grain are influenced bythe type of grain crop, variety, growing conditions, methods of transportation and storage of grain.*

Keywords: *grain raw materials, barley, oats, corn, buckwheat, rice, semolina.*

KIRISH

Arpa – qadimdan ekiladigan donli ekin bo'lib, salkam o'n ming yillik tarix davomida dorivor vosita, asosiy yegulik, o'lchov birligi va hatto pul birligi sifatida foydalanish maqsadida ekilib kelingan. Xususan, Markaziy Osiyo hududida juda qadimdan ekib kelingan. 1954 yilda o'tkazilgan arxeologik topilma natijalariga qaraganda Turkmaniston hududida topilgan arpa doni Neolit davrida, ya'ni milloddan 500 yil avval ekilganligi isbotlangan. Hozirgi vaqtda arpa dunyoning juda ko'pchilik mamlakatlarida Yevropa, Osiyo, Amerika, Avstraliya qit'alarida ekiladi.

Butun dunyo bo'yicha uning ekin maydoni 67 mln. gektarni tashkil qiladi. O'zbekistonda arpa lalmi va sug'oriladigan yerlarda ekilib, lalmi yerlardan 10-15 s/ga don, sug'oriladigan yerlarda esa 30-40 s/ga hosil beradi.

Arpa haqida hadislarda juda to'yimli, yo'tal va gastrit paytida foydali, shuningdek siydik haydovchi va antioksidant vosita sifatida tilga olingan.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam arpani yaxshi ko‘rar edilar. Arpa payg‘ambarimizning asosiy yeguliklari edi. Lekin xonadonlarida arpa har kuni ham bo‘lmasdi. Ular arpani un, non va bo‘tqa ko‘rinishida iste’mol qilar edilar. Hadisga muvofiq, payg‘ambarimiz (S.A.V) hech qachon elangan un ishlatmagan ekanlar. Bu biz uchun ulkan saboq bo‘lishi kerak. Chunki biz yuqori navli unlarni iste’mol qilishga intilamiz[1].

Vaholanki, un qancha yuqori navli bo‘lsa (yani qancha ko‘p elansa), uning shuncha foydali vitaminlari va minerallarga to‘la ozuqaviy elementlari chiqib ketadi.

Imom ibn al-Qoyyimning aytishicha, arpa damlamasini tayyorlash uchun suvni dondan besh barobar ko‘proq olish talab etiladi. Uning tarkibi to‘rttdan uch qismgacha kamaygunga qadar qaynatish kerak bo‘ladi. Ushbu sutli aralashma chanqoqni bosishda ajoyib vosita hisoblanadi. Ammo tan olish kerakki, hozirgi paytda arpa asosan chorva mollariga ozuqa, yem sifatida beriladi. Nega? Bu qimmatli mahsulot nima uchun e’tiborimizdan chetda qolmoqda? Arpa uni hozir savdoga kamdan-kam chiqariladi, holbuki, 500 yil muqaddam Yevropada arpa unidan yopilgan non asosiy yegulik bo‘lib, bug‘doy noni ham bu darajada mashhur bo‘lmagan. Bu ikki donning oziqaviy xossalariga oid jadvalni qiyoslash uchun ko‘zdan kechiraylik: 100 gramm bug‘doy va arpaunlarida % hisobida kunlik vitamin meyori quyidagicha:



Arpa doni tana vaznini kamaytiradi, astma, ya’ni ziqnafas kasalligi oldini oladi, oshqozon-ichak yo‘li faoliyatini rag‘batlantiradi va tozalaydi, o‘t pufagi kasalliklarini davolaydi va oldini oladi. Qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi va yurak-qon tomir tizimini rag‘batlantiradi. Qondagi qand miqdorini nazorat qiladi va qand kasalligi oldini oladi. Inson rangini tiniqlashtirib, terisini taranglashtiradi.

Xavfli o‘smalar paydo bo‘lishidan himoyalaydi. Bo‘g‘imlar kasalliklarini davolashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Arpa uni 284 KKal quvvatga ega Qadimda onalarning suti kamlik qilganda yoki emizikli bolalarning qorni og‘riganda bolalarga qaynatilgan arpa suvi berishgan. Natijada bolalar shifokoriga ehtiyoj ham, disbakterioz ham bo‘lmagan[2].

Qadimgilar bizga nisbatan aqlli bo‘lishgan! Arpa uni – qon hosil qilishda faol ishtirok etadi, suyaklarni mustahkamlaydi, yurak-qon tomir kasalliklari oldini oladi, immunitetni kuchaytiradi, shuningdek teri, soch, tirnoqlarga jilo baxsh etadi.

Qolaversa, stress va depressiyalardan, uyqusizlikdan hamda mavhum toliqishlardan holi to‘laqonli hayot kechirishni ta’minlaydi. Arpadan tayyorlangan mineral kompleks mana shunday fazilatlarga ega. Agar allergiyaga chalingan bo‘lsangiz yoki oshqozon-ichak kasalliklaridan aziyatcheksangiz, bu xastaliklardan xalos bo‘lishingizda arpa beminnat yordam beradi.

Arpa unidan yopilgan non – oshqozon va ichaklarni mustahkamlaydi. Arpadan tayyorlangan yeguliklar va taomlarni muntazam tanovvul qiladigan bolalar kamdan-kam shamollaydi, kasalliklarni osonlik bilan yengib, tez sog‘ayadi[3].

Qadimda arpa unidan qora “kambag‘allar” noni yopilgan, chunki bu toifadagi odamlar bug‘doy narxi tilla barobarida qimmat bo‘lgani uchun oq undan tayyorlangan non iste’mol qila olmagan, binobarin arpa ekib, don yetishtirgan.

Arpa doni bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda



Vashingtondagi profilaktika tibbiyoti instituti tadqiqotchisi Govard Luts arpaning foydali hususiyatlaridan chinakamiga hayratga tushgan hamda uni “o‘n yillikning sira aql bovar qilmas mahsuloti deya ta’riflab, chidamlilikni oshirishi, quvvat baxsh etishi, tafakkurni ravshanlashtirishi va odamga salbiy ta’sir qiladigan holatlarga moyillikni kamaytirishiga alohida urg‘u bergan”. Biogenetik Yoshixide Xagivara ko‘pdan-ko‘p salbiy oqibatlar keltirib chiqaradigan zamonaviy dori-darmonlardan ko‘ngli qolgandan keyin arpaning 150 turi ustida o‘n besh yil tadqiqotlar olib borgan.

Yaponiyaning Fan va texnika boshqarmasi qoshidagi oziq-ovqatlar tahliliy markazida xizmat qiladigan bu olim arpa tarkibida ko‘p miqdorda organik natriy borligi, kalsiyning qonda erishiga yordam berishi va bo‘g‘imlarda yig‘ilishining oldini olishini aniqlagan.

Arpa o‘z tarkibiga biologik faol komponentlar – odamga to‘laqonli hayot kechirish va sog‘ligini saqlab turish uchun juda zarur bo‘lgan vitaminlar, makro va mikroelementlar, oziqaviy tolalarni to‘laroq jamlab olgan.

Birinchidan, arpa donining 65 foizi uglevodlardan iborat. Aynan shu bois ertalabki arpa bo‘tqasi bizga butun kun davomida quvvat beradi.

Ikkinchidan, arpa tarkibida 10 foizdan ko‘proq oqsil mavjud bo‘lib, u o‘zining oziqaviy qiymati bo‘yicha bug‘doy oqsilidan ustun turadi. O‘simlik oqsili hayvon oqsiliga qaraganda organizmimiz tomonidan deyarli 100 foizga o‘zlashtiriladi.

Uchinchidan, arpa doni 5-6 foizga bizning oshqozon-ichak tizimimiz uchun juda zarur bo‘lgan hujayradan iborat.Hujayra ovqat hazm bo‘lishini meyorlashtiradi va organizmdan parchalanishning barcha zararli mahsulotlarini chiqarib tashlaydi[3].

To‘rtinchidan, arpa bizni organizmda modda almashinuvi meyorda kechishi, shuningdek miyamiz meyorda ishlashi uchun zarur bo‘lgan minerallar to‘plami bilan taminlaydi. Bundan tashqari arpa – tarkibidagi tabiiy ko‘rinishda kalsiy, kaliy, rux, marganes va temir miqdori

bo‘yicha chempion hisoblanadi. Shu bois odamlar uchun arpa har qanday dori-darmonlardan zarurroq va foydaliroqdir.

Beshinchidan, arpa – bu vitaminlarning deyarli to‘liq to‘plamidir. Arpa doni tarkibida A vitamini, B guruhining deyarli barcha vitaminlari, D, YE, PP vitaminlari mavjud. Hayron bo‘lmang, arpa – bu vitaminlar va minerallarning eng to‘la tabiiy majmuasidir. Quyidagi jadvalda arpaning fizik kimyoviy ko‘rsatkichlarini ko‘rishingiz mumkin.

1-jadval

Arpaning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar, g	Ko‘rsatkichlar qiymati , 100 g uchun
Oqsil	11,5
Lipid	6,2
Uglevod, shundan:	70,53
Monosaxarid va disaxarid	1,1
Gemiselluloza	10,50
Kletchatka	9,44
Kraxmal	40,70
Pektin	2,80
β-glyukon	1,20
Vitamin E, mgda	3,4
Riboflavin, mgda	0,12
Xolin, mgda	115,46

Arpa yormasi sport bilan shug‘ullanuvchi insonlar uchun to‘g‘ri keladi. Arpaning eng muhim mineral komponenti fosfor hisoblanadi, unda boshqa barcha donlardan deyarli ikki baravar yuqori miqdorda fosfor mavjud. Fosfor nafaqat miyaning ishlashi uchun zarur bo‘lgan asosiy modda, balki sportchilar uchun asosiy mikroelement hisoblanadi, chunki u mushak to‘qimalarining qisqarish tezligi va kuchi uchun javobgardir. Arpa yormasi arpa donalarini kepakdan tozalash va ularni maydalash yo‘li bilan olinadi. Arpa o‘z nomini qadimgi slavyancha

«perly» so‘zidan olgan, bu esa «marvarid» degan ma’noni anglatadi. Arpa yormasi an’anaviy usulda tayyorlanadigan taomdan tashqari, issiq ovqatlar uchun garnir sifatida ishlatilishi mumkin. Oqlangan arpa yormasi barcha don navlari ichida eng muxim don hisoblanadi.[4]. Arpa yormalarida ko‘p miqdorda o‘simlik oqsili, shuningdek, klechatka va oqsil mavjud, shu bilan birga arpa yormalarida natriy yo‘q, shuning uchun u vazn ortishiga hissa qo‘shmaydi. Arpa yormalaridan bo‘tqalar, sho‘rvalar tayyorlanadi, palov va boshqa taomlarga qo‘shiladi, tovuq go‘shtiva sabzavotlarni bilan, shuningdek, garnir sifatida ishlatiladi.



Grechka universal toifadagi don mahsulotidir

Grechka uni nonushta uchun ham, ertalabki bo‘tqa sifatida va kechki ovqat uchun ham, issiq taom uchun garnir sifatida tayyorlash mumkin. Grechka nafaqat o‘zining ta’mi, balki organizm uchun foydali bo‘lgan vitaminlar va elementlarning butun majmuasi:

kalsiy, magniy, fosfor, oqsillar, yog‘lar va uglevodlar uchun ham e’tiborga loyiqdir Grechka parhez qilgan insonlar uchunxavfsiz, chunki unda qoniqarli va past kaloriya mavjud. Har bir kishi grechka iste’mol qilishi mumkin, ayniqsa qandli diabet bilan og‘rigan insonlar uchun bu shakar darajasini normallashtirishga yordam beradi va organizmni to‘q saqlaydi.

Suli yormasi-parhez qilgan qizlarning sevimli nonushtasi hisoblanadi. Ma’lumki, klechatkalar metabolizmni tezlashtiradi va ichaklarni tozalaydi. Sog‘lom va toza ichak tanani ajoyib shaklda saqlash uchun asosdir. Biroq bu mahsulot erkaklar uchun yanada foydaliroq. Suli yormasi yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi va ma’lumotlarga ko‘ra, erkaklar ayollarga qaraganda ko‘proq bunday kasalliklardan aziyat chekadi. Kuniga taxminan 25 gramm klechatkani iste’mol qilish orqali yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytirishingiz mumkin. 25 gramm klechatka -ertalab iste’mol qilinadigan bir piyola suli yormasi. Suli yormasi foydalixususiyatlari bo‘yicha grechkaning yagona analogidir. U qandli diabetga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan tolani o‘z ichiga oladi. Olimlar tomonidan o‘tkazilgan tajribalarda suli**,** qandli diabetga chalingan bemorlarga kuniga 100 g suli yormasi tavsiya etiladi va bir necha hafta o‘tgach,bu nafaqat xolesterin darajasini pasaytirdi, balki bemorlarning tanasida insulinga ehtiyojyo‘qligini ham sezilarli darajada namoyon qildi.



Guruch oshxonada eng ko‘p qo‘llaniluvchi mahsulotlardan biri. Uni pishirish oson va tez. Guruchning yana bir aniq yaxshi tomoni bor -multivariant mahsulot hisoblanadi. Guruchning turli navlari turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan: «uzun» guruch palov uchun yaxshi, go‘sht yoki baliqdan tayyorlanadigan taomlar garnir va qiyma go‘sht uchun «qisqa» guruchni tanlagan ma’qul, deyarli yumaloq guruch donalari suyuq don va sho‘rvalar tayyorlash uchun juda mos keladi. Jigarrang guruch juda yaxshi, chunki u don tarkibida mavjud bo‘lgan barcha turdagi tola va ozuqa moddalarini o‘z ichiga oladi. Guruchni iste’mol qilish qon bosimini tushirishga yordam beradi.



Manniy yormasi bo‘tqasi bug‘doy dondan tayyorlanadigan eng yuqori kaloriyali taom hisoblanadi. Agar sizda oshqozon yoki vaznni tartibga solish bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lsa (distrofiyagacha), unda bu arzon, foydali va oson tayyorlanadigan dori bo‘la oladi. Manniy yormasi bug‘doy donining markaziy qismidan olinadi, ya’ni u bug‘doy kabi juda ko‘p proteinga ega. Manniy yormasidan tayyorlanadigan bo‘tqa juda mazali, biroq u bolalarda yaxshi hazm bo‘lmaydi. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalarga ushbu sohadagi so‘nggi tibbiy tadqiqotlarga ko‘ra, manniy yormasini berish

tavsiya etilmaydi. Manniy yormasi qandli diabet, ateroskleroz va ortiqcha vaznga ega bo‘lgan insonlar uchun tavsiya tilmaydi. Eng foydali manniy yormasi bug‘doydan tayyorlanadi va odatdagidan ancha quyuqroq ko‘rinadi. Bug‘doy urug‘i vitamin va minerallar manbai hisoblanadi. Bug‘doyda B va E vitaminlari, shuningdek, muntazam jismoniy faoliyat uchun zarur bo‘lgan protein ustunlik qiladi[5]. Organizmning proteinga bo‘lgan kunlik ehtiyojini qondirish uchun faqat bir osh qoshiq (25 kkal) bug‘doy urug‘ini iste’mol qilish kifoya qiladi va chorak chashka urug‘larda 8 g protein mavjud.Bug‘doy yormalarini tariq bilan aralashtirib yubormang. Bug‘doy yormalari bug‘doydan, tariq esa tariqdan olinadi. Bug‘doy mikroblari oshqozon ishini tartibga solishga va kasal yurakka yordam beradi. Shuningdek, bug‘doy yormalari bilan o‘simlik oqsili tanaga kiradi. Bug‘doy urug‘i yong‘oqning ta’miga o‘xshaydi va bug‘doy kepagi tolalar miqdori bo‘yicha donlar orasida birinchi o‘rinda turadi (kepakning chorak kosasi 60 kkal mavjud). Bug‘doy kepagi barqaror va sog‘lom hazm qilishni ta’minlash uchun ideal mahsulot hisoblanadi.



Tariqdan tayyorlanadigan tariq yormasi tarkibida tola, o‘simlik oqsili, kaliy, magniy bor va bug‘doy, guruchga qaraganda ko‘p miqdorda temir mavjud. Tariqdan nonushta va mazali oladyi uchun ajoyib pyure tayyorlanadi. Tariq pyuresining kaloriyasi past, shuning uchun bu chiroyli qomatga e’tibor berganlar uchun foydali mahsulot hisoblanadi. Biroq, gastrit bilan og‘rigan bo‘lsangiz, uni ishlatmaganingiz ma’qul.

Xulosa: boshoqli,dukkakli va moyli donlar inson istemol rasionining 70% dan ortig‘ini tashkil etishini xisobga olgan xolda, don va don maxsulotlarini qayta ishlashda ilmiy, innovasion yondashuvlar bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib qolaveradi. Ushbu tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligini taminlash, funksional ovqatlanish muxitini yaratish va imkoniyatlari taxliliy ko‘rib chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. https://gujum.uz/salomatlik/yongoqning-shifobaxsh-xususiyatlari.
2. Guo, C.; Zhou, L.; Lv, J. Effects of expandable graphite and modified ammonium polyphosphate on the flame-retardant and mechanical properties of wood flour-polypropylene composites. Polym. Polym.Compos. 2013, 21, 449–456. [CrossRef]
3. Kim, J.M.; Han, M.S.; Kim, Y.H.; Kim, W.N. Thermal, morphological and rheological properties ofrigid polyurethane foams as thermal insulating materials. AIP Conf. Proc. 2008, 1027, 905–907.
4. Chang, L. Improving the Mechanical Performance of Wood Fiber Reinforced Bio-based PolyurethaneFoam. Master Appl. Sci. 2014, 101, 1572052.
5. https://muxlis.uz/uz/pages/engoqning-shifobahsh-hususiyatlari

STUDYING THE TECHNOLOGY OF OBTAINING OIL FROM FLAX SEEDS

[1]Abbos Berdiyev , [2]Madina Khamidova, [3]Jasur Farmonov
[1]Qarshi Institute of Engineering and Economics Qarshi, Uzbekistan
E-mail: berdiyevabbos8@gmail.com
[2]Tashkent chemical-technological institute, Tashkent, Uzbekistan
[3]University of Economics and Pedagogy NEI

Abstract. *The article provides information on the effect of drying, that is, heat treatment, on the extraction of linseed oil from flax. The characteristics of oil release at different drying temperatures are described in detail, the rate of moisture release over time and the rate of oil release at different drying times are determined. The main determining parameters of linseed oil production are drying temperature and drying time. A conclusion is made about the technology of increasing oil extraction from flaxseed during heat treatment.*

Keywords: *linseed oil, heat treatment, drying, oil content, pressing, extraction.*

Аннотация. *В статье приведени сведения о влиянии сушки, то ест термической обработки, на извлечение льняного масла из льна. Подробно описани характеристики масловиделения при разних температурах сушки, определени скорост виделения влаги во времени и скорост виделения масла при разних временах сушки. Основними определяюшими параметрами производства льняного масла являются температура и время сушки. Сделан вивод о технологии повишения извлечения масла из семян льна при термической обработке.*

Ключевие слова: *льняное масло, термообработка, сушка, масличность, прессование, экстраксия.*

Annotatsiya. *Maqolada quritish, ya'ni issiqlik bilan ishlov berish zig'irdan zig'ir moyini olish ta'siri haqida ma'lumot berilgan. Har xil quritish haroratlarida moyning ajralib chiqish xususiyatlari batafsil tavsiflanadi, vaqt oralig'ida namlikning ajralib chiqish darajasi va turli quritish vaqtlarida yog'ning ajralib chiqish darajasi aniqlanadi. Zig'ir moyi ishlab chiqarishning belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar quritish harorati va quritish vaqtidir. Issiqlik bilan ishlov berish jarayonida zig'ir urug'idan moy olishni ko'paytirish texnologiyasi to'g'risida xulosa chiqariladi.*

Kalit so'zlar*: zig'ir moyi, issiqlik bilan ishlov berish, quritish, moy miqdori, presslash, ekstraktsiyalash.*

KIRISH

Toboro rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasi iqtisodi uchun yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va mahalliy xom ashyolarni ishlab chiqarishga tadbiq etish juda katta ahamiyatga ega. Zig'ir urug'i (Linum usitatissimum) tarkibidagi bir qator funktsional birikmalar tufayli oziq-ovqat sanoati tadqiqotchilarida eng ko'p qiziqish uyg'otgan mahsulotdir. Eng muhimi shundaki, zig'ir urug'i tarkibida zig'ir urug'i yog'i bilan birga olinmaydigan lignanlarning konsentrlangan miqdori mavjud [1].

Lignanlar potentsial himoya ta'siriga ega bo'lgan o'simlik garmoni hisoblanib, yurak-qon tomir kasalliklari, saraton va diabetni davolashda ijobiy ta'sir nomoyon etadi [2].

Zig'ir yog'i maydalangan va siqilgan zig'ir urug'idan tayyorlanadi. U kapsulalar va suyuqlik shaklida mavjud. U jismoniy va ruhiy salomatlik uchun muhim bo‘lgan omega-3 yog' kislotalarini o‘z ichiga oladi. Va alfa-linolenik kislota boshqa kimyoviy moddalar bilan birgalikda yallig'lanishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Sovuq presslangan zig'ir urug'i moyi aniq xarakterli xushbo‘y hidga ega, oltin-sariq rangga ega, ta'mi biroz achchiq. Zig'ir urug'i yog'i bitta kamchilikka ega. Uning yog 'kislotalari tezda oksidlanadi, shuning uchun uni havo va yorug'likdan uzoqroq tuting.

O‘simlik moylari presslash, forpress-ekstraksiya, to‘g’ridan-to‘g’ri ekstraksiya usullarida ishlab chiqariladi. Presslash usulida moy olishning o‘zini ham bir bosqichli presslash, ikki bosqichli presslash va sovuq presslash usullarida moy olish texnologiyasi mavjud. Yana shuni nazarda tutish kerakki, moy olish usuli moy olish usuli va texnologik jarayonlar moyli xom ashyoning tuzilishiga ko‘ra qo‘llanilganda yaxshi samara beradi. Hozirgi kunda noan’anaviy moyli xom ashyolar (zig’ir, kunjut, raps, sedana va h.) sovuq presslash usuli bilan olinishni talab etadi. Chunki bu usul moyli urug’ tarkibidagi biologik faol moddalarni saqlab qolishga olib keladi, bizga ma’lumki Yuqori haroratda termik ishlov berish bilan moyli urug’dan moy ishlab chiqarilganda vitaminlarni sezilarli darajada yo‘qotishiga olib keladi. Kunjut va zig'ir urug'larini qayta ishlash mexanik ishlov berishni talab etadi.

Moy olish usullari tahlil qilinidi, shuni aytish mumkinki, moyli xom ashyoga mexanik ta’sir va termik ishlov berish kabi texnologik jarayonlar, hattoki qisqa muddatli ishlov berish ham xom ashyoning tarkibidagi, ayniqsa moy fazasidagi o‘zgarishlarga olib keladi [3].

Past haroratda issiqlik bilan ishlov berish ba'zi ijobiy natijalarga olib keladi. Urug'lar tarkibidagi kraxmalning 20% gacha qizdirilsa, u inson organizmi tomonidan oson so‘riladigan dekstrinlarga o‘tadi va zaharli moddalar yo‘q qilinadi. Harorat ko‘tarilsa oqsil denaturatsiyaga uchraydi harorat 30-150 ºC bo‘lganda vitamin kompleksi deyarli to‘liq saqlanib qoladi. Shunday qilib, issiqlik bilan ishlov berishning ta'siri ozuqa moddalarining hazm bo‘lishini 20-25% ga oshirishga yordam beradi. Zig’ir moyi tarkibi o’ziga xosdir. Jumladan, inson tanasi uchun xos bo‘lgan Omega-3 kabi komponentlar unda baliq yog’idagi miqdordan ham ko‘p. Hech qaysi mahsulotarda Omega-3 aralashmasi bu darajada ko’p emas. Bundan tashqari, zig’ir moyida boshqa yog’ kislotalari ham mavjud. Ushbu moddalarning bunday birikmasi moyning yanada noyobligini va foydaliligini oshiradi. Bu o’simlik moyi yog’ kislotalaridan tashqari vitaminlarga ham boydir. Bular A, E, B va K vitaminlaridir. Ushbu moy jigardagi toksinlarni organizmdan chiqarishga yordam beradi. Zig’ir urug’ida nitratlarni (masalan, iste’mol qilingan meva va sabzavotlardagi) yo’q qiluvchi antioksidant mavjud [4].

Zig'ir urug'i yog'i o‘zining noyob tarkibi tufayli tibbiyotda qo‘llaniladi, ammo hozir u oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda keng qo‘llanila boshlandi. Zig'ir urug'i yog'i turli xil yog'lar bilan yaxshi ketadi va ayni paytda ko‘p miqdorda omega-3 ko‘p to‘yinmagan yog'li kislotalarni o‘z ichiga oladi, ularsiz inson tanasining normal ishlashi mumkin emas. Bundan tashqari, zig'ir urug'i yog'i yuqori ozuqaviy qiymatga ega, u immunitet tizimining faoliyatini oshiradi, miya va boshqa organlarning faoliyatini rag'batlantiradi [5].

Zig'ir urug'i shifobaxsh xususiyatlari va inson tanasining turli sohalariga keng ta'sir ko‘rsatishi tufayli xalq tabobatida uzoq vaqtdan beri qo‘llanilgan. Zig'ir urug'ining biologik qiymatini aniqlaydigan asosiy oziq moddalar: linolen (35-45%), linol (25-35%), olein (15-20%), stearin (8-9%) yog’ kislotalar, oqsillar (18–33%), uglevodlar (12–26%), organik kislotalar [6].

TADQIQOTNING OB'EKTI VA USULLARI

O‘rta Osiyoda yetishtiriladigan zig'ir urug’ining moyliligi 38,10% bo‘lgan tadqiqot ishlari olib borildi. Yakuniy natijaning tahlili ma'lum usullar bilan amalga to‘liq, oshirildi [7-8].

Urug’larning yog’liligi deganda, ulardagi moy miqdori, xom ashyoning tarkibi va unga hamroh bo‘lgan yog’simon moddalar tushuniladi, ekstraksiya usulida moy ishlab chiqarilganda, moyli xom ashyo tarkibidagi hamroh moddalar tarkibiga o‘tadi.

O‘simlik yog’larida ma’lum miqdorda erkin yog’ kislotalari bo‘ladi, bular yog’ning sifatiga bog’liq. Erkin yog’ kislotalarining bo‘lishi yog’ sifatini yomonlashtiradi, ozuqaviy qiymatini kamaytiradi.

Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan yog’ning kislota soni 0,20-0,30 mg KOH dan oshmasligi kerak. Bundan esa yog’ kislotalarini yo‘qotish zarurligi kelib chiqadi, shunung uchun kislota sonini aniqlash usuli amalga oshiriladi [9].

Kislota sonini aniqlash usullarining mohiyati erituvchilar aralashmasida erituvchi moyning may massasini eritib, so‘ngra mavjud bo‘lgan yog' kislotalarini kaliy yoki natriy gidroksidning suvli yoki spirtli eritmasi bilan titrlashdan iborat.

- yog'ning massa ulushi (o‘lchov oralig'ida 1% dan 60% gacha);
Аннотация. *Пишевих масел и жиров от окисления кислородом, улучшения их запаха и вкуса, а также увеличения срока их хранения необходимо обосновать следуюшие научние решения, в частности: установление причини пониженного качества пишевих жиров и путей повишения их показательей; получение антиоксидантов из местних сирьевих ресурсов; создание эффективних композисий антиоксидантов для маргариновой продуксии; виявление оптимальних условий применения антиоксидантов в производстве маргариновой продуксии.*

Ключевие слова: *пероксид, антиоксидант, ингибитор, жирние кислоти, триасилглисерид, катализатор, липаза, маргарин*

Abstract. *To protect edible oils and fats from oxidation by oxygen, improve their smell and taste, and increase their shelf life, it is necessary to substantiate the following scientific solutions, in particular: establishing the cause of the reduced quality of edible fats and ways to improve their performance; obtaining antioxidants from local raw materials; creating effective compositions of antioxidants for margarine products; and identifying optimal conditions for the use of antioxidants in the production of margarine products.*

Keywords: *peroxide, antioxidant, inhibitor, fatty acids, triacylglyceride, catalyst, lipase, margarine*

KIRISH

Aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta’minlash dunyoning istalgan davlati uchun eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston oldida ham global muammolardan biri bo‘lgan oziq-ovqat mustaqilligiga erishish hamda uning xavfsizligini ta’minlash masalasini hal etishdek hayotiy vazifa ko‘ndalang turardi. Shu bois, Prezidentimiz rahnamoligida mazkur masalani ijobiy hal etish, aholini yetarli miqdorda sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash borasida bir qator farmon va qarorlar, davlat dasturlari qabul qilindi hamda ularning izchil ijrosini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi [1].

Iqtisodiy isloxotlarning butun zanjirida agrar soxadagi o‘zgarishlarga g‘oyat katta ahamiyat berilmoqda. So‘nggi yillarda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarni, dehkon (fermer) xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish siyosati o‘tkazilib, bu yo‘nalishda qilingan ishlar o‘z samarasini bermoqda. Bu siyosat qishloqdagi oilalarning moddiy ahvolini yaxshilabgina qolmay, respublika qishloq xo‘jaligining samarasini oshirmoqda. Shu bilan birga O‘zbekiston iktisodiyot tizimini qayta qurish buyicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlardan yana biri respublika aholisini oziq-ovqat maxsulotlariga, talab katta bo‘lgan tovarlarga, ayniqsa bolalar va katta yoshdagilarga mo‘ljallangan eng zarur tovarlarga bo‘lgan extiyojlarini maxalliy maxsulotlar hisobiga qondirishni ta’minlashni ko‘zda tutadi. Yog‘ moy sanoati oldida ana shunday eng zarur maxsulotlar jumlasiga kiruvchi o‘simlik moyi va uni qayta ishlash maxsulotlari bilan xalq ehtiyojini to‘liq ta’minlash masalasi turadi[2].

Maxalliy xom ashyodan tannarxi arzon bo‘lgan sifatli yog‘ mahsulotlari, jumladan, margarin mahsulotlari ishlab chiqarish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi.

TADQIQOT OB’EKTI VA USULLARI

Yog'li xom ashyoning organoleptik xususiyatlarini (shaffoflik, hid, ta'm va rang) aniqlash quyidagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshirildi:

- GOST 5472 "O'simlik moylari. Hidi, rangi va shaffofligini aniqlash”;
- GOST R 52969-2008 “Sariq. Texnik shartlar";
- O‘zDSt 3317:2018 “Margarin. Texnik shartlar".

O'simlik moylari va sut yog'larining yog 'kislotalari tarkibini aniqlash GOST R 51483-99 "O'simlik moylari va hayvon yog'lari" bo'yicha amalga oshirildi. Ayrim yog 'kislotalarining metil efirlarining ularning yig'indisiga qadar massa ulushini gaz xromatografiyasi bilan aniqlash.

millimollarida ifodalangan peroksid qiymatini aniqlash quyidagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirildi.

- GOST R 51487-99 "O'simlik moylari va hayvonlarning yog'lari. Peroksid qiymatini aniqlash usuli”;
- GOST 31756-2012 "Hayvonot va o'simlik yog'lari va yog'lari. Anisidin sonini aniqlash;
- GOST R 55810-2013 "Go'sht va go'sht mahsulotlari. Tiobarbiturik sonni aniqlash usuli
- GOST R 51453-99 "Sut yog'i. Suvsiz yog'da peroksid miqdorini aniqlash usuli .

Yog 'tarkibidagi erkin yog' kislotalarining tarkibini aks ettiruvchi va erkin yog' kislotalarini zararsizlantirish uchun zarur bo'lgan mg kaustik kaliy (KOH) da ifodalangan kislotalar sonini aniqlash GOST R 50457-92 talablariga muvofiq amalga oshirildi. Hayvon va o'simlik yog'lari va yog'lari. Kislota soni va kislotaligini aniqlash.

Xom ashyoning kislotaliligini aniqlash GOST R 52110 bo'yicha amalga oshirildi.

Namlik va uchuvchi moddalarning massa ulushi foizlarda ifodalangan GOST R 50456-92 “Hayvonot va o'simlik yog'lari va yog'lari. Namlik va uchuvchi moddalarni aniqlash”.

erishi va quyilish nuqtasi, zichligi va sinishi indeksini aniqlash GOST R 52179 bo'yicha aniqlangan.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Margarinni olish uchun biz rasmda ko'rsatilgan laboratoriyada tajriba o'tkazdik.



1-rasm. Margarin emulsiyasini olish uchun laboratoriya birligi

1 - emulsiya olish uchun stakan; 2- suvli fazani tayyorlash uchun stakan; 3- elektr motor; 4 - laboratoriya avtotransformatori LATR;5 - nasosli suv hammomi; 6-stakan tayyor mahsulot; 7-muzlatgich

Ushbu o'rnatish quyidagi elementlardan iborat: mexanik aralashtirgich va suv ko'ylagi bilan jihozlangan emulsiya ishlab chiqarish uchun 1-stakan, suvli fazani tayyorlash uchun 2-stakan, 3-elektr dvigatel, 4-laboratoriya avtotransformatori LATR, 5-suv vannasi. nasosli, tayyor mahsulotlar uchun 6-stakan, 7-muzlatgich.

Ushbu o'rnatish bo'yicha tajribalar quyidagicha amalga oshiriladi: stakanga (1) retsept bo'yicha cho'chqa yog'i, moy, emulgator, antioksidant, bo'yoqlar va boshqalar qo'shiladi.Tuz va shakarning suvli eritmalari stakanda tayyorlanadi (2).). Shishadan (2) asosiy mahsulotlar tayyorlangandan so'ng, suvli faza oynaga (1) kiradi va LATR (4) tomonidan boshqariladigan elektr dvigatel (3) yordamida aralashtiriladi. Stakandagi (1) harorat suv hammomi (5) yordamida o'rnatiladi, bu erda issiq suv nasos orqali aylanadi. Tayyor emulsiya shishaga (6) tushadi, u erda kristallanish uchun muzlatish kamerasiga (7) yuboriladi. Tayyor margarin keyingi fizik-kimyoviy tahlildan o'tkaziladi.

Margarin mahsulotlarini saqlash va tashish. Margarin mahsulotlari uzoq vaqt saqlanganda yoki tashishda buziladi. Oshpazlik, qandolatchilik va nonvoylikda ishlatiladigan yog‘lar margaringa qaraganda tez buzilmaydi. Lekin havo tarkibidagi kislorod bilan oksidlanishi mumkin, natijada perekisli birikmalar, erkin yog‘ kislotalar yig‘ilib qoladi. Margarin sifatining buzilish sababi shundaki suv - sut fazasi mog‘orlaydi va boshqa mikroorganizmlar bilan zararlanadi. Omborxonalarda havo namligi yuqori bo‘lganda , mog‘orlash jarayoni tez kechadi. Yaxshi tanlangan tomizg‘ida ivitilgan sutdan tayorlangan margarin uzoq saqlanadi. Bu ko‘rsatkichga mahsulot tayyorlash texnologik rejimlari , yog‘li asos tarkibi , qadoqlash idishlarini zichligi ta’sir qiladi. Margarin mahsulotlari begona hidni tez yutib oladi, shu tufayli ularni alohida , boshqa mahsulotlar bo‘lmagan xonada saqlash kerak. Margarin mahsulotlarini

saqlash harorati 0^0C da havoning namligi 80% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Omborxonadan jo‘natiladigan margarin mahsulotining harorati 10^0C dan ortiq bo‘lmasligi lozim [3].

Margarin konsistensiyasi nuqsonlari. Margarin yumshoq, qattiq, uqalanib ketadigan konsistensiyali bo‘lsa, bu margarin tarkibidagi yog‘ retsepturasi noto‘g‘ri tuzilganligi yoki yog‘ aralashmasining qattiqligi yuqori bo‘lganidan dalolat beradi. Sovutish rejimi noto‘g‘ri olib borilsa, margaringa ortiqcha mexanik ishlov berilsa kristallar juda maydalanib ketsa ham margarin konsistensiyasi buziladi. Loyqa tomchi hosil bo‘lishi ivitilmagan yoki yaxshi ivitilmagan sut ishlatilganligini ko‘rsatadi.Emulgator kam qo‘shilsa yoki sifati past bo‘lsa yirik sut tomchilari hosil bo‘ladi.

Margarinlarning oksidlanish barqarorligini o'rganish O'simlik moylari va yog'larning oksidlanish darajasini aniqlash va ularning oksidlanish barqarorligini o'rganish uchun ko'plab usullar taklif qilingan. Keng qo'llaniladigan usullardan biri tezlashtirilgan oksidlanish usulidir. Oksidlanish harorat, katalizator mavjudligi, kislorodning qisman bosimi kabi fizik va kimyoviy omillar ta'sirida tezlashadi. Haroratning oshishi bilan oksidlanish tezligi oshadi va bu omil oksidlanishni tezlashtirish uchun ishlatiladi .

Oziq-ovqat sanoatida to'yinmagan yog'li kislotalar va baliq yog'ini iste'mol qilish ortib borishi bilan lipidlarning oksidlanishi muammosi paydo bo'ladi. Lipidlarning oksidlanishi oziq-ovqat sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Oksidlanish jarayonini sekinlashtirish yoki to'xtatish iqtisodiy va boshqa foyda olish imkoniyatini beradi.

1-jadval

Oksidlanish jarayoni ingibitorlarining turlari

Retarder turi	Ta'sir qilish usuli	Misol
Antioksidantlar	reaksiyaga kirishadi erkin radikallar bilan	Tokoferollar, flavonoidlar, karotenoidlar , sterollar , taninlar
sinergistlar	Antioksidantlarni qayta tiklaydi	Tokoferollar, peptidlar, aminokislotalar
Inaktivator yagona kislorod	Singlet kislorodni faolsizlantiradi	Karotenoidlar , askorbin kislotasi
Xelatomer moddalar	Metalllarni bog'laydi faol bo'lmagan komplekslarga	Limon kislotasi, polifosfatlar

Margarin oksidlanish mahsulotlari shartli ravishda quyidagilarga bo'linadi:

birinchi guruh - triatsilgliseridlarning to'yinmagan yog'li kislotalarining parchalanishi va oksidlanish mahsulotlari;

ikkinchi guruh - yangi funktsional guruhlarda va izomerizatsiya mahsulotlarida farq qiluvchi teng uglerod tarkibidagi oksidlangan yog 'kislotalari;

uchinchi guruh - polimerizatsiya, kondensatsiya mahsulotlari va qo'shimcha ravishda kislorod o'z ichiga olgan funktsional guruhlar.

Umuman olganda, margarin triatsilgliseridlarining oksidlangan yog 'kislotalari issiqlikka chidamli va issiqlikka chidamli mahsulotlarga bo'linishi mumkin. Triatsilgliseridlarning parchalanishi uchun katalizator bo'lgan fermentativ lipaza kamida 85-90°C haroratda o'z faolligini yo'qotishini hisobga olgan holda, margarin ishlab chiqarishda ishlatiladigan ko'p

to'yinmagan o'simlik moylarini 95-dan yuqori haroratda issiq presslash orqali olish kerak. 100 °C.

Tayyor mahsulotdagi xavfsizlik darajasi. Margarin mikro analitik va mikrobiologik tekshiruvlar natijasida olingan oziq ovqat xavfsizlik mezonlari quyidagi 2 – jadvalda keltirilgan [4]

2-jadval

Ko’rsatkichlar	Ruhsat etilgan miqdor
Kislota soni	2,5°T
Perekis soni	10,0 mol aktiv kislorod/kg yog’li fazada
Toksik elementlar	
Simob Kadmiy Qo’rg’oshin Mishyak Mis Temir Nikel	0,03mg/kg 0,03 mg/kg 0,1 mg/kg 0,1 mg/kg 0,4 mg/kg 1,5 mg/kg 0,7 mg/kg
Mikrotoksinlar	
Aflotoksin M_1	0,0005 mg/kg
Antibiotiklar	
Levomitsitin va boshqalar	Ruhsat etilmaydi
Pestitsidlar	
Geksaxlortsiklogeksan DDT va uni metabolitlari	1,25 mg/kg 1,0 yog’ hisobida
Radionukleotidlar	
Tseziy-137 Stronsiy-90	100 bk/kg 80 bk/kg
Mikrobiologik ko’rsatkichlari	

KMAFAAN, KOE/g dan ko’p emas	Mahsulot tarkibidagi ruhsat etilmaydiganlar, gr			Zamburug’ KOE/g, dan ko’p emas	Mog’or KOE/g, dan ko’p emas
	BGKM (koliformasi)	S.areus	Patogenlar, salmonella		
1.10^5	0.01	0.1	25	100	100

XULOSA

Xom ashyoni tahlil qilish va ularning margarinning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini statistik usullar bilan o'lchash xatolari ko'rsatilgan. Jarayondagi sifat va miqdoriy o'zgarishlarni baholash uchun zarur bo'lgan xom ashyo, margarin va antioksidantlarning yog'li asoslarini tahlil qilish uchun tanlangan usullar.

Faol kislorod dastlab suyuq o'simlik moylari bilan, keyin esa qattiq yog'lar bilan o'zaro ta'sir qilishi aniqlandi. Shuning uchun antioksidant dastlab suyuq o'simlik moylarini, keyin esa qattiq yog'ni oksidlanishdan himoya qilishi kerak. Antioksidant sifatida quercetin margarinlaridan foydalanish to'yinmagan yog'li kislotalarning oksidlanish jarayonini sezilarli darajada inhibe qilishi mumkin. a-tokoferoldan foydalanish, shuningdek, margarinning oksidlanish darajasini pasaytiradi, ayniqsa ikkilamchi oksidlanish mahsulotlari hosil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. Султанович Y.A. Современнiе тенденsии развитиуа технологии спесиальнiх жиров и маргаринов / Y.A. Султанович, B.B. Мельников // Кондитерское и хлебопекарное производство. – 2011. – № 8. –C. 12–13.
2. J.P. Davis, D. Geller, W.H. Faircloth, T.H. Sanders Comparisons of biodiesel produced from unrefined oils of different peanut cultivars //Journal of the American Oil Chemists' Society / April 2009, Volume 86, Issue 4, pp 353361
3. Carrasco-Castilla J., Hernández-Álvarez A. J., Jiménez-Martínez C., Gutiérrez-López G. F., Dávila-Ortiz G. Use of proteomics and peptidomics methods in food bioactive peptide science and engineering. Food Engineering Reviews, -2012. –Vol.4. –pp.224–243.
4. Егоров S.A., Одинsова Т.И. Зashитнiе пептиді иммунета растений // Биоорганическаya химиY. -2012. -T.38. -No1. -C.7-17.

JOURNAL OF FOOD SCIENCE
VOLUME 1 ISSUE 1 MARCH 2023 ISSN: 2181-385X

UNLI QANDOLAT MAHSULOTLARIDA MIKROORGANIZMLARNING RIVOJLANISHINI O‘RGANISH

[1]Maxmudova D.X., [2]Agzamov X.K., [3]Miralimova A.I.

[1,2]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi kafedrasi dotsenti

[3]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada unli qandolat mahsulotlarini saqlashda kechadigan jarayonlar, tort va pirojniy mahsulotlari yuqori talabli mikrobiologik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, takomillashtirilgan texnologiyalardan foydalangan holda har bir aniq mahsulot turi uchun majburiy kompleks sanitariya-kimyoviy va sanitariya-mikrobiologik talablariga muvofiq sinovlar asosida o‘tkazilgan.*

Kalit so‘zlar: *mikroorganizmlar, gigiyenik baholash, kompleks, sanitariya-kimyoviy, sanitariya-mikrobiologik, essensiya, ifloslangan xomashyolar.*

Abstract. *In this article, the processes in the storage of flour confectionery products, cake and pastry products have high-demand microbiological indicators, and tests were conducted in accordance with the mandatory complex sanitary-chemical and sanitary-microbiological requirements for each specific product type using improved technologies.*

Keywords: *microorganisms, hygienic assessment, complex, sanitary-chemical, sanitary-microbiological, essence, contaminated raw materials.*

KIRISH.

Hozirgi kunda insonlar tomonidan tobora ko‘p iste’mol qilib kelinayotgan yuqori ozuqaviy qiymatga ega unli qandolat mahsulotlardan tort va pirojniylar hisoblanadi. Qandolat mahsulotlari xususan tort va pirojniylar ishlab chiqarishda qand, sariyog‘, sut, qaymoq, kakao, yong‘oq mag‘izlari, un, essensiya va boshqalar keng qo‘llaniladi. Ularning barchasi qandolat mahsulotlarining turli mikroorganizmlar bilan zararlanishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tortlarning qaymoqli kremlar bilan qatlamlanishi va bezatilishi natijasida ular mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun yaxshi muhit yaratadi.

1-jadval

Tortlarning ozuqaviy qiymati

Qandolat mahsulotlarining nomlanishi	Ozuqaviy qiymat			
	Oqsillar, g	Yog‘lar, g	Uglevodlar, g	Kalloriyasi
«Asalli» torti	4,1	25,0	50,9	445
«Parvoz» torti	4,7	16,3	49,7	357
"Napaleon" torti	6,4 g	42,2	38,7	552

Natijada, qaymoqli kremlar bilan qatlamlangan va bezatilgan unli qandolat mahsulotlari ayniqsa tez buziladigan mahsulotlar guruhiga kiradi, ya’ni ular qisqa saqlash muddatiga ega va maxsus saqlash sharoitlarini talab qiladi. Qisqa saqlash muddatga ega bo‘lgan sut asosli xomashyolardan tayyorlangan qandolat mahsulotlari doimo ko‘plab mikroorganizmlarni rivoji uchun yaxshi muhit bo‘lib, hatto xamir tarkibiga qo‘shib ishlatilganda 250^0C haroratda ham pishirilgan mahsulotlarda ko‘plab bakterial sporalar yashovchan holatda qoladi. Bu holda sut, qaymoq, smetana, sariyog‘ kabi xomashyolardan issiqlik bilan ishlov berilmagan tayyor mahsulotlarning bir qismi bo‘lgan bezash uchun yarimfabrikatlarni qo‘llashda, ularning tarkibida

juda ko‘p turli xil mikroorganizmlar bo‘lishi mumkin: sut kislotasi, turli bakteriyalar spora va tayoqchalari.

Tortlarni saqlash uchun harorat sharoitlarini o‘zgarishi mikroblarning tez o‘sishi va ko‘payishiga olib keladi. Shu sababli, tortlarni, ayniqsa, yozning issiq kunlarida ehtiyotkorlik bilan iste’mol qilish kerak. Ushbu mahsulotlar turli xil bakteriyalar, shu jumladan patogenlar uchun ajoyib ko‘payish muhitidir. Buning sababi shundaki, ular tarkibida oqsillar va namlikning yuqori nisbati mavjudligidadir.

Yuqoridagilarni inobatga olib O‘zbekiston iqlim sharoitida ushbu ko‘rsatkichlarni tahlili va nazorati dolzarb ahamiyatga egadir. Atrof-muhit yetarlicha iliq bo‘lsa, bakteriyalar tez ko‘payishi mumkin. Shu sababdan tadqiqotlarimizda ekspertiza uchun qaymoqdan tayyorlangan 3 xil unli qandolat mahsuloti: 1- "Napaleon" torti, 2- «Asalli» torti, 3-«Parvoz» torti tanlab olindi. Tahlillar uchun olingan 3 ta namunadan 1 tasida saqlash davrida mikroorganizmlarning rivojlanishi xususan mohor zamburug‘lari o‘chog‘i aniqlandi. Napoleon tortida ichak tayoqchalari guruhining bakteriyalari hamda mikroorganizmlarning umumiy soni 4 baravar ortgani, asalli tortda mikroorganizmlar soni 1,2 martaga oshgani, “Parvoz” tortida esa ichak tayoqchalari guruhi bakteriyalari aniqlandi.

Ko‘pincha mikroorganizmlarning umumiy sonining ko‘payishi saqlash va tashishning harorat rejimlarining buzilishini ko‘rsatadi. Ro‘yxatda keltirilgan barcha tortlar yozning eng issiq oyi bo‘lgan iyul oyida tayyorlanadi. Toshkent shahridan har xil viloyatlariga tortlarni jo‘natilganda ancha masofa uzoqligi qandolat mahsulotlarini xavf ostida qolishini keltirib chiqaradi. Shuning uchun bu tortlarning masallig‘i qaymoqdan tayyorlanganligi uchun saqlash muddati 120 soat bo‘lib, saqlash va tashish sharoitlari buzilgan taqdirda mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun muhit yaratadi. Biroq, masallig‘i qaymoqdan tayyorlangan unli qandolat mahsulotlarini saqlash va tashish sharoitlari haroratning buzilishi uchun yagona xavf emas.

Yuqorida tahlil qilingan “Napoleon”, “Asalli” va “Parvoz” tortlarida ichak tayoqchasi guruhiga mansub bakteriyalar bo‘lgan, ular tabiatan “toza” bo‘lgan mahsulotlarni tekshirishda masalan, bu mikroorganizmlar tayyor mahsulotga tashqaridan kiradi, ehtimol qandolatchilarning iflos qo‘llaridan, tegishli sanitariya qoidalariga rioya qilinmaganda, dezinfeksiyadan o‘tmagan texnologik asbob-uskunalar, texnologiyaga muvofiq yoki umuman issiqlik bilan ishlov berilmaydigan ifloslangan xomashyolar sabab bo‘ladi. Bu omillar ham tayyor mahsulotdagi mikroorganizmlarning umumiy sonining ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

“Asalli”, "Napoleon" va "Parvoz" tortlarini ishlab chiqaruvchilar mahsulotning mikrobiologik barqarorligini saqlab qolish istagida hatto iste’molchining aldoviga ham borishdi. Bunda ular yorliqda qo‘lanilayotgan xomashyolar ro‘yxatini to‘liq ko‘rsatmaydilar, masalan, konservant - kaliy sorbat kabi qo‘shimchalar. Qandolat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatining asosiy farqlari shundaki, ularning kaloriya miqdori asosan shakar va yog‘ bilan belgilanadi. Shu sababli, boy qandolat mahsulotlaridan foydalanish, ayniqsa, kam energiya iste’mol qiladigan odamlar uchun imkon qadar cheklangan bo‘lishi kerak. Ba’zi ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlariga bir qator oziq-ovqat qo‘shimchalarini qo‘shib, deyarli har bir iste’molchiga tanish bo‘lgan guruh nomini ko‘rsatmadilar va ba’zan ularni ma’lum bir nomni (masalan, konservantlar, stabilizatorlar va boshqalar) sotib olishdan bosh tortadilar.

Tadqiqotlarimizda olingan namunalarning saqlash davrida ozuqaviy qiymatini o‘zgarishini ham tahlil qildik.

2-jadval

Tortlarning ozuqaviy qiymatini tekshirish natijalari

Qandolat mahsulotlarining nomlanishi	Ozuqaviy qiymat			
	Oqsillar	Yog‘lar	Uglevodlar	Kalloriyasi
«Asalli» torti	+44,4%	+25,3%	+28%	+30,9%
«Parvoz» torti	+35,0%	-31,3%	-17,0%	-19,4%
"Napaleon" torti	+50,2%	+40,3%	-35,3%	-19,4%

Bunday mahsulotlar yuqori talabli mikrobiologik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, takomillashtirilgan texnologiyalardan foydalangan holda har bir aniq mahsulot turi uchun majburiy kompleks sanitariya-kimyoviy va sanitariya-mikrobiologik talablariga muvofiq sinovlar asosida va yangi turdagi yog‘lar, qo‘shimchalar va boshqalardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yaroqlilik muddati MUK 4.2.2.727-99 "Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash muddatini gigiyenik baholash" belgilangan holda ishlab chiqariladi.

3-jadval

Kremli tayyor mahsulotlar mikrobiologik tahlili

Nomlanishi	KMAFAnM, KOYE/g, ko‘p emas	Mahsulot og‘irligi (g), ruxsat etilmagan			Achitqi, KOYE/g, ko‘p emas	Mog‘or, KOYE/g, ko‘p emas	Izoh
		BGKP (koli shakl)	S.aureus	patogen, shuningdek salmonella			
1	2	3	4	5	6	7	8
«Asalli» torti	$1x10^4$	0,01	0,01	25	100*	50*	*qaymoq va smetanali krem qo‘llanil ganda KOYE/g
«Parvoz» torti	$1x10^4$	0,01	0,1	25	50	100	
«Napaleon» torti	$1x10^4$	0,01	1,0	25	50	100	

2-jadvalda an’anaviy texnologiyalar bo‘yicha tayyorlangan va SanPiN 42-123-4117-86 "Tez buziladigan mahsulotlarni saqlash shartlari va muddatlari"ga muvofiq kremli qandolat mahsulotlari uchun mikrobiologik standartlariga solishtirilgan tadqiqot natijalari aks ettirilgan. Ushbu mahsulotlarda saqlash sharoiti 2 dan 6 °C gacha harorat bo‘lganda saqlash muddati 6 dan 72 soatgachani tashkil etadi. Ushbu standartlar SanPiN 2.3.2.560-96 "Oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligiga gigiyenik talablar" ga mos keladi.



“Napoleon” torti



“Asalli” tort



“Parvoz” torti

1-rasm. Saqlanish sharoitda mahsulotlarning patogen mikroorganizmlarning rivojlanganligi

1-rasmda sanitariya-kimyoviy va sanitariya-mikrobiologik talablariga muvofiq saqlanmaganda tayyor mahsulotlarda kuzatilgan buzilishlar aks ettirilgan.

Albatta ishlab chiqarish jarayonida korxornalarda ushbu talabalarga muvofiq mahsulotlar tayyorlanadi. Lekin iste’molchiga sifatli xavfsiz mahsulot yetkazib berishda savdo tashkilotlari ham sovutgichlarda mahsulotni saqlash haroratiga e’tibor berishlari zarur. Yorliqda boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, harorat +60C dan oshmasligi kerak. Qandolat mahsulotlari yonida saqlanadigan mahsulotlarga, yaqin atrofda o‘tkir o‘ziga xos hidga ega bo‘lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari (kimyoviy moddalari va boshqalar) bo‘lmasligi kerak.

Xulosa qilib aytish kerakki, “Parvoz” torti, konservantlarsiz (sorbin va benzoik kislotalar, shuningdek ularning tuzlari), qaymoqli qoplamasiz, oqsil bilan ko‘pirtirilgan, masalan, sufle, qaymoqli, meva va rezavorlar bilan bezak berilgan bo‘lsa, 72 soatdan ko‘p bo‘lmagan muddatda saqlanishi mumkin, “Asalli” torti - 36 soatdan ko‘p bo‘lmagan, ko‘pirtirilgan qaymoq, “Napoleon” torti - 18 soatdan ortiq emas sharoitda saqlanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. Djaxongirova G.Z., Maxmudova D.X., Usmonxodjayeva F.X. Primeneniye netraditsionnogo sirya v texnologii muchnix konditerskix izdeliy, «Universum: texnicheskiye nauki» № 7 (64). Moskva, iyul, 2019.
2. Djaxangirova G.Z., Maxmudova D.X., Koshkarbayeva G.R. Sposobi predotvrasheniya mikrobiologicheskoy porchi muchnix konditerskix izdeliy. Mejdunarodniy simpozium. “Innovatsii v agropromishlennoy otrasli Uzbekistana i integratsiya tendensiy pererabotki selskoxozyaystvennogo sirya v stranax Sentralnoy Azii i Kazaxstana” 29 noyabr- 5 dekabr, 2021 g., Tashkent, Uzbekistan.

ИССЛЕДОВАНИЕ МАСЛИЧНОГО СИРЯ МЕСТНОГО ПРОИСХОЖДЕНИЯ ДЛЯ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРАВИЛЬНОЙ ПИТАНИИ

[1]Акрамова Раъно Рамизитдиновна, [2]Комилова Шахло Абдунабиевна, [3]Вячеслав Владиславович Ли, [4]Аннахасанова Дилнавоз Раджабовна

[1]ПхД, и.о.проф. кафедри Технологии пишевих продуктов, Ташкентского химико-технологического института, Республика Узбекистан, г. Ташкент, Э-маил: раноакр123@гмаил.com

[2]ст.пред. кафедри «Узбекский язик и профессиональное образование» Ташкентского химико-технологического института, Республика Узбекистан, г. Ташкент

[3]Ассистент кафедри Технологии пишевих продуктов, Ташкентского химико-технологического института, Республика Узбекистан, г. Ташкент

[4]Магистрантка кафедри Технологии пишевих продуктов, Ташкентского химико-технологического института, Республика Узбекистан, г. Ташкент

Аннотация. *Целю данной работи является получение прессового из двух образсов льняного масла местного происхождения, получили масло сирое путём масло-пресса АКЖП-500. Качество полученного сирого масло била изучена и провели с помошю ГХ хроматографии на основании високоточного оборудования - "Агилент 6890 Н" по изучению состава сирого масла.*

Ключевие слова: *сирое льняное масло двух образсов, масло-пресс, ГХ, Агилент 6890 Н, жирние кислоти, кислотное число, ёдное число.*

Abstract. *The purpose of this work is to obtain a press from two samples of linseed oil of local origin, crude oil was obtained by using an AKJP-500 oil press. The quality of the obtained crude oil was studied and carried out using GC chromatography based on high-precision equipment - "Agilent 6890 N" for studying the composition of crude oil.*

Keywords: *crude linseed oil of two samples, oil press, GC, Agilent 6890 N, fatty acids, acid number, iodine number.*

ВВЕДЕНИЕ.

Постепенно интерес на здоровое питание растёт и развивается с разрабативаемими качественних продуктов на основе натурального продукта. Нетрадисионное растительное льняное масло представляет собой богато жирними кислотами и сенними витаминами. Его можно рекомендоват как диетический, так и профильактический пишевой продуктом. В семенах льна содержатся жири, микроволокна, клейковина, протеини, лигнин и др. Состав масличной культури может меняться в зависимости от климата среди вирашивания, в том числе и семена, и масло обладают бактерисидним действием. Поэтому льняное масло широко применяют, как и в пишевой и легкой промишленности, так и в медисине. Основной проблемой качества льняного масла является повишенная стабильност к окислениЙ. На устойчивост к окислению оказивают влияние токофероли - витамин Е.

Из литературних источников известно, что срок хранения льняного масла составляет более 6 месятсев [5], но другими ученими бил получен следуюший результат

исследований: срок хранения не должен превишат 2 месятсев, и рекомендовалос использоват холодное помешение [6].

Также установлено, что требуется постоянний контрол за пестисидами, микотокцинами. Поэтому рекомендуется обеспечит жесткий контрол по безопасности употребления льняного масла как пишевого продукта, а также соблюдение срока хранения [7].

При изучении состава компонентов исследуемой культури установлено, что масло из семени льна является лидером по содержанию ω-3 и занимает ведушее место по биологической сенности по сравнению с маслами из других культур [8]. Поэтому применение льняного масла как висококачественного продукта может создават предпосилки для производства нових функциональних продуктов питания с необходимими для человека жирними кислотами.

Для исследования вибрано льняное масло, а также представлен литературний анализ данних по компонентам жирних кислот исследуемого масла.

Методом холодного отжима на лабораторном установке из льняного семени получено масло при следуюших условиях: шнековий пресс -АКЖП-500, напряжение - 220в, мошност - 610w, частота - 5Ҳз, емкост - 3-6кг, размери - 42*16*30см.

Результати исследовании, проведенние по определению качество полученного нетрадисионного масла представлени в таблисе-1.

Таблиса 1.

Технологические показатели и показатели качества льняного масла

Наименование	Образси	
	№-1 (лён-кудряш)	№-2 (лён-долгунес)
Запах и вкус	Свойственние льняному маслу	Свойственние льняному маслу
Виход масла, %	34	39
Плотност жмиха, г/см^3	0,830	0,932
Кислотное число, мг КОН/г	1,58	1,60
Ёдное число, гЖ$_2$/100	175	173
Перекисное число, ммол активного кислорода /кг	0,68	1,08
Массовая доля золи%	0,12	0,13

Для идентификасии исследуемого образса масла применялся метод ГХ хроматографии на основании ГОСТ 31665-2012 «Масла растительние и жири животние. Получение метилових эфиров жирних кислот» с использованием високоточного оборудования: “Агилент 6890 Н” с пламенно ионизасионним детектором, используя капиллярную колонку 30 м х 0.32 мм с неподвижной фазой ҲП - 5, газ-носител - гелий, температура программирования 150 - 270°C.

Результати анализа пика представлени в табл.1.

Sample Name : smp of leenseed oil
Sample ID :
Data Filename : smp of leenseed oil.gcd
Method Filename : GOST 31754.gcm
Batch Filename :
Vial # : 1
Injection Volume : 1 uL
Date Acquired : 11.03.2023 17:32:36
Date Processed : 11.03.2023 18:05:38
Sample Type : Unknown
Acquired by : System Administrator
Processed by : System Administrator

<Chromatogram>



Результати исследований компонентного состава двух образсов льняного масла представлени в табл. 2.

Далее привели примери состава жирних кислот двух масличних культур

Таблиса 2.

Состав жирних кислот масел семян двух видов льняного масла, ГХ, % от масси кислот

Жирная кислота	Образси	
	№-1 (лён-кудряш)	№-2 (лён-долгунес)
Пальмитиновая	5,38	3,49
Стеариновая	3,74	2,93
Олеиновая	19,49	15,69
Линолевая	15,67	14,63
Линоленовая	55,72	45,81

В льняном масле идентифисирован состав жирних кислот и установлено при сопоставлении данних из литературних источников с полученними результатами установлено, что все идентифисированние компоненти в масле имеют повишенное содержание жирних кислот. Поэтому исследуемий образеси можно рекомендоват для профильактического питания больних, у которих наблюдается нарушение жирового обмена и которим рекомендуется принимат жири с увеличенним количеством линолевой кислоти [13].

Анализ полученних результатов позволил идентифисироват насишенние и ненасишенние кислоти в образсе, обнаружит низкое содержание линоленовой кислоти. Наличие кислот, которие содержат болшое количество ω-3 и незаменимой ω-6, позволяет говорит о возможности использования масла для профильактики и в диетотерапии при лечении больних сахарном диабетом второго типа, при устранении риска сердечнососудистих заболеваний, укреплении стенок сосудов, при профильактике образования опухолей.

Многие исследователи утверждали, что насишенние жирние кислоти вредни для здоровя человека, но научние открития опровергли данний факт и установлено, что в расиональном количестве данние кислоти благоприятно влияют на состояние кожи и

терморегулятсию организма. В образсе также били виявлени ненасишенние жирние кислоти, такие как линолевая и олеиновай.

Они имеют високую биологическую доступност и являются самими сенними, так как поддерживают нормальное функционирование нервной и иммунной систем. Следовательно, приведенние данние по количеству жирних кислот в исследуемом масле создают предпосилки для производства нових пишевих продуктов со сбалансированним составом и високим качеством.

Согласно по ГОСТу 30417-96 «Масла растиельние. Методи определения массових долей витаминов А и Е» проведени исследования витаминного состава льняного масла [14].

По литературним данним било много опубликованних научние статьи об уникальном витаминном составе льняного масла. В состав льняного масла входят витамини В1, В2, В4, В6, В9, Е, К и α-, β+γ-, δ-токоферолы. Витамини группи В стимулируют работу нервной системи, иммунитет, участвуют в обменних просессах, являются антидепрессантами. Особое место в сохранении здоровя человека занимают токоферолы, так как они зашишают клетки организма, участвуют в регенерасии тканей, являются сильними антиоксидантами.

Витамин Е способствует нормализасии гормонального фона, а витамин К необходим для образования белков в организме человека. На основании этого можно рекомендоват льняное масло не только для про филактического питания, но и для лечения некоторих заболеваний.

В питании очен важно употреблят нетрадисионние растительние жири, так как они являются уникальним источником незаменимих жирних кислот и витаминов. Обнаруженние в льняном масле насишенние жирние кислоти (пальмитиновая, стеариновая), ненасишенние жирние кислоти (олеиновая т линолевая), витамини (В1, В2, В4, В6, В9, Е, К) и токоферолы (α, β+γ, δ) свидетельствуют о том, что льняное масло можно использоват в качестве составляюшей диетического, лечебного и профильактического питания в медисине, в кулинарии, в косметологии, употреблят вместо витаминних комплексов.

В настояшее время, основной стратегической задачей масложировой отрасли является увеличение производства растительних масел с учетом региональних особенностей и внедрения современних агротехнологий с селю оптимальной загрузки производственних мошностей маслоперерабативаюших заводов. Это позволит в ближайшие пят лет увеличит валовий сбор масличних в республике до 24 млн. тонн. Улучшение качества, как сирьевой бази, так и растительного масла, установление справедливих сен, пропаганда здорового образа жизни (отказ от масел животного происхождения), позволит отечественним производителям завоевиват болшую долю ринка на мировом уровне.

Из вишеуказанних можно будет придти к виводу, получение масла из масличних культур, полностю совпадает с качеством требуемого по ГОСТу.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРІ / REFERENCES

1. Kiralan, M. Monitoring stability and volatile oxidation compounds of cold-pressed flax seed, grape seed and black cumin seed oils upon photo-oxidation / M. Kiralan, G. Calik, S.

Kiralan, M.F. Ramadan // Journal of Food Measurement and Characterization. - 2018. - Vol. 12 (1). – P. 616–621.
2. Ладігин, В.В. К вопросу об окислительной стабильности пишевого льнуаного масла // Научное обеспечение инновасионніх технологий производства и хранениуа сельскохозуайственной и пишевой продуксии: сборник трудов. - 2014. - С. 150-152.
3. Yang, R. A review of chemical composition and nutritional properties of minor vegetable oils in China / R. Yang, L. Zhang, P. Li [et al.] // Trends in Food Science & Technology. - 2018. - Vol. 74. – P. 26–32.
4. А.Н. Остриков, Н.Л. Клейменова, И.Н. Болгова, М.В. Копілов, Е.Y. Желтоухова // Исследование жирнокислотного и витаминного состава льнуаного масла холодного отжима. - Пишевауа промішленност 8/2020.-С. 52-55.
5. Tanska, M. Comparison of the effect of sinapic and ferulic acids derivatives (4-vinylsyringol vs. 4-vinylguaiacol) as antioxidants of rapeseed, flaxseed, and extra virgin olive oils / M. Tanska, N. Mikolajczak, I. Konopka // Food Chemistry. – 2018. - Vol. 240. – P. 679–685.
6. Бікова, С.Ф. Перспективі развитиуа сірьевой базі масложирового комплекса России / С.Ф. Бікова, Е.К. Давиденко, С.Г. Ефименко, С.К. Ефименко // Пишевауа промішленность. – 2017. – Т. 5. – С. 20–24.
7. Adel, G. Abdel-Razek. Enhancement the Stability, Quality and Functional Properties of Rapeseed Oil by Mixing with Non-conventional Oils / Adel G. Abdel-Razek, M.M. Minar Hassanein, Magdalena Rudzińska [et al.] // American Journal of Food Technology. - 2017. Vol. 11 (5). – P. 228–233.
8. Пилипенко, Т.В. Изучение качественніх характеристик растительніх масел различніми методами / Т.В. Пилипенко, В.В. Астафьева, Н.Y. Степанова // Известиуа Санкт-Петербургского государственного аграрного университета. - 2015. - Т. 39. - С. 90-96.
9. Воловик, В.Т. Сравнение жирнокислотного состава различніх пишевіх масел. / В.Т. Воловик, Т.В. Леонидова, Л.М. Коровина [и др.] // Международній журнал прикладніх и фундаментальніх исследований. - 2019. – Т. 5. – С. 147–152.
10. Sun, X. Fatty acid profiles-based adulteration detection for flaxseed oil by gas chromatography mass spectrometry / X. Sun, L. Zhang, P. Li [et al.] // LWT – Food Science and Technology. – 2015. – Vol. 63 (1). – P. 430–436.

O‘SIMLIK MOYLARINI SAMARALI RAFINATSIYALASH JARAYONINI TADQIQ QILISH

[1]Ruziboyev Akbarali Tursunboyevich, [2]Abduraximov Axror Anvaryovich, [3]Achilova Sanobar Sabirovna, [4]Jabborov Alisher Oltiboyevich, [5]Kurbanova Fazilat Alisherovna, [6]Otanazarova Dildora Oybek qizi

[1,2]Toshkent kimyo texnologiya instituti, professor
[3]Urgench davlat universiteti, dotsent
[4]Toshkent kimyo texnologiya instituti, katta o‘qituvchi
[5,6]Toshkent kimyo texnologiya instituti, magistratura talabasi

Annotatsiya. *Paxta moyinining sifat ko‘rsatkichlariga turli xil regantlarning ta’siri tadqiq qilingan va maqbul reagentlar tanlangan. Paxta moylarini ishqoriy rafinatsiyalashda an’anaviy kaustik sodaning bir qismining o‘rniga natriy silikatning suvli eritmasidan foydalanish moyning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashi aniqlangan. Paxta moyini an’anaviy kaustik soda va natriy silikatning suvli eritmalari bilan bosqichli rafinatsiyalash texnologiyasi ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Rafinatsiya, kislota soni, ishqor, natriy silikat, soapstok, sifat, samara, chiqindi, yo‘qotish, paxta moyi, kalsiy gidroksid, kaustik soda.*

Abstract. *The effect of various reagents on the quality parameters of cottonseed oil was investigated and the optimal reagents were selected. In the alkaline refining of cottonseed oil, the use of an aqueous solution of sodium silicate instead of a portion of the traditional caustic soda has been found to improve the quality of the oil. The technology of step-by-step refining of cottonseed oil with aqueous solutions of traditional caustic soda and sodium silicate has been developed.*

Keywords: *Refining, acid number, alkali, sodium silicate, soapstock, quality, efficiency, waste, loss, cottonseed oil, calcium hydroxide, caustic soda.*

Аннотация. *Исследовано влияние различних реагентов на показатели качества хлопкового масла и подобрани оптимальние реагенти. Установлено, что при шелочной рафинасии хлопкового масла использование водного раствора силиката натрия вместо порсии традисионной каустической соди улучшает качество масла. Разработана технология ступенчатой рафинасии хлопкового масла водними растворами традисионной едкого натра и силиката натрий.*

Ключевие слова: *Рафинирование, кислотное число, шелочь, силикат натрия, соапсток, качество, эффективность, отход, потери, хлопковое масло, гидроксид калсия, едкий натр.*

KIRISH

O‘simlik moylarini rafinasiyalash (tozalash) jarayoni moy tarkibidagi yo‘ldosh moddalar, mexanik qo‘shimchalar va moy tarkibida bo‘lishi tavsiya qilinmaydigan boshqa moddalarni chiqarib yuborishni o‘z ichiga oladi[1].

Moylarning yo‘ldosh moddalari tarkibiga fosfatidlar, yog‘ kislotalari, pigmentlar, turli sovunlanmaydigan moddalar va o‘simlikning o‘sish davrida hamda moyli urug‘ yetilish davrida sintezlanadigan ba’zi moddalar kiradi [3]. Qayta ishlash jarayonlarida texnologik parametrlar (harorat, namlik, bosim va b.) bu moddalarning ko‘pchiligi o‘z xususiyatlarini o‘zgartirib nafaqat

moy sifatiga ta’sir qiladi, balki ulardan ikkilamchi mahsulot sifatida samarali foydalanish imkonini ham kamaytiradi.

Rafinasiya jarayonining oldiga qo‘yiladigan muhim muammolardan biri bu, moyni keraksiz moddalardan tozalash bilan birga ajratib olinadigan ikkilamchi mahsulotlarni tabiiyligini saqlab qolish va ikkilamchi mahsulot sifatida samarali foydalanishdan iborat. Rafinasiyaning to‘liq sikli o‘z ichiga quyidagilarni oladi: fosfatidlarni chikarib yuborish; mumsimon moddalardan tozalash; erkin yog‘ kislotalarini ajratish; rang va hid beruvchi moddalardan tozalash [2].

Ilyasov A.T. va b. tomonidan rafinasiyalangan moy chiqishi va sifatini oshirish maqsadida monoetanolamin bilan forrafinasiya qilish usuli ishlab chiqilgan [4-6]. Bu usulga ko‘ra qora moyga 0,5-1,0% miqdorida monoetanolamin qo‘shiladi va moyning kislota soni 3,2 martagacha kamaytirilishiga erishiladi.

Mualliflar tomonidan qora paxta moyini karbamid eritmasi bilan forrafinasiya qilish ustida ham ishlar olib borilgan [7]. Aniqlanishicha 10-20% konsentrasiyali karbamid eritmasi bilan qora moy massasiga nisbatan 0,5-1,0% miqdorda 45-55°S haroratda 30 min ishlov berilganda rafinasiyalangan moyni chiqishi va sifati oshadi.

O‘simlik moylarini rafinasiya qilishni jadallashtiruvchi, rafinasiyalangan moyni sifatini yaxshilovchi turli usullar ustida ko‘plab izlanishlar olib borilgan.

Mualliflar [8] paxta moyini rafinasiyalashda karbamidni qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib bordilar. Bunda optimal konsentrasiya 30%, kristall holidagi karbamid sarfi 0,4% ekanligi aniqlandi.

Ilyayev I. va Mechenov G. [9] ekstraksiya qilingan paxta moyini rafinasiya qilish jarayonini o‘rganishgan. Moyni emulsion ishqoriy rafinasiya qilingan. Rafinasiya samaradorligiga erishish uchun 400 g/l konsentrasiyali ishqorni nazariy ishqor sarfidan 300% ortiqcha miqdor bilan rafinasiya qilinadi. Moyni sifati oshib yo‘qotishlari kamayadi.

Paxta moyini ishqoriy neytrallash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari [10] juda tanqis va qimmat natriy gidroksidni natriy alyuminatning eritmasi bilan almashtirish samarali ekanligini ko‘rsatdi. Natriy gidroksidning bir qismini natriy alyuminat bilan almashtirish va yuqori sifatli mahsulot olish maqsadida xom paxta moyini natriy alyuminat va natriy ishqori eritmalari bilan bosqichma-bosqich uzluksiz rafinasiyalash olib borildi. Bunda ishqoriy neytrallashning birinchi bosqichida kislota soni va moydagi hamrox moddalarning miqdori ma’lum miqdorda kamayishi aniqlangan, so‘ngra olingan oraliq mahsulot natriy gidroksid bilan tugal rafinasiya qilingan.

Majidov K.X. va b. [11] tomonidan natriy gidroksid va Na alyuminatning ishqorli eritmasidan foydalanib, ikki bosqichli rafinasiyalash texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bunda asosan yuqori kislota soniga ega bo‘lgan moylar olinadi. Birinchi bosqich rafinasiyalash Na alyuminatning ishqorli eritmasi bilan olib boriladi. Bu asosan aniqlangan kislota soniga ega bo‘lgan, neytrallanayotgan qora yog‘ni kislota soni va rangini pasaytirish uchun kerak bo‘ladi. Dastlabki qora yog‘ni (paxta moyi) kislota soni (4,1-14,0 mg KON dan 2,1-8,7 mg KON gacha) rangini esa (21-39 qizil birlikdan 13-27 qizil birlikkacha) tushirib beradi.

TADQIQOT OBEKTI VA USULLARI

Yog‘ va moylarning kislota soni spirtli efir usulida, yog‘larning erish va yog‘ kislotalarining qotish harorati ma’lum usul[12]da, yog‘ va moylarning rangi Lovibond rang o‘lchash asbobi yordamida aniqlandi[12]. Moylarning yog‘ kislotalari tarkibi, ularning metil

efirlarini gaz-suyuqlik xromotografiyalash usuli bilan aniqlandi[12]. Yog‘ kislotalarning metil efirlari [12]da bayon etilgan usulda olindi.

NATIJA VA ULARNING MUHOKAMASI

Ma’lumki, och rangli o‘simlik moylarini ishqorli tozalash uchun kaustik soda o‘rniga faolligi jihatidan gidroksid natriydan past bo‘lgan silikat natriy yoki kalsiy gidroksid qo‘llaniladi. Ammo, ular tanlab ta’sir qilish bo‘yicha gidroksid natriydan ko‘ra ustunroqdir, bu esa ularni press va ekstraksiya paxta moyini ishqorli tozalashda qo‘llashga asos bo‘ladi.

Biz tomonimizdan yuqorida qayd qilingan ishqorli reagentlar qo‘llanilgan holda mazkur

turdagi paxta moylarining taqqoslanayotgan sharoitlarda, aynan, teng konsentrasiyalarda va ortiqcha ishqorda, 50-55 ^{0}S haroratda va moy aralashmasining ishqor bilan100 ayl/daq. Sharoitida aralashtirilishida tozalanishi o‘rganildi. Paxta moyini ishqorli tozalash jarayonining asosiy sifat va miqdoriy ko‘rsatikichlari tahlil qilindi(1 va 2 jadvallar).

1 - jadvaldan ko‘rinib turibdiki, press paxta moyini tozalash vaqtida o‘rganilgan ishqorli reagentlar moyning tanlangan ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga turli faollikni namoyon qilishadi.

1-jadval

Presslangan paxta moyining kaustik soda, natriy silikat va kalsiy gidroksid eritmalari yordamida tozalash jarayonida sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Boshlang‘ich press moyi	Ishqoriy reagent bilan qayta ishlangan moy (150 g/l konsentrasiya va 0,5% ortiqcha miqdor)		
			Kaustik soda	Natriy silikat	Kalsiy gidroksid
Kislota soni	mg KON/g	4.15	0.21	0.28	0.41
Peroksid soni	mmol/kg	16.2	7.8	8.9	10.5
35 sariq birlikdagi rangi	Qiz. bir	50,6	10,8	19,4	17,1
	Ko‘k bir.	2,6	0,1	0,3	0,2
Tozalangan moyning chiqishi	%	-	0.1	0.3	0.2

Xususan, moyning kislota va peroksid sonlarining kamayishiga eng katta ta’sirni kaustik soda, keyin natriy silikati va oxirida kalsiy gidroksid ko‘rsatadi. Moyning rangdorligiga – kaustik soda, kalsiy gidroksidi va oxirida natriy silikati ta’sir ko‘rsatadi. Bunda tozalangan moyning eng ko‘p chiqishi birinchi navbatda kalsiy gidroksidi, keyin natriy silikati va kaustik soda ishlatilganda erishiladi. Albatta, press paxta moyini tozalashda kalsiy gidroksidining qo‘llanilishi kislota sonining standart talablarigacha kamayishini ta’minlamaydi.

2-jadval

Ekstraksiyalangan paxta moyining kaustik soda, natriy silikat va kalsiy gidroksid eritmalari yordamida tozalash jarayonida sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Boshlang‘ich press moyi	Ishqoriy reagent bilan qayta ishlangan moy (150 g/l konsentrasiya va 0,5% ortiqcha miqdor)		
			Kaustik soda	Natriy silikat	Kolsiy gidroksid

Kislota soni	mg KON/g	7,22	0,25	0,3	0,47
Peroksid soni	mmol/kg	20,2	9,6	11,4	12,9
35 sariq birlikdagi rangi	Qiz. bir	70,6	12,0	25,0	20,0
	Ko‘k bir.	4,8	0,2	0,8	0,4
Tozalangan moyning chiqishi	%	-	86,8	89,9	90,3

2 - jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ishqorli reagent sifatida kaustik soda va natriy silikatining qo‘llanilishi standart talablariga muvofiq bo‘lgan moyni olishga imkon beradi. Kalsiy gidroksidi qo‘llanilganda tozalangan ekstraksiya paxta moyining kislota soni standart talablaridan ortib ketadi, bu esa uni alohida ishlatishga yo‘l qo‘ymaydi. Natriy silikati moyning kislota sonini standart talablarigacha kamaytirsada, biroq tozalangan moyning rangdorligi yuqoriligicha qoladi va bu, uni kamaytirish bo‘yicha qo‘shimcha usullarni bajarishni talab qiladi.

Shunday qilib, press va ekstraksiya paxta moylarini ishqorli tozalash

uchun yuqori tanlovli natriy silikati(NaOH o‘rniga) yoki an’anaviy kaustik sodani natriy silikati bilan birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda ularning suvli eritmalar ko‘rinishidagi konsentrasiyasi va ortiqchasi kislota soni va tozalanayotgan rafinasiyalanmagan paxta moyining rangidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Taklif etilayotgan, birinchi bosqichida kaustik sodaning suvli eritmasi, ikkinchi bosqichida esa silikat natriy(III vaIV navlar, shuningdek paxtaning nostandart urug‘larini qayta ishlashda) qo‘llanilgan holda paxta moyini rafinasiyalashning ikki bosqichli texnologiyasini yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon berdi. Bunda korxonada paxta urug‘lariningIII vaIV navlari aralashmasi qayta ishlandi. Olingan rafinasiyalanmagan paxta moyi to‘q rangga ega bo‘lgani uchun bir martalik ishqorli tozalanishni qariyb bajarib bo‘lmadi, bu esa bizni ikki bosqichli tozalashni o‘tkazishga majbur qildi(3 jadval).

3-jadval

Kaustik soda va natriy silikat bilan paxta moyini ikki bosqichli ishqorli rafinasiyalash ko‘rsatkichlari

Ishqorli eritma konentrasiyasi, g/l	Moyning sifat ko‘rsatkichlari			
	Kislota soni mg KON/g	35 sariq birlikdagi rangi		Tozalangan moyning chiqishi
		Qiz.bir.	Ko‘k bir.	
Ishqoriy rafinasiyaning birinchi bosqichi: kaustik soda eritmasi				
150	1,03	26,5	0,9	93,1
200	0,91	21,3	0,5	91,4
250	0,62	19,8	0,2	89,2
Ishqoriy rafinasiyaning ikkinchi bosqichi: natriy silikat eritmasi				
150	0,32	14,3	0,2	87,4
200	0,23	11,7	0,1	86,1
250	0,17	8,4	-	85,0

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, birinchi bosqichida kaustik sodaning suvli eritmasi, ikkinchi bosqichida esa silikat natriy qo‘llanilgan holda to‘q rangli paxta moyini ikki bosqichli ishqorli rafinasiyalashning qo‘llanilishi och rangli va chiqish miqdori qoniqarli bo‘lgan, tozalangan moyni olishga imkon berdi.

XULOSA

Presslangan va ekstrasiyalangan paxta moylarini ishqoriy rafinasiyalashda an'anaviy qo'llanilayotgan kaustik soda o'rniga erkin yog' kislotlari va boshqalari bilan tanlab o'zaro birikadigan natriy silikatning suvli eritmasidan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. O'zRVM 2020 yil 17 noyabrdagi 724-sonli "Yog'-moy mahsulotlarining havfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamenti tasdiqlash haqida"gi qarori, 4-8 ilovalar
2. Kadirov Y., Ruzibayev A. Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi. -T.: "Fan va Texnologiya". 2014. -320 b. 80
3. Wolf Hamm, Richard J. Hamilton, Gijs Calliauw. Edible Oil Processing, 2nd Edition. - USA, Wiley-Blackwell. 2013, 342 Pages
4. Qodirov Y., Raximov M. Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi. T.: "Iqtisod-Moliya". 2013. -300 b. 15
5. Арутюнуан Н.С., Корнена Е.П., Нестерова Е.А. Рафинасиуа масел и
6. Илуасов А.Т. Соверѕенствование технологии переработки хлопковіх семуан и рафинасии масла. Диссерт. на соиск. уч. ст. докт. техн. наук. Tashкент, 1996, - С. 350.
7. Ураков Р.М. Технологиуа полученуа качественного хлопков масла и ѕпрота. Диссерт. на соиск. уч. ст. канд. техн. наук. Tashкент, 1997
1. 8, Мирзоев А.Н., Нарзикулова К.Т., Илуасов А.Т., Серкаев К.П. Перспективі примененуа карбамида в проѕессе рафинасии хлопкового масла. Масложир.пром-сть.2004,№4,с.31-32.
8. Илуаев И., Меченов Г. Подобруаване технологиуа за рафинирането получи екстракѕионни масла (Улучѕшение технологии рафинасии хлопковіх екстракѕионніх масел). //Масло-сопунена кромет. -1999. №2. - С. 1-8.
9. Исматов С.ЅН., Мажидов К.Х. Способ рафинасии хлопкового масла. "Масложир.пром-сть".2013.№6.с.23-24.
10. Мажидов К. Х., Исматов С. ЅН., Абдуллаев Р., Зайниев М. Ф., Мажидова Н. К., Бозоров Д. Х. Соверѕенствование технологии рафинасии хлопкового масла. Масложир. пром-сть. 2014, № 2, С.26-27.
11. Qodirov Y. Yo'glarni qayta ishlash tehnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari. - Toshkent: Cho'lpon, 2005.-168 b.

ПЕРСПЕКТИВИ ПОЛУЧЕНИЯ ПЕРЕЕТЕРИФИКАСИОННИХ МАСЕЛ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СИРЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЕГО В ПРОИЗВОДСТВЕ СПРЕДОВ

[1]Илхамджонов Пулат, [2]Саидвалиев Саидазим Сайдиамирханович, [3]Файзуллаев Аслиддин Зувайдуллоевич, [4]Содиков Самандар Иброхимжон угли, [5]Кенжаев Нуриддин Туракобилович

[1,2]Досент, Ташкентский химико-технологический институт
[3]Ст. Пред. Ташкентский химико-технологический институт
э-маил: услеэддеен1991@гмаил.com
[4]Докторант, Ташкентский химико-технологический институт
[5]Ассистент, Ташкентский химико-технологический институт

Аннотация.*После того, как били обнаружени вредние свойства трансжирних кислот для здоровя человека, било предпринято множество научних и практических мер по устранению проблеми. Примером тому является создание многих катализаторов гидрирования пишевих масел, с другой сторони, усовершенствована методика обработки сирья. И переетерификасия масел является признанним вибором в качестве решения этой проблеми.*

Ключевие слова: *Маргарин, спред, жирние кислоти, хлопковой масла, модифисированние жири, переетерификасия, трансжири.*

Abstract. *After the harmful properties of trans fatty acids for human health were discovered, many scientific and practical measures were taken to eliminate the problem. An example of this is the creation of many catalysts for the hydrogenation of edible oils, on the other hand, the method of processing raw materials has been improved. And interesterification of oils is a recognized choice as a solution to this problem.*

Keywords: *Margarine, spread, fatty acids, cottod seed oil, modified fats, interesterification, trans fats.*

ВВЕДЕНИЕ

Масла и жири с древних времен являются одним из основних продуктов питания человечества. Со временем били изучени полезние сторони этих продуктов, изучени возможности их использования не только в пишу, но и в профильактических селях. Вместе с развитием человеческой цивилизасии ее численност с годами постепенно увеличивалась. В конце ХВИИ - начале ХИХ века, в результате резкого увеличения потребности населения не только в маслах, но и в других продуктах питания, переработка, модификасия и химическая обработка натуральних продуктов питания совершенствовались, эти усилия частично оправдались. Причина в том, что количество продуксии увеличилось, сена снизилась, а потребности населения били удовлетворени. Но в результате потери натуральности стало проявляться вредное воздействие различних химических и генетических обработок на человеческий организм. В том числе в масложировой промишленности осушествлялас переработка и модификасия природного сиря, организовивалис крупние производства [1,2].

Непропорсиональное региональное распределение жиров и масел в природе увеличивает спрос на тот или иной вид продуксии в соответствуюших регионах. С

прошлого века для удовлетворения этой потребности ненасишенние жирние кислоти, содержашиеся в натуральних растительних маслах, подвергают воздействию температури и давления, а просесс насишения, то ест гидрирования, с участием катализатора проводилис в болших масштабах. Гидрогенизированние масла используются в пишевой промишленности для производства маргарина и кондитерских жиров.[3] Гидрогенизированний саломас уже много лет используется в качестве основного сиря для маргариновой промишленности. К консу 20 века и началу 21 века било установлено, что 18-45% трансжирних кислот образуется в составе пишевих саломасов в просессе насишения масел [4;5].

Трансжирние кислоти имеют значительно более висикую температуру плавления, чем их сис-форми, и эти жири считаются более устойчивими к термическому и каталитическому воздействию в организме человека. Именно по этой причине с начала ХХИ века болшинство стран отказалис от потребления гидрогенизированних масел – саломасов или установили строгие норми потребленИЙ. Ограничение по трансжирним кислотам сушествует и в Средней Азии, особенно в Узбекистане, с 17 ноябрья 2020 года, согласно требованиям «Технологического регламента о безопасности масложирових продкуктов», утвержденного Кабинетом Министров, количество трансжирних кислот в масложирових продуктах не должно превишат более 2% [6,7].

МАТЕРИАЛИ И МЕТОДИ

Установление норм добавления гидрогенизированних жиров в масложировие продукти, с одной сторони, требует соблюдения правил безопасности пишевих продуктов, с другой сторони, создает дефисит этих продуктов. При этом рекомендуется просесс переетерификасии- получения масложирового сиря, совершенно безвредного для здоровя человека, с низким уровнем трансжирних кислот или вообше без него в зависимости от вида используемого в просессе сирЙ.

В этом просессе две сложние молекули эфира, то ест триглисериди, заменяются остатками жирних кислот. Это просесс получения однородного продукта, не разделяюшегося на фази, без наблюдения изменений структур жирних кислот в жировой фазе.

Ми получили переетерифисированное масло в лабораторних условиях с использованием хлопкового масла и саломаса глубокого насишения в пропорциях 40÷60 и 30÷70. Для проведения реаксии использовали реактор модели жгр3л, випускаемий под маркой ЙҲЧем. В соответствии с требованиями стандарта предварительно исследуют температуру плавления, состояние фаз и органолептические показатели качества готового продукта. Качественние показатели переетерификасии били проверени в лабораторних условиях и получени следуюшие результати.

Предварительние физико-химические свойства переетерифисированного масла

Таблиса 1

№	Показатели качества	Соотношение полученной жировой основи (растительное масло и переетерификат)	
		40:60	30:70
1	Массовая доля влаги, %	0,13	0,12
2	Температура плавления, °С	34,0	35,5
3	Кислотное число, мг КОН/г	0,28	0,24

4	Перекисное число, мм О2/кг	1,85	1,78

Органолептические показатели качества переетерификатов

Таблиса 2

№	Показатели качества	Соотношение полученной жировой основи 40:60	30:70
1.	Консистенция, (10±2°С)	Имеет одинаковую структуру по всей массе, достаточно кристаллизован	Имеет одинаковую структуру по всей массе, достаточно кристаллизован
2.	Свет	Светло желтий	Светло желтий
3.	Запах	Соответствует запаху переетирификата	Соответствует запаху переетирификата
4.	Вкус	Соответствует вкусу переетирификата	Соответствует вкусу переетирификата

Проверяли качественние показатели полученного продукта просесса переетерификасии. При этом качественние показатели продукта, приготовленного в соотношении 30:70, дали ожидаемий нами результат. Причина в том, что средняя температура плавления продукта определяется по соотношению насишенних и ненасишенних жирних кислот. Температура плавления нашего продукта, приготовленного в соотношении 40:60, показала результат више предела, установленного стандартними требованиями, поэтому он бил принят как технический саломас. Использование жирового сиря данного титра в производстве маргарина неселесообразно. Хроматографические анализи при производстве маргарина без содержания трансизомеров.

Современная наука требует современних знаний и навиков для получения точних результатов. Для анализа пишевих продуктов необходими различние – спектроскопические, рентгеноструктурние, хроматографические и потенсиометрические тести. Правильний вибор методов осмотра важен для достижения намеченной сели.

Ми использовали газовий хроматограф Шимадзу ГС-2030 размешенний в учебной лаборатории кафедри «Пишевая технология» Ташкентского химико-технологического института, для проверки количества трансизомеров в полученном продукте. Газовая хроматография состоит из 3 различних газових фаз, состояших из газа-носителя (Хэ), газа горения (X_2) и газа поддержки горения (O_2).

Для идентификасии полученних пиков использовали стандартний образес метилових эфиров жирних кислот: Супелсо 37 Компонент ФАМЕ Мих. Полученние результати показали, что транс-жирние кислоти в продукте били ниже установленной норми (табл. 3), поскольку использовалас переетерификасиЙ.



Рисунок 1. Хромотограмма жирно-кислотний состава жирового продукта, полученного в соотношении 30:70



Рисунок 2. Хромотограмма жирно-кислотний состава жирового продукта, полученного в соотношении 40:60

Оба приведенних више образса представляют собой маслянокислотную композисию из отобранних переетерифисированних масел в соотношениях 30:70 и 40:60.

Как правило, для производства маргарина ми не использовали саломас 40:60, имеюшую более високую температуру плавлениЙ. Ми также исследовали трансизомери в жирних кислотах маргаринового продукта, приготовленного на основе второго образса.



Рисунок 3. Хромотограмма жирно-кислотний состава готового продукта

Образси, испитанние в лаборатории, в соответствии с селю научних исследований не превишали установленного нами при проверке предельного количества трансжирних кислот как в сирье, так и в готовом продукте в селом.

Жирно-кислотний состав полученного сиря и продуктов

Таблица 3.

Название жирних кислот	Количество жирних кислот, %		
	30:70	40:60	Готовий продукт
12:0 Лауриновая	0,1	0,1	0,2
14:0 Миристиновая	1,5	1,7	2,1
16:0 Пальмитиновая	41,2	38,2	34,2
18:0 Стеариновая	16,4	15,9	10,4
18:1 Транс элаидиновая	1,9	1,6	0,7
18:1Олеиновая	23,2	25,2	31,2
18:2 Линолевая	14,5	16,5	19,5
18:3 Линоленовая	0,3	0,2	0,5

РЕЗУЛЬТАТИ И ОБСУЖДЕНИЕ.

Одной из основних селей проводимих научних исследований било создание маргаринового продукта на основе местного сиря и обогашение его переетерификатором, приготовленним в лаборатории. Соответственно, основним направлением ми вибрали введение в ресептуру маргарина приготовленной жировой композисии и изучение ее действиЙ.

Следуюшая ресептура спреда 82,5% била получена с использованием перетерификатора, полученного при приготовлении рассматриваемого продукта.

Ресептура маргарина с нормализованним количеством трансизомеров

Таблица 4.

№	Компоненти	Количество, %
1.	Растительное масло (хлопковое)	22
2.	Переетерификат т=31-34°С	42
3.	Хлопковий пальмитин	6
4.	Животний жир т=34-36°С	12
5.	Эмульгатор	0.06
6.	Ароматизатор	0.015
7.	β-каротин	0.001
8.	Сухое молоко	5
9.	Сорбат калия	0.01
10.	Бензоат натрия	0.01
11.	Сахар	0.5
13.	Соль	0.5
14.	Вода	Остальное

Производство маргарина осушествлялос на маломошной линии по производству маргарина производительностю 5-10 кг в час, имеюшейся на кафедре технологии пишевих продуктов Ташкентского химико-технологического института. В этой строке все режими вибираются с помошю компьютера, а производител подбирает необходимие ему параметрические величини. Таким же образом дозируем все необходимие компоненти по ресепту. Затем паровую рубашку парового смесителя нагревали до 65°С, предварительно расплавляя и перемешивая маслянистие компоненти. Затем в другой емкости отдельно готовили воду и водорастворимие компоненти и смешивали с маслянистой фазой.

В смесителе продукт обрабативали в течение 15 минут при начальной температуре 65°С, при частоте врашения смесителя 120 об/мин. Затем, запуская насос високого давления, формировали дисперсную эмульсию и пропускали ее непосредственно через вотатор с температурой -15°С. Температуру полученной эмульсии снижают с 60-65°С до 15-20°С. Но необходимой кристаллической структури в эмульсии не образовалось, поэтому она находилас в жидком состоянии. После набора готовой эмульсии в емкость, предназначенную для готового продукта, продукт медленно сливали и получали необходимую консистенсиЙ.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Проверяли органолептические и физико-химические показатели готового продукта. Полученние результати представлени в следуюших таблисах 1 и 2.

Физико-химические показатели готового продукта

Таблица 4

Наименования показателей	Результати
Массовая доля жира, %,	82,5
Температура плавления, °С,	33,7
Кислотное число, °К,	3,1
Кислотност жировой фази, °К,	2,4
Перекисное число, ммол/кг O_2	4,2

После проверки образца готовой продуксии по требованиям стандарта било установлено, что она имеет показатели качества, соответствуюшие всем параметрам.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ / REFERENCES

1. Перспективі добавлениуа нових функциональних ингредиентов в состав спредов, Универсум: Технические науки 12 (81) Москва-2020 с. 100-104
2. Использование альтернативних растительних масел в производстве детского питания, Универсум: Технические науки 5 (74) Москва-2020 с. 45-50
3. Разработка усовершенствованной сбалансированними физико-химическими показателями ресептури спреда с помошю местного сиря, Универсум: Технические науки 11 (68) Москва-2019 с. 41-44
4. Қуантитативе детерминатион оф тҳэ сонтент оф омега-3 анд омега-6 фаттй асидс ин тҳэ сомпоситион оф дрй милк михтурес бй тҳэ метҳод оф гас чроматографҳй, Америсан жоурнал оф интердиссиплинарй ресеарч анд девелопмент Волуме 05, Жуне, 2022 стр. 289-293
5. Вишемирский Ф. А., Дунаев А. В. “ Спреди: состав, технологии, перспективи” Профессийа
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 17.11.2020 йилдаги 724-сон “Ёғ-мой маҳсулотларининг хавфсизлиги тўғрисида” ги умумий технологик регламент

NOAN'ANAVIY USULDA PISHLOQ ISHLAB CHIQARISH

[1]Masharipova Zulxumar Atabekovna, [2]Ismaylova Malika Kanat qizi
[1] Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Dotsent, PhD.
E-mail: zulxumor-72@mail.ru
[2] Toshkent kimyo-texnologiya instituti,magistr

Annotatsiya. *Pishloqning 1500 dan ortiq assortimentda ishlab chiqariladi va ular o'zining yuqori energetik va biologik qiymatga ega ekanligi bilan boshqa oziq-ovqat mahsulotlaridan oldingi o'rinni egallaydi. Ayniqsa, qattiq, yarim qattiq va mog'orli pishloqlar o'zining ko'rsatkichlari bo'yicha pishloq assortimentlari ichida yuqori ustunlikka ega, ulardagi umumiylik tayyorlash jarayonida sutning tez ivishi va oqsillarni tez koagulyayatsiyaga uchrashi uchun shirdon fermentidan foydalanishdan iborat.*

Bugungi kunda pishloq ishlab chiqarish texnologiyalari va korxonalarini takomillashishi hamda jadallashishi natijasida pishloq ishlab chiqarishda turli koagulyantlardan foydalanish, ularni alternativlarini izlab topish ushbu qo'shimcha materiallarga bo'lgan talabni to'la qondirish imkoniyatini beradi.

Ushbu maqolada kavsh qaytaruvchi yosh jonivorlar oshqozonidan tashyorlangan shirdon fermenti o'rniga tovuq oshqozoni fermentidan foydalanilanib, 2 xil pishloq mahsuloti tayyorlandi. Tayyorlangan mahsulot organaleptik va fizik - kimyoviy usullar yordamida tahlil qilinganda, u o'zining barcha ko'rsatkichlari bilan an'anaviy usulda, shirdon fermentidan olingan pishloqdan farq qilmasligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *pishloq, ferment, shirdon, koagulyatsiya, oqsil, kazein, uglevod,tovuq oshqozoni, pepsin, ximozin, yog', misella, sut, zardob.*

Abstract. *More than 1,500 types of cheeses are produced, and they are ahead of other food products due to their high energy and biological value. Particularly hard, semi-hard and cheeses with mold have a high priority among the assortment of cheeses in terms of their indicators, the commonality of which is the use of rennet enzymes for rapid coagulation of milk and rapid coagulation of proteins during cooking.*

Today, as a result of the increase in volume and the improvement of cheese production technologies and enterprises, the use of various coagulants in cheese production and the search for their alternatives make it possible to fully satisfy the need for these additional materials.

In this article, instead of rennet enzyme isolated from the stomach of young ruminants, chicken stomach enzyme was used and 2 types of cheese products were prepared. When analyzing the prepared product by organoleptic and physico-chemical methods, it was found that it does not differ in all its parameters from cheese obtained in the traditional way from rennet enzyme.

Keywords: *cheese, enzyme, rennet enzyme, coagulation, protein, casein, carbohydrate, chicken stomach, pepsin, chymosin, fat, micelles, milk, whey.*

Аннотация. *Производится более 1500 видов сиров, и они опережают другие продукти питания благодаря високой энергетической и биологической сенности. Особо твердие, полутвердие и сири с плесеню имеют високий приоритет среди ассортимента сиров по своим показателям, обшностю которих является использование сичужних*

ферментов для быстрого свертивания молока и быстрое коагулятсие белков в просессе приготовлениЙ.

Сегодня в результате повешения объема и усовершенствовании технологий производства сира и предприятий, использование различних коагулянтов в производстве сира и поиск их альтернатив позволяют полностю удовлетворит потребност в этих дополнительних материалах.

В данной статье вместо сичужного фермента, виделенного из желудка молодняка жвачних животних, использовали фермент куриного желудка и готовили 2 вида сирних продуктов. При анализе приготовленного продукта органолептическими и физико-химическими методами било установлено, что он не отличается по всем своим параметрам от сира, полученного традисионним способом, из сичужного фермента.

Ключевие слова: *сир, фермент, сичужний фермент, коагуляция, белок, казеин, углевод, куриний желудок, пепсин, химозин, жир, миселли, молоко, сиворотка.*

KIRISH

Pishloq - yumshoq, zich yoki yarim qattiq ko‘rinishda shakl berilgan ozuqaviy massa bo‘lib, u sutning fermentativ ivishi natijasida hosil bo‘lgan va ajralgan pishloq massasini (lahtasini) keyinchalik qayta ishlash va yetiltirish natijasida hosil bo‘ladi.

Pishloq - sutning ideal konsentrati bo‘lib, u biologik jihatdan eng to‘yimli, lazzatli, oson singiydigan va parxezbop mahsulotlardan biri sanaladi.

Sharob, non va pishloq inson tomonidan ixtiro qilingan birinchi oziq-ovqatlardan biri bo‘lib, uzoq vaqt ishlov berishni talab qiladi. Olimlarning fikricha, pishloq 9000 yil oldin zamonaviy Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo hududida paydo bo‘lgan.

Pishloq o‘zini oziqaviy qiymatiga ko‘ra go‘sht, baliq, tuxum va nondan ustun turadi. Pishloq turiga ko‘ra uning tarkibidagi quruq moddalarning massaviy ulushi 45÷65 %, oqsillar miqdori 15÷30 %, yog‘ miqdori esa, 9÷32 % bo‘ladi.

100 g pishloqning energetik qiymati pishloq naviga, tarkibidagi yog‘ miqdoriga va yetilish davriga ko‘ra 200 dan 500 kkalgacha bo‘ladi. Masalan, Poshexonskiy pishloqining kaloriya tarkibi 344 kkal, ruscha - 364 kkal, cheddar - 380 kkal, feta - 290 kkal, suluguni - 286 kkal.

Pishloqning yuqori darajadagi ozuqaviy qiymati uning tarkibidagi sut oqsillari va yog‘lar konsentratsiyasining yuqoriligi, inson organizmi uchun zarur bo‘lgan erkin aminokislotalar (shu jumladan, almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar), yog‘ kislotalari va boshqa organik kislotalar, vitaminlar, mikroelementlar va mineral moddalarning (xususan kalsiy va fosfor tuzlari) mavjudligi bilan belgilanadi.

Pishloqning yuqori organoleptik xususiyatlaridan tashqari, inson salomatligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Sut achituvchi bakteriyalar oshqozon-ichak mikroflorasiga ijobiy ta’sir qiladilar.

Pishloq ishlab chiqarish korxonalaridagi barcha pishloqlar qattiq, yumshoq va yarim yumshoq pishloqlarga bo‘linadi.

Mintaqaviy farqlardan tashqari qo‘shimcha ravishda, pishloqlarni bir nechta mezonlarga ko‘ra ajratish mumkin:

• Pasterizatsiya mavjudligiga ko‘ra (bu ta’mga katta ta’sir qiladi);

• Xom ashyo turlari bo‘yicha (sigir, echki, qo‘y, tuya va boshqa sut turlari);

• Tayyorlanish xususiyatiga ko‘ra:

- yangi pishloqlar;
- qaynatilmagan presslangan pishloqlar;
- preslangan qaynatilgan pishloqlar;
- yumshoq yuvilgan pishloqlar;
- mog‘orlangan qobiqli yumshoq pishloqlar;
- moviy mog‘orli pishloqlar;
- eruvchan pishloqlar

Pishloqlarni hosil bo‘lish jarayonlariga qarab, shirdon fermentli pishloqlar va sut kislotali achish jarayonida hosil bo‘luvchi pishloqlarga bo‘linadi. Hamma qattiq pishloqlar shirdon fermenti ta’sirida olingan pishloqlar guruhiga kiradi.

Butun dunyoda yetishtiriladigan pishloqlarning 33%, Amerika Qo‘shma Shtatlarida iste’mol qilinadigan pishloqlarni 70% ini shirdon fermentli pishloqlar tashkil qiladi. Yil sayin shirdon fermentli pishloqlarga talab ortib bormoqda.

Pishloq ishlab chiqarishda xom ashyo va materiallar sifatiga alohida talablar qo‘yiladi. Xom ashyo mikrobiologik nuqtai nazardan sifatli bo‘lishi kerak, xususan, sut tarkibidagi oqsil miqdorining yuqori ekanligi maqsadga muvofiqdir, bu mahsulot hosildorligini oshiradi va xom ashyo sarfini kamaytiradi.

TADQIQOT OBYEKTI VA USULLARI

Pishloq tayyorlash uchun sutga qo‘shiladigan bakteriyalar uni ivish davrini tezlashtirib, uning tarkibidagi oqsilni koagulyatsiyaga uchrashiga olib keladi.

Tayyorlanadigan mahsulotni sifati, xushbo‘yligi va boshqa qator xususiyatlari mana shu bakteriyalarni avlodi, uning turiga bog‘liqdir. Sutni ivishi davomida sut achituvchi bakteriyalarni ko‘payishi muhim texnologik jarayon hisoblanadi, chunki ko‘payishga moyil bo‘lgan bakteriyalar, mahsulot uchun yot bo‘lgan bakteriyalarni o‘sib, ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaydi va shu tufayli mahsulotga o‘ziga xos sifat, ya’ni hid va ta’am beradi.

Sutga bakteriya solingandan keyin, u ma’lum haroratda ushlab turiladi, bu esa sutni ivishiga olib keladi. Bu jarayonni chuqurroq o‘tkazish maqsadida, ya’ni sut tarkibidagi oqsil moddalarni parchalash uchun unga qo‘shimcha proteolitik fermentlar (renin+pepsin) solinadi.

An’anaviy shirdon kavsh qaytaruvchi sut emizuvchilarning oshqozonida ishlab chiqariladigan fermentlar aralashmasidir. Ximozin, uning asosiy komponenti, sutdagi murakkab oqsil - kazeinni koagulyatsiya qiluvchi proteaz fermenti xisoblanadi.

Shirdon (lot. abomasum) — kavsh qaytaruvchi hayvonlarning to‘rt kamerali murakkab oshqozonining oxirgi, 4-bo‘limi, bezli oshqozon deb ataladi. Sut bilan oziqlangan 2- 4 xaftalik buzoqchalar, qo‘zichoqlar va uloqlarning shirdonida oqsillar tarkibidagi peptidlarni parchalab, organizmda xazm bo‘lishini yengillashtiradigan rennin (ximozin) fermentini ishlab chiqariladi

Ximozin (renin) – oshqozonning shirdon bezlari tomonidan ishlab chiqariladigan gidrolaza fermenti bo‘lib, tabiiy reninning asosiy manbai sut emayotgan yosh kavsh qaytaruvchi jonivorlar oshqozoni hisoblanadi. Ushbu jonivorlarning yoshlari kattalashgan sari, ularning oshqozonidagi renin bilan birga, shirdonning xususiyatlarini yomonlashtiradigan boshqa proteolitik fermentlar miqdori ortib boradi va ular so‘r hosil qila olmaydilar. Pepsin ham shirdonda ximozin bilan birga bo‘lib, uning nisbati jonivorlar yoshiga qarab ortib boradi, u ham sof shaklda sut emizuvchilarning oshqozonidagi endopeptidaza fermenti bo‘lib, u oqsil va peptid molekulalarida peptid bog‘larini ajratuvchi fermentdir (1- jadval).

1-jadval.

Qoramol shirdon ekstrakti tarkibidagi ximozin va pepsinning ulushiga oziqlanish rejimi va yoshining ta’siri (pH 6,5 bo‘lgan sutdagi faolligiga ko‘ra)

Oziqlanishi	yoshi (oy)	Ximozin (%)	Pepsin (%)
Emizib boqiladigan buzoq	<3	90	10
Yaylovda va sut bilan oziqlangan buzoq	6	75	25
Konsentrat bilan oziqlangan buzoq	6	30	70
Konsentrat va pichan bilan oziqlangan qoramol	>24	Faqat izlari	100

Ximozin (rennet) ni ta’sir mexanizmiga mexanizmiga to‘xtaladigan bo‘lsa, sutdagi barcha oqsillar misellar deb atalalib, oqsilni 80% ini kazein misellari tashkil etadi. Sut kazeini asosan alfa, beta va kappa kazein (k-kazein) shaklida mavjud. Misellaning tashqi yuzasi k-kazeinlardan iborat bo‘lib, ularning gidrofil manfiy zaryadlangan uchi boshqa mitsellalarni birikishiga to‘sqinlik qiladi va natijada u sut bo‘ylab erkin, bir tekis taqsimlanadi (1-rasm).

Sutga shirdon fermentini qo‘shganda u katalizator vazifasini bajarib, moddalarni parchalashga yordam beradi, lekin jarayonda barqaror bo‘lib qoladi. Rennet (ximozin) mitselning tashqi yuzasini tashkil etuvchi va manfiy zaryadni ushlab turadigan kappa - kazeinlarning uchlarini kesib, jarayonda o‘zi o‘zgarmaydi, faqat "qaychi" vazifasini bajaradi (2-rasm).





1 - rasm. Sutdagi komponentlarning, jumladan oqsil misellarining joylashuvi

2 - rasm. Ximozin – shirdon fermentini ta’sir mexanizmi

Ajralgan manfiy zaryadlangan kazein uchlari (glikomakropeptidlar) eritmada muallaq holatda qoladi. Manfiy zaryadining katta qismini yo’qotgan mitsellar erkin harakatlanib, musbat zaryadlangan kaltsiy va magniy molekulalari yordamida bog‘lanadi (3-rasm). Bu jarayon sut kislotalanganda sodir bo‘ladigan koagulyatsiyaga nisbatan ancha zichroq protein strukturasini hosil qiladi. Bu bog‘lar shunchalik kuchliki, sut pudingga o‘xshash moddaga aylanadi.



3-rasm. Oqsil agregatlarini Sa va Mg orqali bog‘lanishi

Shirdon ta’sirida kattaroq mitsellalarga zichlashib, suv va kichikroq zarrachalarni oqsil strukturasidan chiqarib yuboradi va shu bilan zardobni ajratadi. Ko‘pchilik yog‘ globulalari va sut kislotasi bakteriyalari kazein to‘ridan o‘tish uchun juda kattalik qiladi va shuning uchun lahtada qoladi (4-rasm). Pishloqdan zardobni tez ajratish laxtani kesish va maydalash, sutni kislotalash va isitish orqali amalga oshiriladi.

Xom sut shirdon ta’sirida tezda ivishi pishloqda begona mikrofloraning rivojlanishi va sutning buzilishining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Yosh buzoq, uloq va qo‘zichoqlarning shirdonidan ajratilgan ikkita faol komponent (ximozin va pepsin) yuqori qiymatga ega bo‘lgan qattiq, yarim qattiq pishloqlar ishlab chiqarishda asosiy komponentdir.



4- rasm. Ximozin fermenti ta’sirida oqsil koagulyatsiyasi

Har yili butun dunyoda 25 mln.l ga yaqin so‘chuj fermenti ishlab chiqariladi. Shunga qaramasdan bu fermentga bo‘lgan ehtiyoj to‘lig‘icha yetarli emas. 20-asrda butun dunyo bo‘ylab pishloq ishlab chiqarishning o‘sishi shirdon tanqisligiga olib keldi, chunki talab 1950 va 1960 yillarda mavjud bo‘lgan taklifdan oshib ketdi.

Bu muammo sut ivish vositalarining yangi turlarini, masalan, hayvonlarning shirdonlari (masalan, qoramol pepsini), mikrob shirdonlari (Rhizomucor miehei, Rhizomucor pussillus, Parasitica coagulans), fermentativ ximozin (FPS) Kluyveromyces marxianus vardan lactis va

Escherichia coli K-12 dan olingan yoki o‘simlik agentlari (Calotropis procera, Cynara cardunculus) ishlab chiqarishni joriy etish bilan hal qilindi.

Tajribada uchun shirdon fermentini alternativi sifatida tovuq oshqozonini plyonkasidan foydalanildi. Ma’lumki, parranda mahsulotlarini qayta ishlashda uning oshqozoni subprodukt sifatida ishlatiladi. U o‘zining foydali xususiyatlari va shifobaxshligi bilan qadimdan mashhur. Undan oshqozon ichik kasalliklarini davolashda dori sifatida foydalanib kelingan.

Tajriba uchun 3 ta tovuq oshqozonidan uning yupqa pardasi ajratib olindi, yaxshilab yuvildi va 40 °C dan yuqori bo‘lmagan haroratda quritildi (5-rasm).



5-rasm. Pishloq tayyorlashda koagulyant sifatida olingan tovuq oshqozoni

Tovuq oshqozonining quritilgan yupqa plyonkasi kofe maydalagichda maydalanib, tvorog olishda hosil bo‘lgan 500 ml zardobga 10 grammi miqdorda qo‘yilib, 5 soatdan kam bo‘lmagan vaqt davomida ivitib qo‘yildi. Ivigan ferment 2-3 kun davimida sovitilgan joyda yetiltirildi. Ushbu eritmani 5-10°C da 6 oygacha saqlash mumkin.

Tajriba uchun 6 litr sut olindi va gazda 32-35°C gacha isitildi. Sut pasterizatsiya qilinmaganligi uchun unga ¼ choy qoshiq kalsiy xlor qo‘shib, harorat nazorat qilingan holda, gaz o‘chirildi va 500 ml miqdorida koagulyant (ferment) qo‘shildi va aralashtirildi.

Achitqiga alohida e’tibor berilishi kerak, chunki butun pishloq ishlab chiqarish jarayoni mezofil streptokokklardan tashkil topgan achitqining faolligiga bog‘liq. Kaltsiy xlorid sutdagi kaltsiy ionlarini ko‘paytirish uchun kerak, bu esa o‘z navbatida oqsillarni bog‘laydi, bu esa sutning yaxshi quyuqlashishiga (laxta hosil bo‘lishi) yordam beradi. Shirdon fermenti sutni qisqa vaqt ichida laxta holatiga keltiradi.

Ajratib olingan pishloq donalari qolipga solinib, presslanadi. Qattiq shirdon pishloqlari 18-22% konsentratsiyali tuz eritmasida 8-12 °C haroratda 3-5 kun davomida tuzlanadi.

Yetiltirish jarayonidan oldin qattiq pishloqlar 2-3 kun davomida quritiladi. Qattiq pishloqlarning yetilish jarayoni 1.5-2,5 oyni tashkil qiladi.

Idish qopqog‘ini yopgan holda 30 minut davomida sutni quyuqlashishi (laxta hosil bo‘lishi) kutildi. Hosil bo‘lgan laxta pichoq yordamida kesib, mayda pishloq donlari hosil qilindi va yana 10 minutda tindirib qo‘yildi. Massadan sariq rangli zardob ajralib boshlagandan keyin, aralashtirgan holda gaz plitasida 40 °C gacha isitildi.

Pishloq donalari filtr (doka) yordamida zardobdan ajratilib, tuz qo‘shib, formaga solindi va suyuqlik chiqib ketishi uchun ustiga yuk qo‘yildi (6-rasm).



a) b) c) d)

6-rasm. Pishloq tayyorlash jarayoni: a*) koagulyant; b) isitilgan sutga fermentli aralashmani qo‘shish; c) pishloq donlarini kesish va ajratish; d) kazein donlarini filtrlash va presslash*

Noan’anaviy usulda tovuq oshqozoni fermentlaridan foydalangan holda “Kachotta” va “Suluguni” pishloqlari tayyorlandi. Mahsulotning chiqishi 6 litr sutga nisbatan 215 g “Suluguni” va 395 g “Kachotta” pishlog‘ini tashkil etdi (7-rasm).



7-rasm. Noan’anaviy usulda tayyorlangan pishloqlar

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Tayyorlangan pishloqlar organoleptik va fizik – kimyoviy usullar yordamida tarkibi tahlil qilindi.

Xomashyo, mahsulot va ikkilamchi mahsulot tarkibidagi umumiy uglevodlar miqdorini aniqlash

Xomashyo va mahsulot tarkibidagi uglevodlarni Dyubua usuli sulfat-fenol reaksiyasiga asoslanib aniqlandi. Bunda tadqiq etilayotgan mahsulot namunasi filtratining 0,5 ml-i probirkaga solinadi. Uning ustiga 5%-li fenol eritmasidan 0,5 ml solinadi va 10 min xona harorati (24 ^{0}C) da reaksiya ketishi uchun ushlab turiladi. Aralashma ustiga 2,5 ml sulfat kislota solinib, reaksiya to‘xtatiladi va FEK ning 480 nm to‘lqin uzunligidagi ko‘rsatkichi qayd qilinadi. Olingan natijalar kalibrovka grafigidagi optik zichlikka solishtirilib, uglevodlar miqdori topiladi.

Xomashyo, mahsulot va ikkilamchi mahsulot tarkibidagi umumiy oqsillar miqdorini aniqlash

Oqsilni miqdor jihatdan aniqlash uchun usullari ichida eng keng tarqalgani va yuqori sezgirlikka ega bo‘lgani Louri usulidan foydalanildi.

Tekshirishni boshlashdan avval A va B reaktivlari hamda folin reaktivini tayyorlab olindi. A reaktivi natriy karbonat tuzi Na_2CO_3 - ning 0,1n, natriy gidroksididagi 0,2% li eritmasi. B reaktivi mis sulfati $SuSO_4$ -ning 1% li sitrat natriydagi 0,5% li eritmasi. A va B reaktivlari qo‘shilmasidan S reaktivi tayyorlanadi. Bunda A reaktivi miqdori 50 ml va B reaktivi miqdori 1 ml (50:1) nisbatda qo‘shildi.

Oqsil miqdorini aniqlashda ish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda olib borildi: toza probirkaga 0,5 ml tekshirilayotgan namuna solinadi, so‘ng 2,5 ml C reaktivi qo‘shiladi va 10 min davomida xona haroratida saqlanadi va aralashma ustiga 250 ml oldindan tayyorlab qo‘yilgan folin reaktividan solinadi.

Probirkadagi aralashma chayqatilib, 30 min qoldiriladi. Bu vaqt oralig‘ida probirkadagi aralashma asta sekin ko‘k rangga o‘zgaradi. Eritma rangi intensivligi FEK da 750 nm to‘lqin uzunligida tekshiriladi. Tekshirilayotgan namuna tarkibidagi oqsil miqdori toza oqsil yordamida tayyorlangan kalibrovka chizig‘i bo‘yicha aniqlanadi.

Kalibrovkada turg‘un rang hosil bo‘lgach FEK yordamida rang intensivligi aniqlanadi. Tayyorlangan eritmalarning har biri bilan kamida 3 marta Louri reaksiyasini qaytarish kerak va olingan o‘rtacha ma’lumotlarga qarab kalibrovka chizig‘i chizilib, anashu asosda oqsil miqdori aniqlandi.

Sut va zardob tarkibidagi yog‘ miqdori Gerber usulida aniqlandi. Ushbu usul yog‘ miqdori tez va natijalarni yuqori aniqlikda olish imkonini beradi. Uning mohiyati shundan iboratki, bunda konsentrlangan sulfat kislota va izoamil spirti ta’sirida sut tarkibidagi yog‘ qatlam xosil qilgandan keyin ajratib olinadi. Uning xajmi yog‘ o‘lchagichning darajala ngan (gradatsiya) qilingan qismi yordamida o‘lchanadi (8-rasm).



8-rasm. Sut va zardob tarkibidagi yog‘ miqdori

Pishloqlar tarkibidagi yog‘ miqdori aniqlanmadi chunki, sutdagi yog‘dan zardobda qolgan yog‘ orasidagi farq, pishloq tarkibidagi yog‘ga teng deb olindi.

Namunalar	Oqsil miqdori, mg/ml	Uglevod miqdori, mg/ml	Yog‘ miqdori, mg/ml
Sut xomashyosi	18	50	2,4
Zardob	4,2	10	0,45
“Kachotta” pishlog‘i	36	86	
“Suluguni” pishlog‘i	26	95	

XULOSA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tovuq oshqozoni fermentidan koagulyant sifatida foydalanib, pishloq tayyorlash jarayonida sut tarkibidagi asosiy komponentlar – oqsil, uglevodlar va yog‘ning katta qismi tayyor mahsulot tarkibini tashkil etdi. Sut tarkibidagi 18 mg/ml

miqdoridagi konsentratsiyasini ortishi natijasida “Kachotta” pishloqida 36 mg/ml, “Suluguni” pishlog‘ida esa, 26 mg/ml ni, sutdagi 50 mg/ml miqdoridagi sut qandini pishloqda 86 mg/ml va 95 mg/ml ni tashkil etdi.

Noan’anaviy koagulyant qo‘shib tayyorlangan pishloq o‘zining ozuqaviy qiymati va organoleptir ko‘rsatkichlari boyicha boshqa pishloqlardan farq qilmadi.

Pishloq ishlab chiqarishda hosil bo‘lgan ikkilamchi xomashyoning tarkibiga qo‘ra, undan boshqa mahsulotlar tayyorlashga yo‘naltiriladi.

Tovuqli pepsinning afzalliklari: ushbu koagulyant bilan tayyorlangan pishloqlarda ularning sifatini yomonlashtiradigan chuqur proteolizga olib kelmaydi; bakterial tozaligi bo‘yicha shirdon fermentidan kam emas; ferment pishloqning kimyoviy tarkibini o‘zgartirmaydi; saqlash davomida mahsulot sifatini pasaytirmaydi, ishlab chiqarilgan pishloqlar sifatini oshirishga xizmat qiladi, asosiysi uning arzon ekanligida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. Harboe M.K., Broe M.L., Qvist K.B. The Production, Action and Application of Rennet and Coagulants. In Technology of Cheesemaking, 2nd ed.; Law, B.A., Tamime, A.Y., Eds.; John Wiley & Sons, Inc.: Hoboken, NJ, USA, 2010; pp. 98–129. [Google Scholar]
2. Fox, P.F.; Guinee, T.P.; Cogan, T.M.; McSweyeney, P.L.H. Fundamentals of Cheese Science, 3rd ed.; Springer US: Boston, MA, USA, 2017. [Google Scholar] [CrossRef]
3. Harboe, M.K.; Broe, M.L.; Qvist, K.B. The Production, Action and Application of Rennet and Coagulants. In Technology of Cheesemaking, 2nd ed.; Law, B.A., Tamime, A.Y., Eds.; John Wiley & Sons, Inc.: Hoboken, NJ, USA, 2010; pp. 98–129. [Google Scholar]
4. Fox, P.F.; Guinee, T.P.; Cogan, T.M.; McSweyeney, P.L.H. Fundamentals of Cheese Science, 3rd ed.; Springer US: Boston, MA, USA, 2017. [Google Scholar] [CrossRef]
5. Cipolat-Gotet, C.; Cecchinato, A.; Drake, M.A.; Marangon, A.; Martin, B.; Bittante, G. From cow to cheese: Novel phenotypes related to the sensory profile of model cheeses from individual cows. J. Dairy Sci. **2018**, 101, 5865-5877. [Google Scholar] [CrossRef] [PubMed] [Green Version]
6. Bergamaschi, M.; Cecchinato, A.; Biasioli, F.; Gasperi, F.; Martin, B.; Bittante, G. From cow to cheese: Genetic parameters of the flavour fingerprint of cheese investigated by direct-injection mass spectrometry (PTR-ToF-MS). Genet. Sel. Evol. **2016**, 48, 1-14. [Google Scholar] [CrossRef] [PubMed]
7. Brito, L.F.; Bedere, N.; Douhard, F.; Oliveira, H.R.; Arnal, M.; Peñagaricano, F.; Schinckel, A.P.; Baes, C.F.; Miglior, F. Review: Genetic selection of high-yielding dairy cattle toward sustainable farming systems in a rapidly changing world. Animal **2021**, 15, 100292. [Google Scholar] [CrossRef]
8. Moran, D.; Blair, K.J. Review: Sustainable livestock systems: Anticipating demand-side challenges. Animal **2021**, 15, 100288. [Google Scholar] [CrossRef] [PubMed]
9. Yegin, S.; Dekker, P. Progress in the field of aspartic proteinases in cheese manufacturing: Structures, functions, catalytic mechanism, inhibition, and engineering. Dairy Sci. Technol. **2013**, 93, 565–594. [Google Scholar] [CrossRef][Green Version]
10. Rawlings, N.D.; Barrett, A.J. Peptidases. In eLS; Wiley: Hoboken, NJ, USA, 2014. [Google Scholar] [CrossRef]

11. Rawlings, N.D.; Barrett, A.J.; Thomas, P.D.; Huang, X.; Bateman, A.; Finn, R.D. The MEROPS database of proteolytic enzymes, their substrates and inhibitors in 2017 and a comparison with peptidases in the PANTHER database. Nucleic Acids Res. **2018**, 46, D624–D632. [Google Scholar] [CrossRef] [PubMed]
12. Schechter, I.; Berger, A. On the size of the active site in proteases. I. Papain. Biochem. Biophys. Res. Commun. **1967**, 27, 157–162. [Google Scholar] [CrossRef]
13. Schechter, I. Mapping of the Active Site of Proteases in the 1960s and Rational Design of Inhibitors/Drugs in the 1990s. Curr. Protein Pept. Sci. **2005**, 6, 501–512. [Google Scholar] [CrossRef]
14. Tang, J. Aspartic Proteases: Structure, Function, and Inhibition. In Aspartic Acid Proteases as Therapeutic Targets; Wiley: Hoboken, NJ, USA, 2011; Volume 45, pp. 23–41. [Google Scholar] [CrossRef]
15. Andrén, A. Cheese: Rennets and Coagulants. In Encyclopedia of Dairy Sciences, 2nd ed.; Academic Press: San Diego, CA, USA, 2011; pp. 574–578. [Google Scholar] [CrossRef]
16. Aworh, O.C.; Muller, H.G. Cheese-making properties of vegetable rennet from sodom apple (Calotropis procera). Food Chem. **1987**, 26, 71–79. [Google Scholar] [CrossRef]
17. Sousa, M.J.; Malcata, F.X. Advances in the role of a plant coagulant (Cynara cardunculus) in vitro and during ripening of cheeses from several milk species. Lait **2002**, 82, 151–170. [Google Scholar] [CrossRef][Green Version]
18. Kraxmaleva, T.M. Ispolzovaniye konsentrirovannx fermentnix preparatov mikrobnogo proisxojdeniya spirtovogo proizvodstva v pivovarenii// Optimizasiya slojnix biotexnologicheskix sistem: materiali Vseross. nauch.-prakt. konf./ Oren. gos. un-t.- Orenburg: OGU, 2003.- s. 100-104.- ISBN 5-7410-0163-7.
19. Ismaylova M.K., dos. Z.A. Masharipova, Raxmatjanov I. A. Pishloq ishlab chiqarishda ikkilamchi materiallardan foydalanish «Umidli kimyogarlar-2023» XXXII ilmiy-texnikaviy anjumanining maqolalar to‘plami. Toshkent, TKTI, 25-27-aprel 2023-yil. 484 b.
20. https://propionix.ru/sychuzhnoe-svertyvanie-moloka?ysclid=lf161pop9484203145

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI KIMYOVIY VA FIZIK-KIMYOVIY USULLAR YORDAMIDA ANIQLASHNING AHAMIYATI

[1]Masharipova Z.A. , [2]Narzullayev F.SH.
[1]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, dotsent
[2]Toshkent kimyo-texnologiya instituti, magistr

Annotatsiya. *E’tiboringizga havola etilayotgan ushbu maqola mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini yanada barqarorlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasi o‘laroq eng muhim oziq-ovqat xom-ashyosi bo‘lgan don va un mahsulotlarining sifatini nazorat qilishga qaratilgan. Bundan tashqari, aholi o‘rtasida temir tanqisligining oldini olish maqsadida vitamin-mineral aralashmalar bilan boyitilishi va uning miqdorini nazorat qilishning fizik-kimyoviy usullarini o‘rganish asosiy maqsad qilib olingan.*

Maqolada mikronutriyentlar bilan boyitilmagan oddiy un hamda mikronutriyentlar bilan boyitilgan un tarkibidagi darmondorilar va minerallar miqdori aniqlanib, ularning nisbati solishtirildi.

Kalit so‘zlar: *Oziq-ovqat sifati va xavfsizligini nazorat qilish usullari, vitaminlar, mikronutriyentlar, mikronutriyent yetishmasligi, temir tanqisligi (anemiya), spektrofotometriya, tahlilning kimyoviy usullari.*

Abstract. *This article, which is brought to your attention, is aimed at controlling the quality of grain and flour products, which are the most important food raw materials, as a result of the work carried out to further stabilize the quality and safety of food products in our country. In addition, in order to prevent iron deficiency among the population, the main goal is to study the physico-chemical methods of vitamin-mineral mixture enrichment and control of its amount.*

In the article, the amount of drugs and minerals contained in ordinary flour not enriched with micronutrients and flour enriched with micronutrients was determined and their ratio was compared.

Keywords**:** *Food quality and safety control methods, vitamins, micronutrients, micronutrient deficiency, iron deficiency (anemia), spectrophotometry, chemical methods of analysis.*

KIRISH

Oziq-ovqat muammosi doimo kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Yer shari aholisi soniya sayin o‘sib bormoqda, bu esa o‘z navbatida insonlarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari to‘g‘ri proporsional ravishda oshishiga olib keladi. Yetishtirilayotgan va ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini miqdor jihatdan zaxirasini ta’minlash bilan bir qatorda ularning sifat darajalarini ham standartlarga muvofiqligini ta’minlash muhim masalalardan biri bo‘lmog‘i kerak. Ushbu talablarning samarali va sifatli ta’minlanishi masalalari soxa mutaxassislari hamda ishlab chiqaruvchilar oldiga sifatli va xavfsiz oziq – ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda mukammal bilim va malakaga ega bo‘lishdek muhim vazifa qoyadi.

Oziq-ovqat sifati – bu insonning ozuqaviy va ta’m beruvchi moddalarga bo‘lgan fiziologik talabini ta’minlovchi xossalar majmuyi, ya’ni mahsulotlarning ozuqaviy qiymati va iste’molboplik xususiyatlarining yig‘indisidir. Shuningdek organoleptik va kimyoviy

ko‘rsatkichlar bilan (rang, ta’m, hid, konsistensiya, tashqi ko‘rinish, kimyoviy tarkib), kimyoviy toksinlarning (zaharlarning), kasallik tug‘diruvchi mikroorganizmlarning (salmonenllalar, proteya, botilinus va boshqalar), gijja tuxumlarining, zararli birikmalarning (simob, qo‘rg‘oshin, 3,4 - benzopiren, pestitsidlar va x.k) mavjud emasligi bilan tavsiflanadi **[1].**

Oziq – ovqat xavfsizligi – bu oziq-ovqat mahsulotlarini ruxsat etilgan miqdorda iste’mol qilinganda inson organizmiga toksik, kanserogen, mutagen va yoki boshqa har qanday nojoya ta’sirlarni vujudga keltirmasligi, hamda oziq-ovqat mahsulotining odamga hamda kelgusi avlodlarga zararli ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq ruxsat etilmaydigan xavf-xatarning yo‘qligidan dalolat beruvchi holatidir **[1].**

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlar sifatini ishlab chiqarish sharoitida baholashda uchta asosiy usullar (organoleptik, mikrobiologik va fizik-kimyoviy) guruhidan foydalaniladi. Organoleptik (sensorli) tahlil tayyor mahsulotni ta’mi, hidi, konsistensiyasi, strukturasi, rangi, shakli, o‘lchami, tashqi ko‘rinishi va yuzasi holatini baholashdan iboratdir. Bunday tahlil ko‘rish, hid bilish va ta’mni sezish organlari yordantida amalga oshirilib, hech qanday maxsus jihoz, qimmatbaho reaktivlarga ehtiyoj sezntaydi. Tayyor mahsulotga uni organoleptik baholash natijasida beriladigan bahoning xolisligi faqat brakerning (ushbu tahlilni amalga oshirayotgan shaxs) yetarlicha tayyorgarligi bilan belgilanadi. Bunga maxsus adabiyotlarni o‘rganish (sensorli tahlilni o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar va ballar berish jadvallari) va doimiy amaliy faoliyat orqali qisqa fursatda brakerning tegishli tayyorgarligiga erishish mumkin. Shunday qilib, organoleptik tahlilning afzalligi uning oddiyligi va uni amalga oshirish uchun kam vositalar zarurligi hisoblanadi **[2].**

Mikrobiologik uslublarni oziq-ovqat korxonalarida tayyor mahsulotni nazorat etish jarayonidagi ahamiyati ishlab chiqariladigan mahsulot turiga bog‘liq bo‘ladi.

Bakteriologik tahlil tabiatiga ko‘ra, sog‘liq uchun, ba’zi hollarda esa inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan patogen (kasallik tug‘diruvchi) mikroorganizmlar bilan zararlanishi mumkin bo‘lgan xomashyoni qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi barcha korxonalar uchun ularni ishlab chiqarish quvvatiga bog‘liq bo‘lmagan holda majburiy hisoblanadi. Bunda faqat kichik korxonalar uchun xususiy bakteriologik laboratoriyaning bo‘lmasligiga va mikrobiologik tahlillarni shartnomaga ko‘ra, akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda o‘tkazishga ruxsat beriladi. Agar mikrobiologik tahlillar korxonani ishlab chiqarish laboratoriyasida amalga oshirilsa, shuni nazarda tutish joizki, ular faqat tegishli soha mutaxassislari tomonidan o‘tkazilishi mumkin. Shunday qilib, mikrobiologik uslublar oziq-ovqat sanoatining qator sohalarida tayyor mahsulotni tahlil etishda, uni iste’molchilar uchun zararsizligini aniqlashda katta ahamivatga ega. Ammo mikrobiologik uslublar guruhi bevosita mahsulotlar kimyoviy tarkibini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan oziqaviy qiymatni baholashga nisbatan ancha kam ma’lumotlar olinishini ta’minlaydi. Bunday baholashni faqat tayyor mahsulotni fizik-kimyoviy tahlil etish yordamida amalga oshirish mumkin **[2].**

Fizik-kimyoviy tahlil mahsulotni fizik-kimyoviy xususiyatlarini bevosita tadqiqot etishni, jumladan, undagi foydali hamda zararli elementlar va ularning birikmalari miqdorini aniqlashni taqozo etadi. Organoleptik, mikrobiologik va asosan, fizik-kimyoviy uslublar yordamida aniqlangan ko‘rsatkichlar to‘plami tahlil etilayotgan mahsulotni oziqaviy qiymati va zararsizligi to‘g‘risida asosli xulosa chiqarish imkonini beradi. Oziqaviy qiymat va zararsizlik liar bir oziq-ovqat mahsulotining asosiy sifat mezoni hisoblanadi **[2].**

Kimyoviy usullarga eng qadimgi gravimetrik va titrimetrik tahlillarga "klassik" usullari kiradi **[3].**

Kimyoviy tahlil usullari har doim ham zamonaviy talablarga javob bermaydi. Hozirgi kunda fizik va fizik-kimyoviy tahlil usullari tendensiyalari mavjud bo‘lib ular nafaqat yuqori sezgirlikka, balki "ekspress", ya’ni tezlashtirilgan tahlil usullari ham ishlab chiqilgan **[3].**

Kimyoviy tahlil - bu tahlil qilinadigan obyektning sifat va miqdoriy tarkibini aniqlashga imkon beradigan harakatlar to‘plamidir. Kimyoviy tahlil murakkab bo‘lgan ko‘p bosqichli jarayon hisoblanadi.

Analitik tahlil jarayonining standart sxemasi iste’molchi tomonidan o‘rnatilgan shakldagi vazifani haqiqiy holatga aylantirish vazifasi bilan baholanadi **[3].**

Fizik va fizik-kimyoviy tahlil metodlari shartli ravishda “instrumental” tahlil metodlari deb ataladi. Ba’zi fizik-kimyoviy usullar juda sezgirligi va amalga oshirish vaqt davomoiyligi qisqaligi bilan muhim hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tahlil qilishda turli instrumental usullarning kombinatsiyasi yangi zamonaviyning “gibrid” usullarning paydo bo‘lishiga olib keladi **[3].**

Oziq-ovqat mahsulotlarini tahlil qilishning fizik usullaridan refraktometriya (moylar va yog‘larning tabiiyligi va tozaligini yorug‘lik nurining sinish burchagi boyicha aniqlash), polarimetriya (shakar turini va uning eritmadagi konsentratsiyasini aniqlash) kabi usullar keng qo‘llaniladi **[3].**

Bundan tashqari, moddalar (yoki ionlar) aralashmalari ajratish usullari deb ataladigan usullar ham mavjud. Bularga turli xil xromatografiya turlaridan tashqari, organik erituvchilar bilan ekstraktsiya qilish va boshqa bir qator usullarni ham misol tariqasida keltirish mumkin. **[3].**

